


N.A.NURMATOV, G'.T.RAXMONOV, R.ALIMOV,  
O.Z.SULTONOV, I.X.XAMIDJONOV

# ELEKTR VA MAGNETIZM



22.33

2020-

E-45

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

N.A. NURMATOV, G.T. RAXMONOV,  
R. ALIMOV, O.Z. SULTONOV, I.X. XAMIDJONOV

## ELEKTR VA MAGNETIZM FANIDAN PRAKTIKUM

*Uslubiy qo'llanma*

Toshkent  
"Innovatsiya-Ziyo"  
2021

**UDK : 817.2**

**BBK: 29.136**

**N 54**

**N.A.Nurmatov**

**Elektr va magnetizm fanidan praktikum/ G.T.Raxmonov,  
R.Alimov, O.Z.Sultonov, I.X.Xamidjonov/ uslubiy qo'llanma.  
Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 176 b.**

Ushbu uslubiy qo'llanma Fizika fakultetining fizika, astronomiya va tibbiyot fizikasi ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda umumiyliz sizikaning "Elektr va magnetizm" bo'limiga oid 14 laboratoriya ishlarini o'z ichiga oladi. Uslubiy qo'llanma bakalavriat ta'limi yo'nalishlari davlat ta'lim standartlari talablari asosida tayyorlangan.

Данное учебное пособие является частью курса общей физики по направлению «Электричество и магнетизм» и предназначено для студентов физического факультета по специальностям физика, астрономия и физическая биомедицина. Пособие подготовлено на основе государственных образовательных стандартов для бакалавриата и может быть использовано в качестве учебника по этим специальностям.

This textbook is part of the course of general physics in the direction of "Electricity and Magnetism" and is intended for students of the Faculty of Physics in the specialties of physics, astronomy and physical biomedicine. The manual has been prepared on the basis of state educational standards for undergraduate studies and can be used as a textbook for these specialties.

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9943-7258-7-4**

**N.A.Nurmatov va boshq., 2021.**

**© "Innovatsiya-Ziyo", 2021.**

4190/1

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagи "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-sonli va 2019 yil 17 iyundagi "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarorlari hamda 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish koncepciyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida Fizika, Astronomiya va Tibbiyot fizikasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni talab qiladi.

Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida Fizika, Astronomiya va Tibbiyot fizikasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning egallagan nazariy bilimlarini xozirgi zamон yutuqlarini hisobga olgan laboratoriya ishlari bilan mustahkamlash uchun o'zbek tilida va lotin alifbosida yozilgan uslubiy va o'quv qo'llanmalar etishmaydi. Ushbu uslubiy qo'llanma yuqoridaagi muammoni hal etishga qaratilgan. Mazkur "Elektr va magnetizm fanidan fizpraktikum" uslubiy qo'llanmada laboratoriya mashg'ulolarini tashkil etish va laboratoriya ishlarini bajarish tartibi batafsil yozilgan. Ushbu uslubiy qo'llanmada 14 ta laboratoriya ishlari to'liq bayon qilingan. Ushbu uslubiy qo'llanmaga kiritilgan ayrim laboratoriya ishlari professor I.Bo'riboev va docent R.Karimovlar tomonidan nashr etilgan "Elektr va magnetizmdan fizpraktikum" o'quv qo'llanmasidan olingan bo'lib, laboratoriya ishlari zamон talabidan kelib chiqib, takomillashtirilgan hamda yangi

*adabiyotlar va nazorat savollari bilan to'ldirilgan. Ushbu ushubiy qo'llanmaga kiritilgan 7 ta laboratoriya ishlari xorijdan olib kelgingan yangi laboratoriya ishlari bo'lib, laboratoriya ishlarini bajarish uchun zarur bo'lган asbob – uskunalar, mavzu bo'yicha nazariy bilimlar, laboratoriya ishlarini bajarish tartibi, natijalarni qayta ishlash usullari, tajriba natijalarni hisoblash va talabalar bilimini baholash uchun nazorat savollari bilan to'ldirilgan.*

*Uslubiy qo'llanmaning so'ngi qismida nazariy materiallar, elektr o'lchov asboblari va ularning hatoliklari, ampermetr va vol'tmetr yordamida qarshiliklarni o'lchash, shunt va qo'shimcha qarshiliklarni tanlash, potenciometrik ularash, tajribada olingan natijalarni turli matematik usullarda hisoblash to'liq bayon qilingan. Laboratoriya ishlarini qo'yish, ta'mirlash, saqlash va o'quv jarayoniga tadbiq etishda qatnashgan umumiy fizika kafedrasining professor-o'qituvchilari va hodimlariga mualliflar o'z minnatdorchiligini bildiradi.*

*Mualliflar ushubiy qo'llanmaning sifatini yaxshilash bo'yicha bildirilgan fikr va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishinglarni iltimos qildi. Toshkent shahri. Talabalar shaharchasi. O'zMU. Fizika fakulteti. Umumiy fizika kafedrasi.*

## 1. NAZARIY MATERIALLAR

### 1. VAKUUMDA O'ZGARMAS ELEKTR MAYDONI. KULON QONUNI. GAUSSNING ELEKTROSATIK TEOREMASI

**Elektr zaryadi** – elektromagnit maydon manbai va ta'sir etish obyekti.

**Elektromagnit maydon** – zaryadlar orasidagi ta'sirning moddiy tashuvchisi. Elektromagnit maydon tushunchasi yaqindan ta'sir etish konsepsiyasiga mos keladi.

**Zarrachaning elektr zaryadi** – zarrachaga xos bo'lgan sifat bo'lib, uning elektromagnit ta'sirini xarakterlaydi.

**Elementar zaryad** – zaryadning eng kichik, bo'linmas qismi bo'lib, SI sistemasida  $e \approx 1,60 \cdot 10^{-19}$  C ga teng.

**Elektron** – elementar manfiy elektr zaryadning stabil (bo'linmas) bo'lgan moddiy tashuvchisi.

**Proton** – elementar musbat elektr zaryadning moddiy tashuvchisi.

**Elektr zaryadining saqlanish qonuni:** izolyatsiyalangan sistemani tashkil qilgan barcha jismlardagi zaryadlarning algebraik yig'indisi vaqt o'tishi bilan o'zgarmay qoladi.

**Zaryadning relyativ invariantligi:** elektr zaryad kattaligi zarra tezligiga bog'liq emas – bu zaryad tashuvchisining yoki o'lchov sistemasi tezligi bo'lishi mumkin.

**Nuqtaviy zaryad** – zaryadlangan jismning shunday modeliki, bunda uning o'lchamlarini shu zaryad va u bilan ta'sirlashayotgan boshqa zaryad yoki zaryadlangan jismlargacha bo'lgan masofaga nisbatan hisobga olmasa bo'ladi.

**Qo'zg'almas zaryad** – zaryadi o'zgarmas, o'rtacha tezligi nolga yaqin bo'lgan, cheksiz kichik hajmda joylashgan jismlar sistemasining modeli. Ochig'ini aytganda, qo'zg'almas zaryadlar tabiatda uchramaydi.

**Elektrostatik maydon** – qo'zg'almas zaryad yoki zaryadlar sistemasi hosil qilgan elektrik maydon. Bunda zaryadlar noelektrik kuchlar yordamida qo'zg'almay turadi deb hisoblanadi. Faqatgina elektrostatik kuchlar yordamida muvozanat hosil qilinishi mumkin emas (**Irnshou teoremasi**).

**Sinov zaryadi** – elektrostatik maydonning xususiyatlarini o'rGANISH uchun shu maydonga kiritiluvchi nuqtaviy zaryad. Bu

zaryad shunchalik kichik bo'lishi kerakki, elektrostatik maydonni hosil qiluvchi zaryadlar sinov zaryadi ta'sirida joylaridan siljimasliklari kerak va pirovardida, ular hosil qilgan elektrostatik maydon ham o'zgarmay qolishi kerak.

**Kulon qonuni:** vakuumda joylashgan ikki nuqtaviy qo'zg'almas  $q_1$  va  $q_2$  zaryadlar orasidagi masofa  $r$  bo'lganida ular orasidagi o'zaro ta'sir kuchi (SI o'lchov sistemasida) quyidagiga teng bo'ladi

(1.1)

Bu kuchning yo'nalishi zaryadlarni tutashtiruvchi chiziq bo'ylab yo'nalgan bo'ladi (ishoralar bir xil zaryadlar o'zaro itarishadi, har xil ishorali zaryadlar tortishadi). (1.1) formuladagi

$$\approx 8,85 \cdot 10^{-12} \left[ \frac{C}{m} \right] = \left[ \frac{N}{C^2} \right]$$

kattalik elektr doimiysi deb ataladi (bu doimiy kattalikning aniq qiymati  $\epsilon_0 = \frac{1}{4\pi \cdot 10^9}$ , ga teng b o'lib, bu yerda  $c$  – yorug'likning vakuumdagi tezligi).

Xalqaro birliklar sistemasida  $1/(4\pi\epsilon_0)$  kattalik elektrostatikaning ko'pgina formulalariga kirgani uchun u qisqa ko'rinishda bitta harf bilan belgilanadi:

$$— \approx 9 \cdot 10^9 —$$

**Elektrostatik maydon kuchlanganligi  $E$**  – maydonga kiritilgan  $q$  sinov zaryadiga ta'sir qiluvchi kuch orqali aniqlanuvchi, shu maydonning asosiy kattaliklaridan biri

– (1.2)

Nuqtaviy zaryad  $q$  dan  $r$  masofa uzoqlikda yotgan nuqtada bu zaryad hosil qiladigan maydon kuchlanganligi vektor kattalik bo'lib, uning son qiymati quyidagicha aniqlanadi

— (1.3)

Bu olingen ifodaga **nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi** deyiladi (Kulon qonunining maydon nuqtai nazaridan talqini).

**Maydon kuch chiziqlari** – maydonning ixtiyoriy nuqtasiga o'tkazilgan urinma bilan ustma ust tushuvch vektor chiziqlar. Maydon kuch chiziqlari doim musbat zaryaddan boshlanib manfiy zaryadda tugaydi (ular cheksizlikdan boshlanishlari yoki cheksizlikda tugashlari ham mumkin. Bunda qarama-qarshi ishorali zaryadlar cheksizlikda joylashgan deb faraz qilinadi).

**Superpozitsiya prinsipi:** zaryadlar sistemasi hosil qilgan maydon kuchlanganligi  $E$  sistemadagi har bir zaryad hosil qilgan maydon kuchlanganliklari  $E_1, E_2, \dots$ , larning vektor yig'indisiga teng:

$$= E_1 + E_2 + E_3 + \dots$$

Radius vektorlari  $\mathbf{r}_i$ , bo'lган  $q_i$  nuqtaviy zaryadlarning radius vektori  $\mathbf{r}$  bo'lган nuqtadagi umumiy elektr maydon kuchlanganligi  $E$  quyidagiga teng:

$$(r) = \sum_i \frac{\text{---}}{||\mathbf{r}_i||^3}$$

**Zaryadning hajmiy zichligi**  $\rho$  deb cheksiz kichik joylashgan  $dq$  zaryadninig shu hajmga nisbatiga aytildi:

$$\rho = \text{---}$$

**Zaryadning sirtiy zichligi**  $\sigma$  deb cheksiz kichik  $dS$  yuzada joylashgan  $dq$  zaryadninig shu  $dS$  yuza nisbatiga deyiladi:

$$\sigma = \text{---}$$

**Zaryadning chiziqli zichligi**  $\tau$  deb cheksiz kichik  $dl$  uzunlikda joylashgan  $dq$  zaryadninig shu  $dl$  uzunlik nisbatiga deyiladi:

$$\tau = \text{---}$$

Radius vektori  $\mathbf{r}$  bo'lган nuqtada hajmiy zichligi  $\rho(\mathbf{r})$  yoki sirtiy zichligi  $\sigma(\mathbf{r})$  yoki chiziqli zichligi  $\tau(\mathbf{r})$  bo'lган zaryadlar sistemasi hosil qilgan natijaviy **elektrostatik maydon kuchlanganligi**  $E$  quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\mathbf{P}(\mathbf{r}) = \int \frac{dq(\mathbf{r}')}{|\mathbf{r}' - \mathbf{r}|}$$

bu yerda  $dq(\mathbf{r}')$  mos ravishda har bir hol uchun mos ravishda  $\rho(\mathbf{r}')dV'$ ,  $\sigma(\mathbf{r}')dS'$  yoki  $\tau(\mathbf{r}')dl'$  ga teng bo'ladi.

**Elektr dipol** – bir biriga yaqin joylashgan, kattaligi bir xil lekin ishorelari turlicha bo'lgan zaryadlar sistemasi. Manfiy zaryaddan imusbat zaryadga o'tkazilgan  $\mathbf{l}$  vektorga dipolning yelkasi deyiladi.

(1.4)

Vektor kattalikka dipolning elektr momenti deyiladi.

**$N$  zaryadli sistemaning elektr dipol momenti** deb quyidagi vektorga aytildi

$$\mathbf{P} = \sum_{i=1}^N \mathbf{q}_i \mathbf{r}_i, \quad (1.5)$$

bu erda  $\mathbf{r}_i$  –  $i$ -zaryadning radius-vektori.

Agar sistemaning to'liq zaryadi nolga teng bo'lsa (elektrik neytral sistema) dipol momentining kattaligi sanoq sistemasining boshi qanday tanlanganligiga bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun  $\mathbf{r}_i$  radius vektorlar istalgan nuqtadan boshlab hisoblanishi mumkin. Bunday hollarda, sistemadan uzoq masofalarda (dipol o'lchamiga nisbatan ancha katta masofalarda) uning elektr maydoni nuqtaviy zaryad maydoni bilan bir xil bo'ladi (1.4).

S yuza orqali **ixtiyoriy A vektoring oqimi** – yuza orqali integral

$$F = \int \mathbf{A} d\mathbf{S} \quad (1.7)$$

bu erda  $d\mathbf{S}$  – moduli bo'yicha  $S$  yuzaning  $dS$  elementiga teng va yo'nalishi bo'yicha shu yuzaga normal yo'nalgan vektor. Agar yuza yopiq bo'lsa, integral  $\oint$  – ko'rinishda yoziladi. Bu holda  $d\mathbf{S}$  vektoring yo'nalishi shu nuqtada yuzaga tashqi normal bo'yicha yo'nalgan bo'ladi.

## **2. ELEKTROSTATIK MAYDONDA BAJARILGAN ISH. POTENSIAL**

Nuqtaviy  $q$  zaryadni 1 nuqtadan 2 nuqtaga ko'chirishda elektrostatik kuchlar bajargan ish chiziqli integral ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi

$$A_{12} = \int_{(L_{12})} \quad (2.1)$$

bu erda  $L_{12}$  – zaryadning harakatlanish trayektoriyasi,  $dl$  – trayektoriya bo'y lab cheksiz kichik siljish. Agar kontur yopiq bo'lsa integral uchun  $\oint$  – belgi ishlataladi. Bunda konturni aylanib o'tish yo'li tanlab olingan deb taxmin qilinadi.

**Elektostatik maydon potensial maydon** hisoblanadi: zaryadni yopiq kontur bo'y lab ko'chirishda bajarilgan ish nolga teng bo'ladi. Zaryadni maydonning ixtiyoriy 1- nuqtasidan 2- nuqtasiga ko'chirishda bajarilgan ish trayektoriyaga bog'liq bo'lmay, faqat 1- va 2- nuqtalarning joylashish holatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ishni quyidagicha tasvirlash mumkin

$$A_{12} = q [\phi(\mathbf{r}_1) - \phi(\mathbf{r}_2)], \quad (2.2)$$

bu yerdagi skalyar funksiya  $\phi(\mathbf{r})$  **elektrostatik maydon potensiali** deb ataladi. Bu funksiya butun fazoda uzlusiz bo'lib, chekli birinchi hosilalarga ega.

**Potensial - elektrostatik maydonning energetik xarakteristikasi** bo'lib, uni elektrostatik maydondagi  $q$  zaryadning  $W(\mathbf{r})$  potensial energiyasi orqali aniqlash mumkin

$$\phi(\mathbf{r}) = \text{_____}$$

$\mathbf{r}$  nuqtadagi potensial son jihatdan shu nuqtada joylashgan birlik nuqtaviy zaryadning potensial energiyasiga teng.

**Faqat ikki nuqta potensiallarining farqigina fizik ma'noga ega,** shuning uchun potensial energiya kabi potensial ham sanoq boshiga bog'liq bo'lган ixtiyoriy o'zgarmas aniqligida izланади.

**Potensial normirovkasi** – istalgan nuqtada potensialga ma'lum qiymat berib unga aniqlik kiritish. Odatda, normirovkaning ikki qulay turidan biri tanlanadi:

1)agar zaryad fazoda chegaralangan hajmni egallasa, unda cheksizlikdagi nuqta potensial nolga teng deb qabul qilinadi;

2)agar o'tkazuvchi bo'lgan jism qaysidir yo'l bilan yerga ulangan bo'lasa (yerga ulash), unda uning potensiali yerning potensialiga teng (yerning potensialini nolga teng deb hisoblash mumkin) deb hisoblanadi.

Zaryadimiz cheksiz sohalarni egallagan turli modellarda (masalan, zaryadlagan cheksiz tekislik, ip, silindr va h.k.) potensialning nol nuqtasi ixtiyoriy ravishda tanlanadi va, simmetriya nuqtai nazaridan, natijalarini olish qulayligi bilan belgilanadi.

**Nuqtaviy zaryad  $q$  potensiali** quyidagiga teng

$$\phi(\mathbf{r}) = \dots \quad (2.3)$$

bu erda  $r$  – zaryad  $q$  bilan kuzatish nuqtasi orasidagi masofa (zaryaddan cheksiz masofada joylashgan nuqtadagi potensialni nolga teng deb qabul qilamiz).

**Nuqtaviy zaryadlar sistemasining potensiali** qaralayotgan nuqtadagi har bir zaryad hosil qilgan maydon potensiallari yig'indisiga teng bo'ladi (potensiallar uchun superpozisiya prinsipi).

$$\phi(\mathbf{r}) = \sum \dots \quad (2.4)$$

bu erda  $r_i$  – potensial o'lchanayotgan nuqta bilan har bir  $i$ - zaryad orasidagi masofa.

**Nuqtaviy dipolning maydon potensiali** quyidagicha aniqlanadi

$$\phi(\mathbf{r}) = \dots \quad (2.5)$$

(koordinatalar boshi dipol joylashgan nuqtada).

**Uzlusiz taqsimlangan zaryadlarning maydon potensiali:** agar barcha zaryadlar fazoning chegaralangan qismida joylashgan bo'lsa va ularning potensiali cheksizlikda nolga normirovka qilingan bo'lsa, unda potensial quyidagicha bo'ladi

$$\phi(\mathbf{r}) = \int \frac{1}{|\mathbf{r} - \mathbf{r}'|} \quad (2.6)$$

bu erda  $\mathbf{r}' = dq$  zaryadning radius-vektori,  $\mathbf{r}$  – potensial o'lchanayotgan nuqta bilan  $\mathbf{r}'$  nuqtaning cheksiz kichik hajmida

joylashgan  $dq(\mathbf{r}')$  zaryadiga o'tkazilgan vektor. Integrallash hajm zichligi  $\rho$  bo'lgan hamma hajmlar ( $dq(\mathbf{r}') = \rho(\mathbf{r}')dV$ ) bo'yicha, sirt zichligi  $\sigma$  bo'lgan hamma sirtlar ( $dq(\mathbf{r}') = \sigma(\mathbf{r}')dS$ ) bo'yicha va uzunlik zichligi  $\tau$  bo'lgan hamma chiziqlar ( $dq(\mathbf{r}') = \tau(\mathbf{r}')dl$ ) bo'yicha bajariladi.

Istalgan A vektorning  $L$  berk kontur bo'yicha **sirkulyatsiyasi** deb quyidagi chiziqli integralga aytildi

$$\oint_{\text{contour}} \phi \quad \oint_{\text{contour}} \phi \quad \oint_{\text{contour}} \phi \quad (2.7)$$

**A vektorning rotorini** deb shunday vektor kattalikka aytildiki, uning  $\vec{n}$  vektorning musbat yo'nalishdagi normaliga bo'lgan proaksiyasi, shu vektorning cheksiz kichik  $L$  berk kontur bo'yicha sirkulyasiyasining shu kontur bilan chegaralangan  $\Delta S$  yuzaga nisbatining limitiga aytildi

$$\text{rot}_n \mathbf{A} = \lim_{\Delta S} \oint_{\Delta S} \phi Adl \quad (2.8)$$

$\vec{n}$  normalning musbat yo'nalishi  $L$  konturni o'ng parma qoidasiga ko'ra aylanib o'tish bilan mos keladi.

Dekart koordinatalar sistemasida rotorni  $\mathbf{i}$ ,  $\mathbf{j}$ ,  $\mathbf{k}$  ortlar bilan vektor ko'paytma ko'rinishda tasvirlash mumkin

$$\text{rot } \mathbf{A} = [\nabla \mathbf{A}] = \begin{vmatrix} - & - & - \\ - & - & - \\ A & & \end{vmatrix} \quad (2.9)$$

bu erda (nabla) ramziy vektor operatori. Uning dekart koordinatalar sistemasidagi ko'rinishi quyidagicha:

$$-\mathbf{i} - \mathbf{j} - \mathbf{k}$$

**Stoks formulasi:** A vektorning istalgan  $L$  kontur bo'yicha sirkulyasiyasi  $\mathbf{A}$  vektor rotorining  $L$  konturga tutash istalgan yuza orqali o'tgan oqimiga teng:

$$\oint_{\text{contour}} \phi = \oint_{\text{contour}} \phi = \oint_{\text{contour}} \mathbf{S} \cdot d\mathbf{l} \quad (2.10)$$

vektorning sirkulyatsiyasi to'g'risidagi teorema (elektr maydonining potensial xarakterga ega ekanligining integral ta'rifi): istalgan elektrostatistik maydonda  $\mathbf{E}$  vektorning  $L$  berk kontur bo'yicha sirkulyasiyasi nolga teng

$$\oint \mathbf{E} dl = 0. \quad (2.11)$$

Elektrostatik maydonining potensial xarakterga ega ekanligining differensial ta'rifi: istalgan elektrostatik maydonda, istalgan nuqtada

$$\operatorname{rot} \mathbf{E} = 0. \quad (2.12)$$

**φ skalyar funksiyaning gradiyenti** deb quyidagi vektorga aytildi

$$\operatorname{grad} \varphi = \nabla \varphi = \mathbf{i} — + \mathbf{j} — + \mathbf{k} — \quad (2.13)$$

Bu vektorning yo'nalishi  $\varphi = \text{const}$  bo'lган tekislikka perpendikulyar va  $\varphi$  ning oshishi tomonga yo'nalgan bo'lib, moduli  $\varphi$  dan shu yo'nalish bo'yicha olingen hosilaga teng.

### **Ikki muhim matematik ayniyat:**

$$\text{Istalgan } \mathbf{A}(\mathbf{r}) \text{ vektor funksiya uchun } \operatorname{div} \operatorname{rot} \mathbf{A} \equiv 0; \quad (2.14)$$

$$\text{Istalgan } \varphi(\mathbf{r}) \text{ skalyar funksiya uchun } \operatorname{rot} \operatorname{grad} \varphi \equiv 0 \quad (2.15)$$

**Ekvipotensial sirtlar** – potentsiallari bir xil bo'lган nuqtalardan tashkil topgan sirtlardir. Maydon kuchlanganlik chiziqlari ekvipotensial sirtlarga perpendikulyar bo'lib, potensial kamayishi tomoniga yo'nalgan bo'ladi.

**Maydon potensialning maydon kuchlanganligi bilan bog'lanishi**

$$= -\operatorname{grad} \varphi. \quad (2.16)$$

Teskari operasiya – potensiallar farqi  $\Delta\varphi_{21}$  ni ma'lum kuchlanganlik  $\mathbf{E}$  orqali aniqlash

$$\int_C \mathbf{l} \cdot \quad (2.17)$$

bu erda integrallash 1- va 2- nuqtalarni tutashtiruvchi istalgan trayektoriya bo'ylab amalga oshiriladi.

**Potensial uchun differensial tenglama (Puasson tenglamasi)**

$$\Delta\phi = -\frac{\rho}{\epsilon_0} \quad (2.18)$$

bu erda  $\Delta$  – Laplas operatori. Dekart koordinatalar sistemasida Laplas operatori hamma koordinatalar bo'yicha ikkinchi tartibli hosilalarning yig'indisi sifatida keladi:

$$\Delta \equiv \nabla^2 = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2} + \frac{\partial^2}{\partial z^2} \quad (2.19)$$

Sferik koordinatalar sistemasida ( $r, \vartheta, \phi$ ) Laplas operatori quyidagi ko'rinishni oladi

$$\Delta = \frac{\partial^2}{\partial r^2} + \frac{2}{r} \frac{\partial}{\partial r} + \frac{1}{r^2} \left( \frac{1}{\sin^2 \vartheta} \frac{\partial^2}{\partial \varphi^2} + \frac{\partial^2}{\partial \vartheta^2} + \operatorname{ctg} \vartheta \frac{\partial}{\partial \vartheta} \right) \quad (2.20)$$

Zaryadlar bo'limgan sohalarda Puasson tenglamasi Laplas tenglamasiga aylanadi:

$$\Delta\phi = 0. \quad (2.21)$$

### **3. ELEKTR MAYDONIDA O'TKAZGICHALAR. ELEKTR SIG'IMI**

**O'tkazgichlar** - bu shunday material jismlarki, tashqi elektr maydoni ta'sirida ularda zaryadlarning tartibli harakati, elektr toki, hosil bo'ladi. O'tkazgich ichida elektr zaryadlar makroskopik masofalarga ko'chishi mumkin (bunday zaryadlar **erkin zaryadlar** deb ataladi).

**O'tkazgich ichida elektrostatik muvozanat paytida elektr maydoni bo'lmaydi ( $E=0$ )**, demak  $\text{div } E = 0$  ifodasi o'rinnlidir. Buning ma'nosi shuki, o'tkazgichning istalgan cheksiz kichik hajmida musbat va manfiy zaryadlarning soni bir xil bo'ladi, ya'ni umumiy hajmiy zaryad zichligi  $\rho$  nolga tengdir (1 bob (1.11) qarang).

Agar o'tkazgich zaryadlangan bo'lsa yoki tashqi elektr maydoniga joylashtirilsa, elektr zaryadlar o'tkazgichning tashqi yuzasida  $\sigma$  sirt zaryad zichligi bilan taqsimlanadi. Bu o'tkazgich ichida maydon kuchlanganligi nolga tengligini ta'minlaydi.

**Elektrostatik induksiya** – o'tkazgich tashqi elektr maydoniga joylashtirilganida, uning yuzasidagi zaryadlarning qayta taqsimlanish hodisasi. Istalgan tashqi maydonda o'tkazgich yuzasidagi zaryadlar shunday taqsimlanadiki, bunda o'tkazgich ichida  $\vec{E} = 0$  va  $\rho = 0$  shartlar bajariladi.

**O'tkazgich tashqarisida, uning yuzasi yaqinidagi har bir nuqtada, elektr maydon kuchlanganligi  $\vec{E}$  yuzaga normal bo'yicha yo'nalan bo'ladi va uning moduli quyidagiga teng bo'ladi:**

$$-$$
 (3.1)

**Muvozanat holatida o'tkazgichning butun hajmi yagona ekvipotensial hududga aylanadi**, ya'ni o'tkazgichning istalgan nuqtasida potensiali bir xil bo'ladi (u o'tkazgichning potensiali deb ataladi).

**Zazemlenie (erga ulanish)** – berilgan o'tkazgichni hajmi juda katta bo'lgan boshqa o'tkazgichga ulash. Bunda bir o'tkazgichdan ikkinchi o'tkazgichga zaryad o'tganida ikkinchingining potensiali o'zgarmasdan qoladi deb hisoblanadi. Bunday o'tkazgich sisatida

odatda, Yer nazarda tutiladi. Yerga ulangan o'tkazgichning potensiali nolga teng deb qabul qilinadi.

**Yakkalangan o'tkazgichning potensiali  $\phi$  undagi  $Q$  zaryadga proporsional:**

$$Q = C \phi. \quad (3.2)$$

O'tkazgich zaryadi va uning potensiali orasidagi proporsionallik koeffitsiyenti **C o'tkazgich elektr sig'imi** deb ataladi. O'tkazgichdagi zaryad  $\Delta Q$  miqdorga o'zgarganida uning potensiali ham o'zgaradi

$$\Delta\phi = -$$

Xalqaro birliklar sistemasida elektr sig'imi Faradalarda [F] o'lchanadi.

**O'tkazgichning sig'imi faqatgina uning shakli va kattaligiga bog'liqdir (vakuumda).** Xususan, yakkalangan  $R$  radiusli sharning sig'imi  $C = 4\pi\epsilon_0 R$  ga teng.

Agar zaryadlangan  $N$  ta o'tkazgich mavjud bo'lsa, ulardan har birining potensiali shu o'tkazgichlar zaryadlariga chiziqli bog'langan bo'ladi:

$$\Sigma \quad (3.3)$$

Masalan,  $Q_1$  va  $Q_2$  zaryadga ega ikki o'tkazgichning potensiallari mos ravishda quyidagicha bo'ladi:

$$\phi_1 = \alpha_{11}Q_1 + \alpha_{12}Q_2 \text{ va } \phi_2 = \alpha_{21}Q_1 + \alpha_{22}Q_2 \quad (3.4)$$

$\alpha_{ij}$  kattaliklar potensial koeffitsiyentlari deb ataladi. Ularning qiymatlari musbat va o'z indekslariga nisbatan simmetrikdir ( $i \neq j$  bo'lganida  $\alpha_{ij} = \alpha_{ji}$ ).

(3.3) sistemani  $Q_i$  zaryadlarga nisbatan yechib quyidagini topamiz:

$$Q_i = \sum_{j=1}^N C_{ij}\varphi_j \quad (3.5)$$

**C kattaliklar sig'imi koeffisientlar deb ataladi.** Bir xil indeksli ( $i=j$ ) sig'imi koeffisientlar musbat; turli indeksli koeffisienlar esa manfiy yoki nolga teng bo'ladi.

Zaryadlari modul jihatidan bir xil, ishorasi qarama-qarshi bo'lgan ikki o'tkazgichdan iborat bo'lgan sistemaga kondensator deyiladi. Bunda, o'tkazgichlar - kondensator qoplamlari, ularning zaryadlari moduli esa kondensator zaryadi deb ataladi. **Kondensatorda musbat zaryadlangan qoplamadan boshlangan maydon kuch chiziqlarining hammasi manfiy zaryadlangan qoplamada tugaydi.** Texnikada kondensatorlar shunday yaratiladi, bunda elektr maydoni maksimal darajada faqatgina qoplamlalar orasida mayjud bo'lib, kondensator chetida yuzaga keladigan turli effektlar minimal bo'ladi. Bunday holatga qoplamlarning shaklini tanlash orqali erishiladi. Masalan, bu tekis plastina yoki rulon shaklida o'ralgan o'tkazgich bo'lishi mumkin. Bunda o'tkazgichlar orasi ingichka dielektrik qatlama bilan to'ldriladi.

**Kondensator sig'imi**  $C$  deb kondensator zaryadi  $Q$  bilan qoplamlar orasidagi potensiallar farqining absolyut qiymati orasidagi, musbat kattalik bo'lgan, proporsionallik koeffisientiga aytildi

$$Q=CU. \quad (3.6)$$

Kondensator qoplamlari orasidagi potensiallar farqiga, ko'pincha, kuchlanish deyiladi.

Agar kondensator qoplamlari orasida vakuum bo'lsa, unda

1) yassi kondensatorning sig'imi quyidagicha aniqlanadi

$$— \quad (3.7)$$

bu erda  $S$  – kondensator qoplamlari yuzasi,  $d$  – qoplamlar orasidagi masofa ( $d \ll \sqrt{S}$ );

2) silindrik kondensatorning sig'imi

$$C=\frac{1}{\ln\left(\frac{2r}{d}\right)} \quad (3.8)$$

bu erda  $r$  – tashqi va ichki qoplamlar radiuslari,  $h$  – silindrler uzunligi ( $h \gg d$ );

3)sferik kondensatorning sig'imi

$$C = \frac{4\pi r^2}{h} \epsilon_0, \quad (3.9)$$

bu erda  $r_1$  va  $r_2$ - tashqi va ichki qoplamlar radiuslari.

### Kondensatorda to'plangan elektrik energiya quyidagi teng

$$W = \frac{1}{2}CU^2 = \frac{Q}{2}U \quad (3.10)$$

Kondensatorlar parallel ulanganda ularning sig'implari qo'shiladi:

$$C = C_1 + C_2 + \dots \quad (3.11)$$


Kondensatorlar ketma-ket ulanganida ularning sig'implari teskari ravishda qo'shiladi:

$$- - - \quad (3.12)$$

**Tasvir usuli (yoki ko'zgu tasvir usuli)** – ba'zi hollarda, o'tkazgich yuzasida taqsimlangan zaryadlarning maydonini topish uchun qo'llaniladigan usul. Bu usul elektrostatikadagi yagonalik teoremasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra, berilgan zaryadlar uchun shunday qo'shimcha mavhum zaryadlar tanlanadiki, shu zaryadlar sistemasi hosil qilgan ekvipotensial sirtlardan biri o'tkazgich sirti bilan ustma-ust tushadi. O'tkazgichdan tashqarida, mavhum zaryadlarlarning maydoni o'tkazgich yuzasidagi zaryadlar hosil qilgan maydon bilan to'la mos keladi.

Umumiy fizika kursida, odatda, quyidagi hol ko'rib chiqiladi.

### O'tkazuvchan tekislik yaqinidagi $q$ nuqtaviy zaryad



Chapdag'i rasmdan ko'rindaniki, ishorasi turli, lekin qiymati bir xil bo'lган zaryadlar orasida potensiali  $\varphi = 0$  (punktir) ga teng bo'lган tekis ekvipotensial sirt mavjud. Agar shu sirt yuzasiga o'tkazuvchan tekistikni joylashtirsak, maydon o'zgarmaydi va biz o'ng tarafda tasvirlangan sistemani hosil qilamiz. Bunda mavhum zaryad  $q'$  berilgan  $q$  zaryadning tasviri bo'ladi.

## 4. ELEKROSTATIK MAYDONDAGI DIELEKTRIKLAR

**Dielektriklar** – tarkibida, elektrik maydon ta'sirida makroskopik masofalarga ko'chishi mumkin bo'lgan, erkin zaryadlangan zarrachalari bo'lmasagan moddiy jismlar (o'tkazgichlardan farqli ravishda). Dielektrikdagi zaryadlar tashqi elektr maydoni ta'sirida faqatgina atom o'lchamlari miqyosida harakatlana oladi.

**Dielektrikdagi elektr maydon.** Tashqi elektr maydon ta'sirida dielektrikdagi musbat va manfiy zaryadlar o'zaro qarama-qarshi tarafga molekula o'lchamlari miqyosida siljiydi. Bunday sistemaning o'zi elektr maydonni hosil qiladi. Fazoning istalgan nuqtasidagi maydon tashqi maydon va dielektrikdagi yangicha taqsimlangan zaryadlar sistemasi hosil qilgan maydonlar yig'indisiga teng bo'ladi.

**Dipol momenti.** Birinchi yaqinlashishda, zaryad zichligining taqsimoti bir jinsli bo'lmasagan, elektrik neytral bo'lgan sistema o'zining dipol momenti bilan xarakterlanadi:

$$\mathbf{P} = \int \quad ).$$

Elektrik neytral sistema dipol momentining qiymati qanday sanoq sistema tanlanishiga bog'liq emas. Shuning uchun radius-vektor  $\mathbf{r}$  ni sanoq sistemaning boshi deb qabul qilingan istalgan nuqtadan boshlab hisoblash mumkin. Sistemadan katta masofa naridagi nuqtalarda uning elektr maydoni nuqtaviy dipol maydoni sifatida qabul qilishimiz mumkin (1 bob, (1.4) formula).

**Qutblanish.** Dielektrik ichida dipol momentlarining paydo bo'lishiiga (yoki tartibga tushirilishi) qutblanish deb ataladi. Qutblanish dielektrikdagi atom va molekulalardagi zaryadlarning tashqi maydon ta'sirida siljishi natijasida, ichki zaryadlari nosimmetrik taqsimlangan atomlar dipol momentlari yo'naliishlari tartibga solinishi va qator boshqa sabablar tufayli amalgalashishi mumkin. Qutblanish natijasida ajratilgan zaryadlar qutblangan (yoki bog'langan) zaryadlar deb ataladi. Bu zaryadlar hajmiy yoki sirtiy bo'lishi mumkin.

Dielektrikdagi atomlar tarkibiga kirmagan zaryadlar "chekkadagi" zaryadlar deb ataladi (ba'zan, ularni shartli ravishda erkin zaryadlar deb atashadi, lekin qator hollarda "chekkadagi" zaryadlar erkin bo'lmasligi mumkin).

**P qutblanganlik (qutblanish vektori).** Qutblanganlik bu –dipol momentining hajmiy zichligi vektori. Son jihatdan u dielektrikning hajmiy birligidagi dipol momentiga teng:

$$-\sum$$

bu erda  $\Delta V$  – radius vektori  $\mathbf{r}$  bo’lgan nuqtadagi dielektrikning cheksiz kichik hajmi,  $\mathbf{p}_i$  – shu hajmdagi  $i$ - molekulaning dipol momenti,  $n$  – dielektrikdagи molekulalar konsentrasiyasi,  $\langle \mathbf{p} \rangle = \Delta V$  hajmdagi  $\mathbf{p}$ , larning о’rtacha qiymati.

**Dielektrikdagи hajmiy bog’langan zaryadlarning zichligi**  
quyidagiga teng:

$$\rho' = -\operatorname{div} \mathbf{P}. \quad (4.1)$$

Bu ifoda faqat bir jinsli bo’lmagan holdagi qutblanishda noldan farqli bo’ladi. Bundan keyin hamma bog’langan (qutblangan) zaryadlar shtrix bilan belgilanadi (adabiyotlarda “<sub>pol</sub>” yoki “<sub>sv</sub>” kabi indeks bilan belgilangan hollar uchraydi).

Ikki dielektrik chegarasidagi sirtiy bog’langan zaryad zichligi quyidagicha bo’ladi

$$\sigma' = -\mathbf{n}_{12}(\mathbf{P}_2 - \mathbf{P}_1) = P_{1n} - P_{2n}, \quad (4.2)$$

bu erda  $\mathbf{n}_{12}$  – birinchi muhitdan ikkinchi muhitga yo’nalgan birlik normal vektori.  $\mathbf{P}$  vektorning normal tashkil etuvchisi ikki dielektrik muhit chegarasida bog’langan zaryad zichligiga teng bo’lgan sakrashni amalga oshiradi.

**Qutblanish vektori uchun Gauss teoremasi:**

$$\oint \mathbf{E} \cdot d\mathbf{l} = -q', \quad (4.3)$$

bu erda  $q'$  –  $S$  yopiq sirt ichida joylashgan to’la bog’langan zaryad.

**Dielektrikdagи elektr maydon kuchlanganligi** – bu dielektrik bo’lmagandagi tashqi zaryadlarning qaralayotgan nuqtada hosil qilgan umumiy maydon kuchlanganligi  $\mathbf{E}_0$  bilan dielektrikdagи qutblanish natijasida bog’langan zaryadlar hosil qiladigan  $\mathbf{E}'$  maydon kuchlanganliklari yig’indisi:

$$\mathbf{E} = \mathbf{E}_0 + \mathbf{E}'.$$

Agar qutblanish tashqi zaryadlar tomonidan hosil qilingan bo’lsa, unda induksiyalangan bog’langan zaryadlar maydonining yo’nalishi

har doim shu tashqi zaryadlar hosil qilgan maydonni kamaytiradi, ya'ni  $E < E_0$  bo'ladi. Shuning uchun bu maydonni qutblanishni so'ndiruvchi maydon deb atashadi.

**Dielektrik qabul qiluvchanlik.** Ko'p hollarda, dielektrikning qutblanish vektori  $\mathbf{P}$  dielektrikdagi maydon kuchlanganligi  $\mathbf{E}$  ga proporsional bo'ladi va dielektrikning turli yo'nalishlardagi xossalari bir xil bo'ladi (bunday dielektrik chiziqli izotrop deyiladi). Uning uchun quyidagi tenglik o'rini

$$\mathbf{E}, \quad (4.4)$$

bu erdag'i koeffitsiyent  $\kappa$  dielektrik qabul qiluvchanlik deyiladi.

Bu ifodani o'zgarmas qutblanishga ega bo'lgan dielektriklarga (masalan elektretlarga) qo'llab bo'lmaydi, chunki  $\mathbf{P}$  vektorimiz tashqi maydon orqali emas, balki ichki strukturaviy omillar orqali aniqlanadi. Biz bu yerda ko'rib chiqmaydigan umumiy holda  $\mathbf{P}$  va  $\mathbf{E}$  orasidagi bog'lanish tenzorli bo'lib,  $\mathbf{E}$  ning katta qiymatlarida chiziqli bo'lmaydi.

**Agar bir jinsli va izotrop dielektrik jism ichida tashqi zaryadlar bo'lmasa,** ixtiyoriy elektrostatik maydon ta'siri natijasida unda faqat bog'langan sirtiy zaryadlar  $\sigma' \neq 0$  hosil bo'ladi. Ixtiyoriy nuqtada bog'langan hajmiy zaryadlar zichligi esa nolga teng bo'ladi  $\rho' = 0$ .

**Elektrik siljish vektori yoki elektrik induksiya vektori** (ikkala nom o'zaro ekvivalent) quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{D} = \epsilon_0 \mathbf{E} + \mathbf{P}. \quad (4.5)$$

Agar (4.4) shart bajarilsa,  $\mathbf{D}$  va  $\mathbf{E}$  vektorlar o'zaro chiziqli bog'langan:

$$\mathbf{D} = \epsilon \epsilon_0 \mathbf{E}. \quad (4.6)$$

va

$$\epsilon = (1 + \kappa) \quad (4.7)$$

kattalik nisbiy dielektrik singdiruvchanlik deb ataladi (ko'pincha uni qisqagina muhitning yoki moddaning dielektrik singdiruvchanligi deb atashadi).  $\mathbf{D}$  vektor muhitning qutblanishini hisobga olganligi sababli

toza maydon vektori bo'lmaydi. U, fizik jihatdan, bir biridan anchagini farq qiladigan ikki kattalikning yig'indisi bo'lib, chuqur fizik ma'noga ega emas. Ammo matematik nuqtai nazardan  $\mathbf{D}$  vektordan foydalanan dielektriklarda elektrostatik maydonlarni hisoblashda ancha qo'l keladi. Buning sababi  $\mathbf{D}$  vektorni aniqlashda bog'langan zaryadlarning hissasi hisobga olingan. Bir jinsli, izotrop, chiziqli qabul qiluvchanlikka ega bo'lgan, ya'ni (4.6) ifodaga bo'ysunuvchi dielektriklarda  $\mathbf{D}$  vektorining manbasi sifatida faqatgina tashqi zaryadlar olinadi, shuning uchun  $\mathbf{D}$  maydonni topishda bog'langan zaryadlarni "esdan chiqarish" mumkin.

$\mathbf{D}$  vektor uchun quyidagi differensial tenglama o'rini:

$$\operatorname{div} \mathbf{D} = \rho, \quad (4.8)$$

bu erda  $\rho$  – *tashqi zaryadlaning zichligi*.

**Elektrik ko'chish vektorining xossalari.** (4.6) ifodaga bo'ysunuvchi dielektriklarda  $\mathbf{D}(r)$  vektor maydon tabiatan potensial maydon bo'lib, o'z xossalariiga ko'ra elektrostatik maydon kuchlanganligi  $\mathbf{E}(r)$  bilan bir xildir. Buning ma'nosi shuki,  $\operatorname{rot} \mathbf{D} = 0$  bo'ladi va uning kuch chiziqlari biror tashqi zaryaddan boshlanib boshqa tashqi zaryadda (yoki cheksizlikda) tugaydi. Zaryadlar bo'limgan yerlarda ular uzlusiz bo'ladi (bog'langan zaryadlar bo'lgan nuqtalarda ham). Shuning uchun  $\mathbf{D}$  vektorni aniqlashda vakuumdagi  $\mathbf{E}$  maydon kuchlanganligini topishdagi hamma formulalardan foydalansa bo'ladi, biroq ularga zaryad sifatida barcha zaryadlarni emas, balki faqat tashqi zaryadlarni qo'yish kerak va formulalardan  $\epsilon_0$  ni olib tashlash zarur.

Agar dielektrikda (4.6) tenglik bajarilmasa,  $\mathbf{D}$  maydon uyurmali qismga ega bo'lishi mumkin. Unda  $\mathbf{D}$  maydonning kuch chiziqlari uzlusiz bo'lib, ularning hosil bo'lishi uchun erkin zaryadlarning bo'lishi shart emas. Masalan, shunday holatni doimiy qutblanishga ega bo'lgan dielektriklar – elektretlarda kuzatish mumkin.

**$\mathbf{D}$  vektor uchun Gaussning integral elektrostatik teoremasi:**

$$\oint_S \mathbf{D} d\mathbf{S} = q, \quad (4.9)$$

bu erda  $q$  –  $S$  berk sirt ichida joylashgan to'liq *tashqi zaryad*. Bu teorema dielektrik jismlarga nisbatan joylashgan istalgan  $S$  yuzalar

uchun o'rinnlidir. Agar istalgan ikki ekvipotensial sirtlar bilan qoplangan biror hajim ichini dielektrik bilan to'ldirilsa, u yerdagi maydon kuchlanganligi shu hajim dielektriksiz bo'lgandagi holatga nisbatan  $\epsilon$  marotaba kamroq bo'ladi. Xususan, cheksiz, bir jinsli,  $\epsilon$  singdiruvchanlikka ega bo'lgan dielektrik muhitda nuqtaviy zaryad uchun elektr siljishi va elektr maydon kuchlanganliklari quyidagicha bo'ladi:

$$D(r) = \dots \quad \text{va} \quad E(r) = \dots \quad (4.10)$$

Agar yassi, silindrik yoki sferik kondensatorlar qoplarnalari orasidagi muhit bir jinsli, izotrop dielektrik bilan to'ldirilsa, u erdag'i maydon kuchlanganligi dielektriksiz holdagiga qaraganda  $\epsilon$  marotaba kam bo'ladi va mos ravishda kondensatorlar sig'imi  $\epsilon$  marotaba ortadi.

**Chegaraviy shartlar.** Ikki 1- va 2- dielektriklar chegarasi uchun:

$$E_{2t} = E_{1t}, \quad (4.11)$$

$$D_{2n} - D_{1n} = \sigma, \quad (4.12)$$

ifodalar o'rinnli bo'ladi. Bu erda  $\sigma$  –chegaradagi tashqi zaryadlar zichligi bo'lib,  $\mathbf{n}$  normal vektor birinchi muhitdan ikkinchi muhitga qarab yo'nalgan. Agar ikki dielektriklar chegarasida tashqi zaryadlar mavjud bo'lmasa,  $\mathbf{D}$  vektorning normal komponentasi chegaradan o'tgananida uzlucksiz bo'ladi:

$$D_{2n} = D_{1n} \quad (4.13)$$

Bunday hol uchun chegaradagi zaryadlarning sirtiy zichligi uchun yozilgan (4.2) ifodani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\sigma' = \epsilon_0(E_{2n} - E_{1n}) \quad (4.14)$$

Agar  $\epsilon_2 > \epsilon_1$  bo'lib, maydon birinchi muhitdan ikkinchi muhitga yo'nalgan bo'lsa  $\sigma' < 0$  bo'ladi. Agar  $\epsilon_2 > \epsilon_1$  bo'lib, maydon ikkinchi muhitdan birinchi muhitga yo'nalgan bo'lsa  $\sigma' > 0$  bo'ladi. Xar ikkala holda ham ikkinchi muhitdag'i ( $\epsilon$  kattaroq bo'lgan) maydon birinchi muhitdagiga ( $\epsilon$  kichikroq bo'lgan) qaraganda kamroq bo'ladi.  $\epsilon_1 > \epsilon_2$  bo'lganida esa bog'langan zaryadlarning ishorasi teskarisiga almashtiriladi ([1] §17 ga qarang).

## 5. ELEKTR MAYDON ENERGIYASI. PONDEROMOTOR KUCHLAR

Bir biridan r masofada joylashgan  $q_1$  va  $q_2$  zaryadlarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi elektr kuchlarning zaryadlar orasidagi masofani cheksizlikka uzaytirishda bajarilgan minimal ishiga teng:

$$----- \quad (5.1)$$

bu yerda  $\phi_i = (q_i)$  zaryad joylashgan joyda  $q_2$  zaryad hosil qilgan maydon potensiali,  $\phi_2 =$  esa  $q_2$  zaryad joylashgan joyda  $q_1$  zaryad hosil qilgan maydon potensiali.

Nuqtaviy zaryadlar sistemasining o'zaro ta'sir potensial energiyasi just ta'sir o'tkazuvchi zaryadlar energiyasining yig'indisiga teng:

$$-\sum \quad ----- \quad -\sum \quad (5.2)$$

bu yerda  $\phi_i = (q_i)$  joylashgan joyda boshqa qolgan zaryadlar hosil qilgan maydon potensiali.

Zaryadning hajmiy zichligi  $\rho$  va sirtiy zichligii  $\sigma$  bo'lgan jismlar sistemasining to'liq elektrostatik energiyasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$-\int \quad \quad \quad -\int \quad (5.3)$$

bu yerda  $\phi$  – sistemaning barcha zaryadlari tomonidan  $\rho dV$  yoki  $\sigma dS$  elementining joylashgan nuqtasidagi yaratilgan potensial bo'lib, integrallash esa barcha zaryadlar mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha amalga oshiriladi. Agar sistema bir necha jismlardan iborat bo'lsa, bu formula turli jismlarda joylashgan zaryadlarning o'zaro ta'siridan tashqari sistemaning har bir jismlarida joylashgan zaryadlarning o'zaro ta'sirini hisobga bo'ladi.

Agar zaryadlangan jismlar fazoning chekli sohasida joylashgan bo'lsa, unda elektr maydon energiyasi quyidagi formula orqali hisoblanadi :

$$= -\int EdV, \quad (5.4)$$

bu yerda integrallash maydon egallagan barcha fazo bo'yicha amalga oshiriladi.

Har qanday nuqtadagi **elektr maydon energiya zichligi** quyidagiga teng:

(5.5)

**Zaryadlangan jismning xususiy energiyasi** deb zaryadlangan jism barcha zaryadlating o'zaro ta'sir energiyasiga aytildi. U (5.3) formula orqali aniqlanadi, bu yerda V – jism hajmi va S – uning sirti, φ esa jism zaryadlari hosil qilgan potensial. Xususiy energiya doimo musbat, chunki u jismni zaryadlash jarayonida elektr maydon kuchlariga qarshi «minus» ishorali bajarilgan minimal ishga teng, bu esa ushbu jism zaryadlarining o'zaro ta'sir potensial energiyasini ortishiga olib keladi.

**Bir necha jismlardan iborat sistemaning o'zaro ta'sir potensial energiyasi** sistemadagi barcha jismlarining xususiy energiyalari ayirmasini hisobga olgan holda (5.3) formula bilan aniqlanadi. U zaryadlangan jismlarni yaqinlashtirish ishi orqali aniqlanadi va u musbat yoki manfiy bo'lishi ham mumkin.

**Ponderomotor kuch** – vaznli jismlarga maydon tomonidan ta'sir etayotgan mehanik kuchni anglatuvchi o'tgan zamondagi atama. Chunki vaznsiz jismlar majud bo'lmaydi, hozir esa odatda «ponderomotor» so'zi tushirib qoldiriladi va jismga ta'sir etayotgan kuch yoki kuchlar zichligi haqida gapiriladi.

**Qaralayotgan sistemadagi zaryadlar o'zgarmas bo'lgandagi kuchlar.** Agar o'tkazgichdagi zaryadlar doimiy qiymatlarini saqlasa (sistema EYUK manbalaridan uzilgan), unda zaryadlar va fazoviy o'zgaruvchilar funksiyasi ko'rinishdagi sistema energiyasini yozishda, sistemada ta'sir etayotgan kuchlar proeksiyasi va ushbu kuchlarning momentlarini hisoblash mumkin:

(—) (5.6)

(—) (5.7)

Bu yerda  $x_i$  – dekart koordinatasi,  $\theta_i$  - i o'qiga nisbatan burlishi burchagi,  $q$  indeksi esa hisob-kitoblar o'zgarmas zaryadda amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi.

**O'tkazgichlar sistemasida potensiallar doiyimi bo'lganidagi kuchlar.** Agar o'tkazgichlarda o'zgarmas potensiallar (EYUK manbalariga ularishi hisobiga) ta'minlansa, unda sistema energiyasini potensiallar va fazoviy o'zgaruvchilar funksiyasi sifatida yozish qulaydir. Bu holda hisob-kitoblarni quyidagi formulalar bilan amalga oshirishi kerak:

$$F_i = + \left( \frac{\partial W}{\partial x_i} \right)_{\varphi} \quad (5.8)$$

$$M_i = + \left( \frac{\partial W}{\partial \theta_i} \right)_{\varphi} \quad (5.9)$$

Bu yerda  $\varphi$  indeksi hisob-kitoblar o'zgarmas potensiallarda amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

**Kuchning sirtiy zichligi.** Agar jism sirtining dS elementiga dF kuch ta'sir qilsa,  $f_s = \frac{dF}{dS}$  nisbat kuchning sirtiy zichligi deb ataladi.

**Kuchning hajmiy zichligi.** Agar jism hajmining dV elementiga dF kuch ta'sir qilsa,  $f_s = \frac{dF}{dV}$  nisbat kuchning hajmiy zichligi deb ataladi.

**Zaryadlangan o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchning sirtiy zichligi,** quyidagiga teng:

$$f_s = \frac{\sigma^2 \mathbf{n}}{2\epsilon\epsilon_0}, \quad (5.10)$$

bu yerda  $\mathbf{n}$  – o'tkazgich sirtidagi tashqi normalning birlik vektori,  $\sigma$  – kuzatish nuqtasidagi zaryad zichligi,  $\epsilon$  – o'tkazgich bilan chegaradosh bo'lган muhitning dielektrik singdiruvchanligi. Bu yerda va keyinchalik faqat suyuq yoki gaz shakldagi dielektrik bilan to'liq kontaktida bo'lishi mumkin bo'lган holat taxmin qilinadi. Muvozanat holatida o'tkazgich hajmini kattalashtirishga intiluvchi bu kuchlar,

elastik deformasiyasi natijasida yuzaga keluvchi kuchlar bilan kompensasiyalashadi.

Qattiq jismlar, gazlar va suyuqliklarning aksariyati uchun kuchlanganligi  $E$  bo'lgan tashqi maydonda dielektrik singdiruvchanligi  $\epsilon$  bo'lgan dielektrikka ta'sir etuvchi **kuchlarning hajmiy zichligi** quyidagiga teng:

(5.11)

Kuch elektr maydon kuchlanganligi modulini o'sish yo'nalishi bo'yicha ta'sir etadi.

**Zaryadlanmagan ikkita  $\epsilon_1$  va  $\epsilon_2$  dielektriklarning yassi chegarasiga ta'sir etuvchi sirtiy kuch.** Birinchi muhitdan ikkinchisi muhit chegarasiga o'tkazilgan birlik normal vektori –  $n_{12}$  va ular uchun  $\epsilon_1 < \epsilon_2$  bo'lsin. Agar tashqi maydon normal bo'yicha bo'linish chegarasiga yo'nagan bo'lsa, unda har bir muhit o'zining elektr maydoni bilan ajralish chegarasi yuzasini o'ziga tortgandek bo'ladi. Bunday kuchning sirtiy zichligi o'z muhitida maydon kuchlanganligi normal komponentasi bilan bog'langan energiyani hajmiy zichligiga teng. Bu kuchlar maksvell tortilishkuchlari deb nomланади va ularning natijaviysi ajralish chegarasiga ta'sir etuvchi kuchni ifodalaydi. Bunday kuchning zichligi quyidagicha aniqlanadi:

$$-\left(-\right)$$

(5.12)

bu yerda  $D_n$  – tashqi maydon induksiyasini normal komponentasi.

Agar tashqi maydon  $\epsilon_1$  va  $\epsilon_2$ , ikkita dielektriklarning ajratish chegarasiga tangensial yo'nalgan bo'lsa, unda ajratish chegarasiga normal bo'yicha umumiy sirtiy zichlikka teng bo'lgan kuch ta'sir etadi:

(5.13)

bu yerda  $E_t$  – tashqi maydonning tangensial komponentasi. Bu holda ta'sir kuchlari dielektriklarning bir-biriga bosim kuchlari bo'lib ular maksvell bosimlari deb ataladi. Bosim kuchlarining sirtiy zichligi

maydon kuchlanganligining tangensial komponentasi bilan bog'langan energiyaning hajmiy zichligiga teng.

**Muhitlarning ajralish chegarasiga ta'sir etuvchi kuchning sirtiy zichligi har doim energiya zichligi kichik bo'lgan muhit tarafiga yo'nalgan bo'ladi va qiymati quyidagiga teng:**

(5.14)

bu yerda  $w_1$  va  $w_2$  – birinchi va ikkinchi muhitlarga mos keluvchi elektr maydonning hajmiy zichliklari energiyalari.

Maydon kuchlanganligi  $E$  bo'lgan tashqi maydonda kuchlanganligi tashqi maydonda  $p$  momentli **nuqtaviy dipolning energiyasi** quyidagiga teng:

(5.15)

Elektrostatik maydonda **dipolga ta'sir etuvchi kuch:**

$$\mathbf{F} = (\mathbf{p} \operatorname{grad})\mathbf{E} = (\mathbf{p} \nabla) \quad - \quad - \quad - \quad (5.16)$$

## 6. O'ZGARMAS ELEKTR TOKI

**Elektr toki** – zaryadlangan zarrachalarning tartibli xarakatidir. Tok o'tkazuvchan muhit va vakuumda hosil bo'lishi mumkin. **O'tkazgichlar** – tashqi elektr maydon ta'sirida ichida erkin zaryadlar oqimi paydo bo'ladi moddiy jismlar. Agar o'tkazgichdan tok o'tsa (elektrostatikadan farqli) u ekvipotencial soha bo'la olmaydi.

### O'tkazuvchan sohada tok

**Tokning hajmiy zichligi** – zaryadlar oqimining shunday o'rtacha zaryad vektoriki, u son jihatdan zaryadlar tezligiga perpendikulyar bo'lgan birlik yuza birligidan 1 sekundda o'tuvchi zaryadga tengdir  $j = \rho v$ . Bu erda  $\rho$ -o'tkazgichning berilgan nuqtasidagi zaryadlarning hajmiy zichligi.

Tok zichligining o'lchov birligi  $[j] = A/m^2$ .  $j$  vektor musbat ishorali zaryadlangan zarralarning tartibli harakat tezligi  $v$  bilan bir xil yo'nalishga ega. Agar o'tkazgichda hajmiy zaryad zichliklari  $\rho^+$  va  $\rho^-$  ga, tezliklari mos ravishda  $v^+$  va  $v^-$  teng bo'lgan erkin zaryadlar mavjud bo'lsa, u holda umumiy tok zichligi quyidagicha bo'ladi:

$$j = j^+ + j^- = \rho^+ v^+ + \rho^- v^-.$$

**Uzluksizlik tenglamasi** (elektr zaryadlarining saqlanish qonuni)

$$-\quad\quad\quad(6.1)$$

bu erda  $\rho$ -o'tkazgichdagi zaryadlarning hajmiy zichligi,  $j$ -tok zichligi. Agar tok o'zgarmas bo'lsa, zaryadning miqdori o'tkazgichning istalgan qismida o'zgarmaydi va bu hol uchun quyidagi ifoda o'rini bo'ladi:

$$\operatorname{div} j = 0. \quad (6.2)$$

**Tokning sirtiy zichligi** – quyidagicha ifodalanuvchi vektor

$$i = \sigma v,$$

bu erda  $\sigma$ - zaryadlarning sirtiy zichligi,  $v$ -zaryadlarning sirt bo'ylab tartibli harakatining o'rtacha tezligi. Sirt zichligining o'lchov birligi  $[i] = A/m$ .

**Om qonuninig differencial ko'rinishi:**

$$j = \lambda E \quad (6.3)$$

bu erda  $E$  – o'tkazgichdagi elektrostatik maydon kuchlanganligi,  $\lambda$  – moddaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi. SI (xalqaro birliklar sistemasi) sistemasida elektr o'tkazuvchanlikning o'lchov birligi ( $\text{Om} \cdot \text{m}^{-1}$ ).

Agar zaryad tashuvchilarga elektrostatik kuchlardan boshqa kuchlar (tashqi kuchlar) ham ta'sir etsa, u holda:

$$\mathbf{j} = \lambda(E + E^*) \quad (6.3^*)$$

bo'ladi, bu erda  $E^*$  – tashqi kuchlarning kuchlanganligi bo'lib, uning qiymati erkin, birlik musbat zaryadga ta'sir etuvchi kuchga teng. Tashqi kuchlar uyurmali elektr maydoni, Lorens kuchi, o'tkazgichning fizik yoki kimyoviy jihatdan bir jinsli bo'limganligi va tezlanuvchan harakat qilishi sababli paydo bo'lishi mumkin.

Bir jinsli o'tkazgichlar uchun ( $\lambda = \text{const}$ ) (6.2, 6.3) ifodalardan div  $E=0$  ekanligi kelib chiqadi, chunki statsionar maydonlar uchun rot $E=0$ , ya'ni  $E$  maydon potentsial maydon va  $\phi$  maydon potenciali uchun Laplas tenglamasi  $\nabla^2\phi = 0$  o'rnilidir.

**Tok kuchi  $I$**  – skalyar kattalik bo'lib, son jihatdan o'tkazgichning ko'ndalang kesimi  $S$  orqali vaqt birligida o'tayotgan zaryadga teng:

$$I = \int S. \quad (6.4)$$

Tok kuchining o'lchov birligi Amper [A] SI sanoq sistemasida asosiy elektromagnit birlik hisoblanadi.

**Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni.** O'tkazgichdan oqayotgan tok kuchi o'tkazgich uchlariagi potentsiallar farqi yoi kuchlanish  $U$  ga to'g'ri proporsional, o'tkazgichning qarishiligi  $R$  ga esa teskari proporsional :

$$R = \frac{U}{I} \quad (6.5)$$

$R$  qarishiligi XBT da-[Om] larda o'lchanadi.

Bir jinsli, o'zgarmas yuzaga ega bo'lgan o'tkazgichning qarshiligi

$$R = \rho \cdot L \quad (6.6)$$

Bo'lib, bu yerda  $\rho = 1/\lambda$  – o'tkazgichning solishtirma qarshiligi ( $\rho$  o'tkazgichning materialiga, temperaturasiga bog'liq, XBT da o'lchov

birligi –[Om m]),  $I$  - o'tkazgich uzunligi,  $S$ - o'tkazgich ko'ndalang kesim yuzasi,  $\lambda$ -moddamizning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi.

**Kondensator sig'imining uning qoplamlari orasidagi qarshilikka bog'liqligi.** Ixtiyoriy shakldagi ikki o'tkazuvchan jism orasini to'ldiruvchi bir jinsli, o'tkazuvchan muhitning R qarshiligi va shu sistemaning C sig'imi undagi moddaning  $\rho$  solishtirma qarshiligi va dielektrik singdiruvchanligi bilan quyidagicha bog'langan:

$$RC = \int_{\varphi_1}^{\varphi_2} \frac{d\varphi}{\rho} \quad (6.7)$$

**Joul-Lents qonuni.** O'tkazgichdan o'tayotgan  $I$  tok ta'sirida undan ajralib chiqadiganan issiqlik quvvati quyidagiga teng:

$$P = I \quad (6.8)$$



6.1 rasm: Zanjirning kvazichiziqli qismi

**Joul-Lents qonunining differentsiyal ko'rinishi.** O'tkazgichda ajraladigan issiqlik quvvatining hajmiy zichligi quyidagiga teng:

$$(6.9)$$

### Kvazichiziqli o'tkazgichlardagi tok

**Kvazichiziqli tok** – ingichka o'tkazgichdagagi elektr toki. Tok zichligi vektori  $j$  o'tkazgich o'qiga har doim parallel va o'tkazgichning ko'ndalang kesimidagi hamma fizik kattaliklar ( $j$  ham) bir xil deb hisoblanadi.

### Kvazichiziqli zanjirning bir qismi uchun Om qonuni:

$$IR = \varphi_1 - \varphi_2 + \varepsilon \quad (6.10)$$

bu erda  $I$  – tok kuchi,  $\varphi_1 - \varphi_2$  – zanjirdagi potenciallar farqi,  $R$  – zanjirning to'la qarshiligi (6.1 rasm),  $\varepsilon$  – zanjirning 1–2 qismida ta'sir etuvchi EYUK. Quyidagi

$$\int$$

ifoda musbat birlik zaryadni berilgan (1) nuqtadan (2) nuqtaga ko'chirishdagi tashqi kuchlar bajargan ishga son jihatdan teng bo'ladi.  $IR$  kattalik  $R$  rezistordagi kuchlanish (kuchlanish tushishi) deb ataladi.

**EYUK ishorasi:**

Tashqi kuchlar tok yo'nalishi bilan bir xil yo'nalgan bo'lsa  $\varepsilon > 0$  bo'ladi (masalan 6.1 rasmida, tok manbadan (-) dan (+) ga yo'nalganda). Aksincha bo'lganida  $\varepsilon < 0$  bo'ladi.

**Manba EYUK si quvvati (tashqi kuchlar quvvati):**

$$P = \varepsilon I. \quad (6.11)$$

**Kvazichiziqli o'tkazgichlarning berk tarmoqlanmagan zanjiri uchun Om qonuni:**


$$\pm IR = \sum_j (\pm \varepsilon_j) \quad (6.12)$$

bu erda  $R$ - EYUK manbalarining ichki qarshiliklarini hisobga olgan holdagi zanjirning to'la qarshiligi (6.2 rasm). Har bir masalani yechishdan oldin tokning yo'nalishini tanlab olish zarur (6.2 rasmdagi strelka). Yo'nalishni ixtiyoriy tarzda belgilash mumkin (tokning haqiqiy yo'nalishi masala oxiridagi yechimning ishorasiga qarab aniqlanadi). Bu yo'nalishni tanlash zanjir elementlaridagi kuchlanishning ishorasini aniqlash uchun kerakdir. Undan so'ng kontur bo'yab aylanish amalga oshiriladi.

**To'la zanjir uchun Om qonunidagi ishoralarini tanlash qoidasi:**

**Tok uchun:** konturni aylanish yo'nalishi tokning tanlangan yo'nalishi bilan bir xil bo'lsa, tok musbat ( $+I$ ) hisoblanadi va aksincha ( $-I$ );

**EYUK uchun:** konturni aylanish yo'nalishi tashqi kuchlar ta'siri yo'nalishi bilan bir xil bo'lsa, EYUK musbat ( $+\varepsilon$ ) bo'lib, aks holda manfiy ( $-\varepsilon$ ) bo'ladi.



Konturning umumiy qarshiligi qarshiliklarni qo'shish qoidasi orqali aniqlanadi. Agar qarshiliklar ketma-ket ulangan bo'lsa umumiy qarshilik:

$\Sigma$

ifoda orqali aniqlanadi.

Agar zanjir tarkibida o'zaro parallel ulangan qarshiliklar bo'lsa umumiy qarshilikning ifodasi quvidagicha bo'ladi:

$$= \sum -$$

Konturni aylanish yo'nalishi ixtiyoriy bo'ladi: aylanish yo'nalishi o'zgarishi natijasida yig'indidagi hamma ishoralar o'zgarib yakuniy ifoda o'zgarmaydi. Masalan, 6.2 *rasmdagi* zanjir uchun tokning tanlangan yo'nalishi (strelka) va konturni aylanish yo'nalishlari (punktir chiziq) uchun Om qonuni quyidagicha bo'ladi (6.12):

-I(

## Bundan *J*—

## Kvazichiziqli o'zkazgichlarning tarmoqlangan zanjiri

Kvazichiziqli o'zkazgichlarning tarmoqlangan zanjirlarida zanjir tuguni deb ataladigan nuqtalar bo'lib, ularda kamida uchta o'tkazgich birlashadi (*6.3 rasm*). Bunday konturni, shartli ravishda, bir necha tarmoqlanmagan konturlarga ajratish mumkin.

## Kirxgof qoidalari


**I qoida:** Elektr zanjiri tugunlaridagi toklarning algebraik yig'indisi nolga teng (zaryadning saqlanish qonunining natijasi)

$$\sum \quad \quad \quad (6.13)$$

Yig'indi olinayotganda tugunga kirayotgan toklarning ishorasi (odatda "+") undan chiqayotgan toklarning ishorasiga ("−") qaramaqarshi qilib olinadi.

**II qoida:** Tarmoqlangan zanjirdagi istalgan konturini aylanib o'tishda, shu zanjir qarshiliklaridagi kuchlanishlarning yig'indisi 1

konturdagи EYUK larning algebraik yig'indisiga teng (o'zgarmas tokni hosil qiluvchi maydonning potencialligi natijasi):



6.3. rasm. Tarmoqlangan zanjirga misol

$$\sum \quad \sum$$

Bu formulalardan foydalanish uchun, avvalo, zanjirning har bir tarmog'ida tokning yo'naliishini tanlab olish kerak. Bu amalni ixtiyoriy tarzda bajarish mumkin (toklarning haqiqiy yo'naliishi masala javobida ulaning ishorasi orqali aniqlanadi).

Har bir konturni aylanib chiqish yo'naliishini ixtiyoriy tarzda tanlash mumkin: yuqorida ta'kidlanganidek, bunday tanlash natijasida tenglamalar mohiyati o'zgarmaydi. (6.14) da ishoralarni belgilash qoidasi yuqorida keltirilgan to'la zanjir uchun Om qonunidagidek bo'ladi.

6.3. rasmida tarmoqlangan zanjir misol sifatida keltirilgan. Ixtiyoriy tanlangan toklarning yo'naliishlari strelkalar bilan, aylanish yo'naliishlari esa punktir chiziq bilan belgilangan.

Ushbu hol uchun Kirxgof tenglamalari (6.13), (6.14) quyidagi ko'rinishiga ega bo'ladi:

$$\left\{ \begin{array}{l} I \\ \end{array} \right.$$

Bu tenglamalar sistemasini echib javobni topamiz:

Kirxgof tenglamalarini tuzishda quyidagi larni nazarda tutish lozim: (6.13) va (6.14) turdagи mustaqil tenglamalarning to'liq soni no'malum toklarning soni  $N$  ga teng bo'ladi. Tuzish mumkin bo'lgan tenglamalarning umumiy soni o'zgaruvchilar sonidan ko'proq bo'ladi, chunki aks holda tenglamalar mustaqil bo'lmaydi. 1) Tarmoqlangan zanjirda tugunlar soni  $m$  bo'lsa tok uchun (6.3) turdagи mustaqil tenglamalar soni  $m-1$  bo'ladi.

2) (6.14) turdag'i yangi mustaqil tenglamalarni faqatgina shunday konturlar uchun olish mumkinki, ularda ko'rib chiqilgan konturlar ishtirok etmasligi lozim. (6.14) turdag'i mustaqil tenglamalarning umumiy soni  $N \cdot m - 1$  ga teng bo'ladi. Agar tekislikda zanjirimiz sxemasini o'tkazgichlarning kesishmalarisiz tasavvur qilsak, bunda mustaqil tenglamalar soni o'tkazgichlar sxemani necha bo'lakka bo'lsa shuncha bo'ladi. Masalan, 6.3. rasmdagi sxemada bunday bo'laklar soni ikkita va ikkita konturni aylanib chiqish uchun mos ravishda mustaqil tenglamalar soni ham ikkita. Uchinchi tenglamani kontur perimetri bo'yicha aylanib chiqishdan hosil qilsa bo'ladi, lekin bu tenglama mustaqil hisoblanmaydi, chunki u yuqoridagi ikki tenglamalarning yig'indisi yoki ayirmasi hisoblanadi.

**Kontur toklari usuli.** Kirxgof qoidalari qo'llanilishining qulay usullaridan biri kontur toklar usulidir. Unda sxemada ajratib olingan konturga bitta kontur toki mos kelib, butun kontur bo'yicha bir xil bo'ladi. Kirxgof tenglamalari (6.14) o'z ko'riishini saqlaydi, ammo bir necha ( $m$ ) konturga kiruvchi har bir  $R_i$  dagi kuchlanish shu joydan o'tuvchi to'la tok  $I_i$  orqali ifodalanadi. O'z navbatida bu  $I_i$  tok shu joydan o'tuvchi toklarning algebraik yig'indisiga teng bo'ladi:

$$\sum \quad \sum (\pm ), \quad \sum ($$

Kontur toklarini kiritish tugunlar uchun (6.13) tenglamalarni avtomatik ravishda qanoatlantiradi. Aslida ular kerak bo'lmay qoladi va bu tarkibida tugunlari ko'p bo'lgan zanjirlarni hisoblashda juda qulaydir. Ishoralarni qo'yish qoidalari o'zgarmaydi.

6.3 rasmda keltirilgan sxema uchun kontur toklar usuli quyidagi ikki tenglamani (tokning tanlangan yo'nalishi va konturni aylanish usuli bilan mos ravishda) beradi:

$$\left\{ \begin{array}{l} \\ \end{array} \right.$$

bu erda  $R_3$  dan ikkala konturdan o'tuvchi toklar o'tishi hisobga olingan. Albatta, bu tenglamalar sistemasi shu kontur uchun yuqorida keltirilgan boshqa tenglamalar sistemasi bilan ekvivalentdir.

## 7. STACIONAR TOKNING VAKUUMDAGI MAGNIT MAYDONI

**Magnitostatik maydon.** Harakat qilayotgan har qanday zaryad o‘z atrofidagi fazoda elektrik maydondan tashqari yana magnit maydonni hosil qildi. O‘zgarmas (statsionar) toklar yoki tinch turgan magnit hosil qilgan magnit maydoniga magnitostatik maydon deyiladi. Bunday maydonning xarakteristikalari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmaydi. Boshqa tarafdan, tashqi magnit maydonga joylashtirilgan harakatlanuvchi zaryadga shu maydon tarafdan qandaydir kuch ta’sir qiladi.

**Chiziqli tok elementi** – agar tok kuchi  $I$  bo‘lgan elektr toki cheksiz ingichka (fizik ma’noda) o‘tkazgichdan o’tsa, uni chiziqli tok deb ataymiz. Bu holda, o‘tkazgichning  $dl$  elementidan o‘tayotgan elementar tok haqida gapirish mumkin.  $Idl$  kattalik chiziqli tok elementi deb ataladi. Bu erda  $dl$  vektorming yo‘nalishi o‘tkazgichdagি tokning yo‘nalishi bilan ustma-ust tushadi. Chiziqli tokning har bir elementi o‘z magnit maydonini hosil qiladi.

**Magnit doimiysi** – xalqaro birliklar sistemasida (SI)  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7}$  Gn/m ga teng (tenglik aniq),  $\epsilon_0 \mu_0 = 1/c^2$ , bu yerda  $c$  – yorug’likning vakuumdagi tezligi.

**Elementar chiziqli toklarning o‘zaro ta’siri Amper kuchi**  $dF = I [dl \mathbf{B}]$  orqali aniqlanadi: chiziqli tok elementi  $I_1 dl_1$  tomonidan boshqa chiziqli tok elementi  $I_2 dl_2$  ga ta’sir qiluvchi kuch quyidagiga teng:

$$= \frac{[d_2 [d_1]]}{(7.1)}$$

bu erda  $\mathbf{r}_{12} = I_1 dl_1$  tok elementi tomonidan  $I_2 dl_2$  tok elementiga yo‘nalgan vektor.

Tok elementlarining o‘zaro ta’sirida Nyutonning uchinchi qonuni bajarilmaydi  $d\mathbf{F}_{12} \neq -d\mathbf{F}_{21}$ , biroq yopiq konturlarning o‘zaro ta’siri uchun kuchlarning umumiy yig’indisida Nyutonning uchinchi qonuni o‘rinlidir  $\mathbf{F}_{12} = -\mathbf{F}_{21}$ .

**Magnit maydon induksiyasi vektori  $\mathbf{B}$ .** Yaqindan ta’sir qilish prinsipiغا ko‘ra (elektrostatikadagi kabi), ikki tok elementining o‘zaro ta’sirini quyidagicha tasvirlash mumkin: berilgan nuqtada  $I_1 dl_1$  tok elementi shunday magnit maydonini hosil qiladiki, bu maydonning

kattaligi va yo'nalishi - **magnit maydon induksiyasi vektori** **B** bilan xarakterlanadi.

**B** tok elementiga ta'sir etuvchi maksimal kuchga ((7.2) ga qarang) yoki tokli berk konturga ta'sir qiluvchi maksimal aylantiruvchi momentga proporsionaldir.

**Magnit induksiyasining o'lchov birliklari** – xalqaro birliliklar sistemasida (SI) induksiyaning o'lchov birligi Tesla ( $Tl = \frac{N}{A \cdot m} = \frac{Vb}{m^2}$ ) hisoblanadi. Gauss sistemasida esa magnit maydon induksiyasi Gauss larda o'lchanadi:  $1 Tl = 10^4$  Gs.

**Magnit maydon kuch chiziqlari** – shunday chiziqliki, maydonning har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinma shu nuqtadagi magnit maydon induksiyasi vektori **B** bilan ustma-ust tushadi. Magnit maydon kuch chiziqlari **magnit** maydonining uyurmaviy xarakterga ega ekanligi sababli yopiq ko'rinishda bo'ladi.

**Amper qonuni:** induksiyasi **V** bo'lgan tashqi maydonda chiziqli tok elementiga ta'sir etuvchi quyidagicha bo'ladi:

$$dF = I [dI B] \quad (7.2)$$

**Bio-Savar-Laplas qonuni:**  $Idl$  tok elementi o'zidan **r** masofa naridagi nuqtada quyidagi magnit maydon induksiyasi vektorini hosil qiladi:

$$dB = \frac{\mu_0 I [dlr]}{4\pi r^3} \quad (7.3)$$

Chiziqli tok hosil qilayotgan umumiy maydon induksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$B = \frac{\mu_0 I}{4\pi} \int \frac{|dlr|}{r^3} k \quad (7.4)$$

Hajmiy zichligi **j** bo'lgan toklar uchun esa:

$$B = \frac{\mu_0}{4\pi} \int \frac{|jr|}{r^3} dV \quad (7.5)$$

**Superpozisiya prinsipi** – magnit maydonini hosil qiluvchi bir necha manbalarning umumiy magnit maydon induksiyasi shu

maydonlarni hosil qiluvchi manbalar maydon induksiyalarining vektor yig'indisiga teng:

$$B=B \quad (7.6)$$

**Lorens kuchi:**  $v$  tezlik bilan elektromagnit maydonda harakatlanayotgan nuqtaviy zaryadga ta'sir etuvchi kuch:

$$\mathbf{F} = q\mathbf{E} + q[\mathbf{v}\mathbf{B}]. \quad (7.7)$$

L Berk kontur bo'yicha  $\mathbf{A}$  vektoring sirkulyasiyasi – quyidagi ko'rinishdagi integraldir:

$$\oint$$

**A vektor funksiyaning rotori** – shunday vektorki, uning musbat  $n$  yo'nalishiga ( $n$  normal vektorining musbat yo'nalishi va konturni aylanib o'tish yo'nalishi o'zaro o'ng parma qoidasi orqali bog'langan) nisbatan proeksiyasi  $\mathbf{A}$  vektoring cheksiz kichik  $L$  kontur bo'yicha sirkulyasiyasining shu kontur bilan chegaralangan  $\Delta S$  yuzasiga nisbatining limitiga teng:

$$\text{rot}_n \mathbf{A} = -\phi$$

Ortlari  $i, j, k$  bo'lgan dekart koordinatalar sistemasida  $\mathbf{A}$  vektor rotorini quyidagi determinant ko'rinishida tasvirlash qulay:

$$\text{rot} \mathbf{A} = [\nabla \mathbf{A}] = \begin{vmatrix} & & \\ & & \\ & & \end{vmatrix}$$

**Stoks teoremasi:**  $\mathbf{A}$  vektoring istalgan  $L$  kontur bo'yicha sirkulyasiyasi  $\mathbf{A}$  vektor rotorining shu  $L$  kontur bilan chegaralangan istalgan yuza orqali o'tuvchi oqimiga tengdir (kontur bo'yicha olinadigan integral yuza bo'yicha olinadigan integralga aylantiradi):

$$\oint_L \mathbf{A} dl = \oint_S \phi \quad (7.8)$$

(2- bobning nazariy materiallariga (2.7) –(2.10) qarang).

**Magnit maydon induksiyasi vektori sirkulyasiyasining integral ko'rinishi (to'la tok qonuni):**

$$\oint_L \mathbf{B} dl = \mu_0 I \quad (7.9)$$

bu erda  $I - L$  kontur qamrab olgan to'la tok. Konturni aylanib o'tish yo'naliishi va tokning ishorasi o'ng vint qoidasi orqali aniqlanadi.

**Vakuumdagi statsionar tokning magnit maydoni uchun differensial tenglamalar:**

$$\operatorname{div} \mathbf{B} = 0; \quad (7.10)$$

$$\operatorname{rot} \mathbf{B} = \mu_0 \mathbf{j}. \quad (7.11)$$

(7.11) tenglama to'la tok (7.9) qonunining differensial ko'rinishidir.

(7.10) va (7.11) tenglamalar stasionar tokning vakuumdagi magnit maydoni uchun Maksvelning tenglamalar sistemasi tashkil etadi.

**Magnit maydonining uyurmaviy xarakteri:** (7.12) tenglamaga mos keluvchi integral tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$\oint_S \mathbf{B} d\mathbf{S} = 0 \quad (7.12)$$

Buning ma'nosi shuki, magnit maydonining manbai bo'lgan "magnit zaryadlari" tabiatda mavjud emas. Biror  $\mathbf{A}$  vektorning uyurmaviy xarakterda bo'lishining matematik sharti  $\operatorname{div} \mathbf{A} = 0$  bo'lishidir. Uyurmaviy maydonlarning kuch chiziqlari doimo berk bo'ladi.  $\operatorname{div} \mathbf{B} = 0$  bo'lgani sababli magnit maydoni uyurmaviy xarakterga ega.

**Vektor magnit potensiali:**  $\operatorname{div} \mathbf{B} = 0$  va  $\operatorname{div} (\operatorname{rot} \mathbf{A}) \equiv 0$  bo'lganligi sababli shunday  $\mathbf{A}$  vektor mavjudki uning uchun quyidagi tenglik o'rinni va bu vektor "vektor magnit potensiali" deb ataladi:

$$\mathbf{B} = \operatorname{rot} \mathbf{A}; \quad (7.13)$$

Magnit maydonining  $Idl$  tok elementi tomonidan hosil qilingan vektor magnit potensiali quyidagiga teng:

$$d\mathbf{A} = \frac{\mu_0}{4\pi r} \frac{l}{r} dl$$

**Vektor magnit potensialining kalibrovkasi.**  $\mathbf{A}$  vektor magnit potensialining qiymatini (xuddi skalyar elektr maydon potensiali  $\phi$  kabi) aniq topish mumkin emas ( $\operatorname{rot} (\operatorname{grad} \phi) \equiv 0$  bo'lgani sababli

ixtiyoriy funksiyaning gradienti aniqligida topiladi). Bunday noaniqlikni potensialga qo'shimcha shartlar – kalibrovka shartlari deb ataladigan qo'shimcha shartlar qo'yish bilan bartaraf qilish mumkin:

1) Kulon kalibrovkasi (magnitostatik masalalar uchun):

$$\operatorname{div} \mathbf{A} = 0; \quad (7.14)$$

bu holda  $\mathbf{A}$  vektor quyidagi tenglamani qanoatlantiradi

$$^2\mathbf{A} = -\mu_0 \mathbf{j}.$$

2) Lorens kalibrovkasi (dinamik masalalar uchun):

$$\operatorname{div} \mathbf{A} + \frac{\partial}{\partial r} = 0. \quad (7.15)$$

Ikki muhit chegarasida  $\mathbf{A}$  vektor magnit potensialining tangensial komponentasi uzuksizdir.

*7.1.Rasm.* Tokh yassi  
aylanma konturning  
magnit momenti

Yuzasi  $S$  bo'lgan va  $I$  tok o'tayotgan **yassi chiziqli konturning magnit momenti** quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{p}_m = IS \mathbf{n} \quad (7.16)$$

bu erda  $\mathbf{n}$  – kontur yuzasiga nisbatan musbat yo'nalishda bo'lgan normal (*7.1.rasm*).

**Elektr tokining magnin momenti** – vektor kattalik bo'lib quyidagi munosabatlardan orqali aniqlanadi:

$$\mathbf{p}_m = \frac{1}{2} \int_V [\mathbf{r} \mathbf{j}] dV \text{ zichligi } \mathbf{j} \text{ bo'lgan hajmiy tok uchun} \quad (7.17)$$

$$\mathbf{p}_m = \frac{1}{2} \int_S [\mathbf{r} \mathbf{i}] dS \text{ zichligi } \mathbf{i} \text{ bo'lgan sirtiy tok uchun}, \quad (7.18)$$

$$\mathbf{p}_m = \frac{1}{2} I \int_L [\mathbf{r} dl] \quad I \text{ chiziqli tok uchun}, \quad (7.19)$$

bu erda  $\mathbf{r}$  – sanoq boshidan tok elementigacha bo'lgan radius-vektor. Tutash toklar sistemasining magnit momenti sanoq boshining tanlanishiga bog'liq emas.

(7.19) ifodadan foydalanib radiusi  $R$  bo'lgan va  $I$  tok o'tayotgan yassi chiziqli aylanma konturning magnit momenti (7.16) ni osongina aniqlash mumkin (*7.1.rasm*):

$$\mathbf{p}_m = \frac{1}{2} I \int_L [\mathbf{r} dl] = \frac{1}{2} I \int$$

yoki istalgan yassi chiziqli kontur uchun:

$$\mathbf{p}_m = \frac{1}{2} I \int_L [\mathbf{r} dl] = In \int$$

bu erda  $\frac{1}{2} [\mathbf{r} \cdot dl] - r^2 dl = ndS - dl$  yoyga mos keluvchi elementar sektor yuzasi.

**Magnit dipoli:** agar biror tok elementi bilan uning biror nuqtada hosil qilgan magnit maydoni orasidagi masofa  $r$  bo'lsa va bu masofa shu tok elementining chiziqli o'lchamlari  $l$  dan ancha katta bo'lsa, bunday tok elementini magnit dipoli deb atashadi. **Magnit dipolining magnit maydon induksiya vektori quyidagi teng:**

$$\mathbf{B} = -\left( \frac{\mu_0}{4\pi} \frac{l}{r^3} \right) \hat{r}. \quad (7.20)$$

Bu formula nuqtaviy zaryad dipolining elektr maydon kuchlanganligi ifodasi (1.4) ga shakl jihatidan o'xshaydi.  $\rightarrow 0$  bo'lganida yuqoridaq ifoda asimptotik aniq bo'ladi va magnit dipoli nuqtaviy deb ataladi. Agar  $\mathbf{r}$  vektor  $\mathbf{p}_m$ , vektor bilan yo'nalishdosh bo'lsa, u holda  $(\mathbf{p}_m \cdot \mathbf{r}) \mathbf{r} = \mathbf{p}_m r^2 \hat{r}$  bo'ladi va dipol o'qidagi magnit maydon induksiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{B} = -\frac{\mu_0}{4\pi} \frac{l}{r^3} \hat{r}. \quad (7.21)$$

## 8. ELEKTROMAGNIT INDUKCIYA, O'ZINDUKCIYA VA O'ZARO INDUKCIYA Koefficientlari

**Magnit maydon indukciyasi**  $B$  ning biror  $S$  yuza orqali o'tadigan oqimi deb quyidagi integralga aytildi:

$$F = \int dS = \int \quad (8.1)$$

$dS$  vektori  $dS$  elementar yuzaga modul bo'yicha teng va shu yuzaga nisbatan  $n$  normal bo'yicha yo'nalgan. Ishoralarini to'g'ri qo'yish maqsadida, 8.1 rasmda ko'rsatilgani kabi,  $n$  normal yo'nalishi va konturni aylanish yo'nalishini o'ng vint qoidasi orqali aniqlanadi.

Xalqaro birliklar tizimi sistemasida magnit oqimining birligi **Veber** ( $Vb=Tl \cdot m^2$ ) hisoblanadi.

**Faradeyning elektromagnit induktsiya qonuni** magnit va elektr hodisalar o'rtaсидаги dinamik aloqani o'rnatadi.

**Elektromagnit induktsiya qonunining integral ko'rinishi:**

Istalgan  $L$  konturda hosil bo'ladigan  $\epsilon$  elektromagnit indukciya EYUK shu konturning  $S$  yuzasi orqali o'tuvchi  $F$  magnit maydon oqimining o'zgarish tezligiga proporsional:

$$\epsilon = - \frac{d\Phi}{dt} \quad (8.2)$$

(8.2) ifodadagi minus ishorasi, o'tkazgichdagи EYUK ta'sirida hosil bo'ladigan tok o'zining magnit maydoni bilan o'zini yaratgan boshlang'ich magnit maydoniga qarama-qarshi ta'sir qilishini bildiradi (**Lenc qoidasi**).

Elektromagnit induktsiya EYUK ning hosil bo'lishini elektromagnit maydonda zaryadga ta'sir qiluvchi Lorents kuchining bajargan ishi (7.7) bilan tushuntirsa bo'ladi:

$$F = qE + q[vB]$$

bu erda  $v$ - zaryadning harakatlanish tezligi.

Turli fizik holatlarda va turli sistemalarda bu kuch faqatgina elektr tashkil etuvchisi (yig'indidagi birinchi had) yoki faqat magnit tashkil etuvchisi (yig'indidagi ikkinchi had), yoxud har ikkalasining yig'indisi ko'rinishida kelishi mumkin.



8.1. rasmda Yassi konturga normal o'tkazigan vektorning yo'nalishini aniqlash.

$F(t)$  oqim ikki xil sababga ko'ra o'zgarishi muunkin, bu sabablar bir paytning o'zida ham ta'sir etishi mumkin. Sabablar quyidagicha

1) Magnit maydon induktsiyasi  $\mathbf{B}$  o'zgarmas, oqim  $F(t)$  o'tkazgichlarning harakati tufayligina o'zgaradi, masalan, konturning deformaciyasi yoki uning  $\mathbf{B}$  vektorga nisbatan siljishi;

2) O'tkazuvchi konturimiz harakatsiz,  $F(t)$  ning o'zgarishi  $\mathbf{B}$  vektorning qiymati va yo'naliشining o'zgarishi hisobiga bo'ladi.

Birinchi holda induksiya EYUK Lorents kuchining magnit tashkil etuvchisi o'tkazgich bilan birgalikda harakat qilayotgan zaryadlarga ta'sir qilishi natijasida paydo bo'ladi:

$$\mathbf{F} = q[\mathbf{v}\mathbf{B}],$$

Berk zanjirda bu tashqi kuch induksiya EYUK ni hosil qiladi:

$$\epsilon = \frac{1}{q} \oint \mathbf{F} d\mathbf{l} = \oint [\mathbf{v}\mathbf{B}] d\mathbf{l}. \quad (8.3)$$

Ushbu integral (8.2) ifodaga keltiriladi [1, § 44].

Agar o'tkazgich bilan birga harakat qiluvchi sanoq sistemasini kirlitsak, unda zaryadlar harakat qilmaganligi sababli Lorentz kuchining magnit maydon tashkil etuvchisi paydo bo'lmaydi. Bunda induksiya EYUK ning paydo bo'lishini – harakatlanuvchi sanoq sistemasida elektrostatik maydonning paydo bo'lishi bilan tushuntirishi mumkin. Yorug'lik tezliklariga nisbatan ancha kichik tezliklar uchun bu maydonni [1, § 11] quyidagicha yozamiz:

$$\mathbf{E} = [\mathbf{v}\mathbf{B}], \quad (8.4)$$

Bu holda EYUK Lorents kuchining elektrostatik tashkil etuvchisining bajargan ishi hisobiga paydo bo'ladi. Bu esa (8.3) ifodaga olib keladi.

Ikkinchи holda esa induksiya EYUK ning paydo bo'lishi fazoda  $\mathbf{B}(t)$  magnit maydonining o'zgarishi tufayli paydo bo'ladigan uyurmali  $E_{uyur}$  elektr maydonining hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi.  $E_{uyur}$  ning elektrostatik maydondan farqi uning potentsial emasligi va elektr zaryadi yo'q joyda ham paydo bo'la olishidadir.  $E_{uyur}$  va  $\mathbf{B}(t)$  orasidagi lokal bog'lanish, Maksvell elektrodinamikasining

asosiy to'rt tenglamalari sistemasiga kiruvchi (8.5) ifoda bilan aniqlanadi.

### **Elektromagnit induktsiya qonunining differencial ko'rinishi**

$$\operatorname{rot} E = - \frac{\partial B}{\partial r}. \quad (8.5)$$

Stoks teoremasidan (7 bob (7.8)) foydalanib,  $L$  berk konturdagi uyurmaviy elektr maydoni hosil qilgan EYUK ni (8.2) ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\oint \mathbf{B} \cdot d\mathbf{l} = - \int \mathbf{H} \cdot d\mathbf{l} = - \int \mathbf{M} \cdot d\mathbf{l} = - \int \mathbf{J} \cdot d\mathbf{l} = - \int \mathbf{A} \cdot d\mathbf{l}.$$

Shunday qilib, (8.2) integral ifoda universal bo'lib, EYUK paydo bo'lishining har ikkala variantini hisobga oladi, hattoki ikkala ta'sir bir paytda yuz bersa ham.

**Chiziqli o'tkazuvchan konturning induktivligi (o'zindukciya koeficienti)** – konturdan o'tayotgan  $I$  tok kuchi istalgan yuzada hosil qilgan magnit oqimi  $F(I)$  bilan shu tok orasidagi  $L$  proporsionallik koeficientiga proporsional

$$F(I) = LI \quad (8.6)$$

Induktivlikning kattaligi, vakuumda, faqatgina konturning shakli va o'lchamlariga bog'liq va doim musbat ishorali bo'ladi.

Uning SI sistemasidagi o'lchami *genri* (Gn) deb ataladi.

**Tokli chiziqli konturning magnit maydon energiyasi:**

$$W = - \frac{1}{2} \int \mathbf{B} \cdot d\mathbf{l} \quad (8.7)$$

Ixtiyoriy o'tkazuvchan konturning induktivligi  $W = - \frac{1}{2} \int \mathbf{B} \cdot d\mathbf{l}$  ifodadan aniqlanadi.

**Chiziqli  $L_{ij}$  konturlarning o'zaro induktsiya koefitsienti** deb  $i$ -konturdan oquvchi  $I_i$  tok bilan shu tokning  $j$ -konturda hosil qilgan  $F$  magnit maydon oqimi orasidagi proporsionallik koefitsientiga aytildi:

(8.8)

ning kattaligi konturlarning shakli, o'lchamlari va o'zaro joylashishiga bog'liq.  $L_{ij}$  ning ishorasi konturlarning o'zaro joylashuvi va ulardan o'tayotgan toklarning yo'nalishiga qarab musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin. Vakuumda yoki magnit qabul qiluvchanligi chiziqli bo'lgan muhitlarda (dia- va paramagnetiklar) o'zaro indukciya koefficientlari indekslari bo'yicha simmetrik bo'ladi (o'zarolik teoremasi [1, §47]).

(8.9)

### **Tokli konturlar sistemasining magnit maydon energiyasi**

$$-\sum \quad -\left(\sum \cdot\right) \quad (8.10)$$

Bu energiyani ikki qismga ajratish mumkin

$$-\sum \quad -\left(\sum \cdot\right)$$

Ifodaning birinchi xadi konturlarning o'z energiyalari yig'indisi bo'lsa, ikkinchi xadi konturlarning o'zaro ta'sir energiyalari yig'indisidir. Bu energiya musbat ham, manfiy ham bo'lishi mumkin. Lekin to'liq energiya har doim musbat bo'ladi.

**Ixtiyoriy konturlarning o'zaro indukciya koefficienti ularning o'zaro ta'sir energiyasi orqali aniqlanadi**

## 9. MAGNITOSTATIKADA ENERGIYA VA KUCHLAR

**Amper qonuni** – induksiyasi  $\mathbf{B}$  bo’lgan magnit maydonga kiritilgan  $I$  tokli  $dl$  o’tkazgich elementiga ta’sir qiluvchi kuch quyidagiga teng:

$$dF = I d [IB] \quad (9.1)$$

Tashqi  $B$  maydonda magnit momenti ga teng bo’lgan nuqtaviy dipolga ta’sir qiluvchi kuch ([2], §56) quyidagicha bo’ladi:

$$\mathbf{F} = (\mathbf{p} \cdot \nabla) \mathbf{B} = \nabla (p \cdot B) = (p \cdot -) + (p \cdot -) + (p \cdot -) \quad (9.2)$$

Tashqi  $B$  maydonda magnit dipolga ta’sir qiluvchi kuch momenti:

$$\mathbf{M} = [\mathbf{p} \cdot \mathbf{B}]. \quad (9.3)$$

Tashqi  $B$  maydonda magnit dipolning energiyasi

$$W = -(p_m B) \quad (9.4)$$

Induktivligi  $L$  bo’lgan chiziqli konturdan  $I$  tok o’tganida unda hosil bo’ladigan magnit maydon energiyasi:

$$W = - - - \quad (9.5)$$

bu erda  $F$  – kontur orqali o’tuvchi magnit maydon oqimi.

toklar o’tayotgan ikki kontur hosil qilgan magnit maydon energiyasi:

$$- - - \quad (9.6)$$

bu erda  $-$  – birinchi konturning induktivligi,  $L_2$  – ikkinchi konturning induktivligi,  $-$  – ularning o’zaro induksiya koefisienti. Energiya additiv kattalik bo’lmaydi, chunki yuqoridagi ifodada  $-$  konturlarning o’zaro ta’sir energiyasi ishtirok etadi.

Magnit maydonida joylashgan tokli o’tkazgichlar sistemasi konfigurasiyasining cheksiz kichik o’zgarishida bajarilgan **mexanik ish**:

$$\delta A_{\text{tash}} = \sum_i I_i dF_i = dW + \delta A, \quad (9.7)$$

bu erda  $\delta A_{\text{tash}} = \sum_i I_i dF_i$  - tashqi kuchlar bajargan ishning ortirmasi (tok manbaining EYUK). Bu kuchlar  $i$ -konturda elektromagnit induksiya EYUK lariga qarshi yo'nalgan,  $dW$ - sistemaning magnit energiyasi o'zgarishi,  $\delta A$ - sistemaning konfigurasiyasi juda kichik o'zgarishga duch kelganida pondemotor kuchlarning mexanik ishi.

Ikki xususiy holni ko'rib chiqaylik: 1) sistemaning o'tkazgichlaridan o'tayotgan magnit maydon oqimi o'zgarmaydi ( $F_i = \text{const}$ ); 2) o'tkazgichlardagi tok kuchi o'zgarmaydi ( $I_i = \text{const}$ ). Bu hollarda (9.7) ifoda mos ravishda quyidagi ko'rinishga keladi ([1], §47):

$$\delta A = -\delta W \Big|_{F_i = \text{const}} \quad (9.8)$$

$$\delta A = +\delta W \Big|_{I_i = \text{const}} \quad (9.8')$$

(elektrostatik maydon uchun keltirilgan shu turdag'i (5.6) va (5.8) ifodalar bilan solishtiring). Birinchi holda mexanik ish sistemaning magnit energiyasi kamayishi hisobiga bajariladi. Ikkinchi holda esa bajarilgan ish va unga teng bo'lган magnit energiyasining oshishi tok kuchini o'zgarmas holda ushlab turuvchi EYUK manbalarining bajargan ishi hisobiga yuzaga keladi.

(9.8) va (9.8') ifodalardan pondemotor kuchlarni aniqlashda foydalanish qulay. Albatta, ikkala ifoda ham bir kuchning ishini aniqlaydi. Bu kuchning kattaligi faqatgina oqayotgan toklarning o'zaro joylashishi va ularning kattaligiga bog'liq bo'lib, hisoblash yo'liga bog'liq emas.

### Vakuumda magnit maydon energiyasining zichligi

$$W = \frac{B^2}{2\mu_0} \quad (9.9)$$

### Vakuumda magnit maydon energiyasi

$$W = \int_V w dV = \int_V \frac{B^2}{2\mu_0} dV \quad (9.10)$$

bu erda  $V$ -magnit maydoni bor bo'lган fazoning bir qismi.

**Ikki muhit chegarasiga ta'sir etuvchi bosim** – ikki muhittdagi maydon zichliklari  $w_1$  va  $w_2$  orasidagi farqqa teng

$$P = w_1 - w_2 \quad (9.11)$$

## 10. O'ZGARUVCHAN TOK ZANJIRLARI

**Majburiy elektr tebranishlari.** Agar elektr zanjirimiz tarkibida bitta (yoki bir nechta) EYuK bo'lsa va ularning kattaligi davriy qonun bo'yicha o'zgarsa, zanjirdagi o'tish jarayonlaridan so'ng zanjirda majburiy elektr tebranishlari o'rnatiladi. Bu tebranishlarning xarakteri zanjirga ulangan EYuK larning o'zgarish qonunlari bilan belgilanadi. Biz faqatgina qiymati quyidagi qonuniyat bo'yicha o'zgaradigan EYuK larni ko'rib chiqamiz:

$$U(t)=U_0 \cos(\omega t + \phi_0). \quad (10.1)$$

### Majburiy tebranishlar holida zanjir tenglamasi

$$— — — \quad (10.2)$$

Bu yerda  $X$  --aniqlanishi lozim bo'lgan kattalik (zaryad, kuchlanish yoki tok kuchi),  $F_0$ -amplituda. Amplituda tashqi ta'sir qilayotgan kuchga proportsional bo'lib, umuman olganda, chastota va zanjir parametrlariga bog'liq ekan. Bu bir jinsli bo'limgan tenglamaning yechimi, II bobdag'i (11.16) bir jinsli tenglamaning umumiy yechimlari yig'indisiga teng bo'ladi

$$X(t)=A \quad (10.3)$$

bu yerda  $\omega_c$  - konturning xususiy tebranishlar chastotasi va quyidagi bir jinsli bo'limgan tenglamaning xususiy yechimi:

$$X(t)=A(\omega)\cos(\omega t + \varphi(\omega)), \quad (10.4)$$

bu yerda  $A(\omega)$ -majburiy tebranishlar amplitudasi,  $\varphi(\omega)$  -izlanayotgan kattalik tebraishlari bilan manba signalining tebranishlari orasidagi faza siljishi.

Vaqt o'tishi bilan (10.3) erkin tebranishlar so'nadi va biz bundan keyin ko'radigan barqarorlashgan rejimda, garmonik tebranishlar (10.4) sodir bo'la boshlaydi.

**O'zgaruvchan tok zanjirlari** – tarkibida garmonik qonun bo'yicha (bundan keyin tashqi EYuK manbasining chastotasini  $\omega$  belgisi bilan belgilaymiz) o'zgaradigan bitta (yoki ko'proq) EYuK manbasi bo'lgan elektrik zanjirlar

$$U(t)=U_0 \cos(\omega t + \phi_0)$$

Zanjir elementlarining hammasi (rezistorlar, kondensatorlar, induktivliklar) vaqt o'tishi bilan o'z parametrlarini o'zgartirmaydi deb hisoblaymiz. Ko'rib chiqilayotgan vaqtga kelib o'tish prosesslari tugagan va butun zanjir yoki uning qismlaridagi  $X_i(t)$  kattaliklar, ya'ni tok, kuchlanish va zaryadlar garmonik qonun bo'yicha o'zgaradi deb faraz qilinadi:

bu yerda  $A_i$ -amplituda,  $\varphi_i$ -o'lchanayotgan kattalikning tebranishlari bilan manba signili tebranishi fazalari orasidagi siljish. Jarayon rejimi stasionar bo'lgani sababli amplituda va fazalar vaqtga bog'liq bo'lmaydi, lekin ular zanjirning turli elementlarida turli qiymatga ega bo'lishi mumkin. Tebranishlar chastotasi  $\omega$  zanjirning hamma elementlarida bir xil bo'lib manba chastotasi bilan mos tushadi. Umuman olganda, o'zgaruvchan toklar garmonik bo'lmashigi ham mumkin. Biroq, "o'zgaruvchan tok" iborasida biz faqat garmonik (sinusoidal) toklarni nazarda tutamiz.

**Kvazistasionar yaqinlashish.** O'zgaruvchan tok zanjirlarini analiz qilganda, kontur bo'yicha tarqaladigan elektromagnit to'lqinning kechikishi nazarga olinmaydi. Buning uchun o'lchamlari elektromagnit to'lqin uzunligidan ancha kichik bo'lishi kerak. Kvazistasionar yaqinlashuv o'zgarmas tok zanjirlari tenglamalarini o'zgaruvchan tok zanjirlariga qo'llash imkoniyatini beradi.

O'zgaruvchan tokning chiziqli zanjirlarini hisoblash va analiz qilishda odatda ikki usul qo'llaniladi: kompleks amplitudalar usuli va vektor diagrammalari usuli.

**Kompleks amplitudalar usuli.** Bu Eyler formulasiga asoslangan, istalgan chiziqli o'zgaruvchan tok zanjirlarini hisoblash usulidir

Bu usulda  $A \cos(\omega t - \varphi)$  ko'rinishda garmonik o'zgaradigan hamma kattaliklar (ya'ni toklar, kuchlanish va EYuK) mos ravishda kompleks o'zgaruvchi bo'lgan  $A$  kattaliklarga almashtiriladi, bu yerdagi  $\hat{A}$  kattalik kompleks amplituda deb ataladi (bunday keyin kompleks amplituda " $\hat{A}$ " belgisi bilan belgilanadi). Kompleks amplituda  $\hat{A}$  ning moduli real fizik kattalikning amplitudasi  $A$  ga teng bo'lib,  $e^{i\varphi}$  kompleks ekspotentanining argumenti  $\varphi$  fazani belgilaydi.

Majburiy statsionar tebranishlar chastotasi chiziqli zanjirning hamma qismlarida bir xil bo'lganligi sababli, echimni  $\hat{A}$  e ko'rinishda qo'llanilganda, hamma tenglamalardagi  $e^{i\omega t}$  ko'paytma qisqarib, chiziqli algebraik tenglamalar uchun faqatgina  $\hat{A}_i$  kompleks amplituda qoladi.

Kompleks amplitudalar usulining qulayligi shundaki, chiziqli zanjirlarni hisoblashda, eksponenta bilan o'tkaziladigan chiziqli amallar sinus yoki kosinus bilan o'tkaziladigan amallarga qaraganda ancha sodda bo'ladi. Masalan, vaqt bo'yicha  $n$ -hosilani olish amali oddiygina kompleks amplitudani  $(i\omega)^n$  ga ko'paytirish amaliga olib keladi. Buning natijasida chiziqli differencial tenglamalar oddiy algebraik tenglamalarga aylanadi.

Kompleks ko'rinishdagi hisoblardan so'ng real kattaliklarga o'tishda,  $\hat{A}$  kompleks yechimning haqiqiy qismi olinadi.

$\hat{A}$  yechimning mavhum qismi ham xuddi shu natijaga olib keladi, faqatgina bu yechim  $A \cos(\omega t + \varphi)$  ko'rinishda bo'lib bu erdag'i  $\varphi$  fazaning qiymati boshqa bo'ladi. Masala javobining ko'rinishi boshlang'ich shartlarga bog'liq bo'lib printsipial ahamiyatga ega emas. Chiziqli bo'limgan amallar bajarilganida (masalan, darajaga ko'tarish va x.k.)  $\omega$  chastotaga karrali turli boshqa hadlar paydo bo'lib, kompleks amplitudalar usuli o'z afzalligini yo'qotadi. Bunday hollarda, masalan quvvatni hisoblashda, real o'zgaruvchilardan foydalanish zarur.

**Kompleks o'zgaruvchilarda zanjirning bir qismi uchun Om qonuni.**

$$\hat{U} \quad \hat{Z}\hat{I} \quad (10.5)$$

bu erda  $\hat{U}$  – zanjirning bir qismidagi kompleks kuchlanish,  $\hat{Z}$  – zanjirning bir qismi kompleks qarshiligi,  $\hat{I}$  – kompleks tokning amplitudasi.

### Zanjir elementlarining kompleks qarshiligi

**Rezistor:** aktiv qarshilik

$$\hat{Z} \quad (10.6)$$

R- qarshilikning chastotaga bog'liq bo'limgan haqiqiy qismi. Rezistorda tok va kuchlanish faza bo'yicha ustma-ust tushadi

$$\widehat{U_R} = R \widehat{I_R}$$

**Induktivlik g'altagi:** induktiv qarshilik

$$\widehat{Z}(\omega L, \pi/2) \quad (10.7)$$

bu erda  $L$ - g'altakning induktivligi. Induktivlikdagi kuchlanish undagi tokdan faza bo'yicha  $\pi/2$  ga oldinroq yuradi

$$\widehat{U}_L = i\omega L \widehat{I}_L = \omega L \widehat{I}_L e^{+i\pi/2}$$

**Kondensator:** sig'im qarshilik

$$\widehat{Z}(\omega C, -\pi/2) \quad (10.8)$$

Kondensatordagi kuchlanish faza bo'yicha tokdan ( $\pi/2$ ) orqada qoladi:

$$\widehat{U} = \frac{\widehat{I}}{\omega C}$$

**Vektor diagrammalar usuli.** Bu usulda zanjirdagi tok, kuchlanish va EYuK lar vektor ko'rinishga keltiriladi. Vektoring moduli amplitudaga teng. Vektorlar orasidagi burchak son qiymati jihatidan ular orasidagi fazalar farqiga teng. Odatda, bir vektoring yo'nalishi asosiy yo'nalish sifatida tanlanib, qolgan vektorlarning yo'nalishi unga nisbatan, ya'ni qolgan fazalar siljishiga qarab belgilanadi.

Vektor diagrammalar usulini kompleks amplitudalar usulining grafik ko'rinishi deb qarash mumkin. Chunki kompleks sonlar bu – kompleks tekislikdagi vektorlar bo'lib, ularga nisbatan qo'llaniladigan algebraik amallar (qo'shish, ayirish) vektorlar bilan bajariladigan grafik amallarga ekvivalentdir.

Vektorlar **qalin shrift** bilan, ularning absolyut qiymatlari esa **kursiv shrift** bilan belgilanishini eslatib o'tamiz.

Ketma-ket ulangan zanjirda boshlang'ich yo'nalish sifatida tok vektorining yo'nalishini, parallel ulangan zanjirda esa kuchlanish vektorining yo'nalishini tanlab olish qulaydir.

Rezistordagi kuchlanish vektori  $\mathbf{U}_r = RI$  tok vektori  $\mathbf{I}$  ga parallel bo'ladi (faza siljishi  $\varphi = 0$ ).

Induktivlik va sig'imda aks ettirilgan kuchlanish vektorining moduli mos ravishda  $\omega L$  va  $\omega C$  ga teng. Vektor  $\mathbf{I}$

vektorga nisbatan +90° ga (soat strelkasi yo'nalishiga qarshi) burilgan bo'lса,  $\mathbf{U}_C$  vektor 90° ga (soat strelkasi yo'nalishida) burilgan bo'ladi.

## 2.1. Elektr o'lchov asboblari va ularning xatoliklari

Absolyut aniq o'lchov asbobi yo'q, shuning uchun ham o'lchov asboblarining xatoliklari mavjud. Xatoliklar – absolyut, nisbiy va keltirilgan xatoliklarga bo'linadi.

Absolyut xatolik – bu o'lchov asbobining ko'rsatgan qiymati bilan uning haqiqiy qiymatlari orasidagi farqidir.

$$\Delta N = |N_0 - N_a| \quad (1)$$

Nisbiy xatolik deb, absolyut xatolikni o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati nisbatiga aytildi (ko'pincha bu % larda beriladi).

$$\varepsilon = \frac{\pm \Delta N}{N_h} 100\% \quad (2)$$

Keltirilgan xatolik – absolyut xatolikni o'lchov asbobning maksimum shkala qiymati nisbatiga teng (bu ham % larda) bo'lgan kattalikdir.

$$\gamma = \frac{\pm \Delta N}{N_{\max}} 100\% \quad (3)$$

O'lchov qurumlalarining aniqlik sohasi uning aniqlik klasslari bilan xarakterlanadi. Aniqlik klasslari :0,05; 0,1; 0,2; 0,5; 1,0; 1,5; 2,5; 4. Aniqlik klassi (1), (2) va (3) ga binoan quyidagicha ifodalaniladi.

$$— \quad (1^1)$$

$$— \quad (2^1)$$

## 2.2. Ampermetr va voltmetr yordamida qarshiliklarni o'lchash

Elektr tokini o'lchaydigan asbobga ampermetr deyiladi. Bu asbob yordamida o'lchanadigan tokning miqdori 0,1 A dan kam bo'lса uni milliampermetr deymiz; agarda tok qiymati  $10^{-5}$  A dan kam bo'lса

bunday asbobga mikroampermetr yoki galvanometr deyiladi. Ampermetrlar zanjirning biror qismidan o'tayotgan elektr tokni bevosita o'lchaydi zanjir elementlariga doimo ketma – ket ulanadi.

Kuchlanishni, yoki elektr zanjirining biror qismidagi potensial tushishini o'lchash uchun voltmetr ishlataladi. Voltmetr o'lchov asbobi bo'lib u kuchlanishni o'lchash lozim bo'lgan zanjirning qismiga paralell ulanadi.

Endi ampermetr va voltmetr yordamida noma'lum qarshilikni o'lchashni ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagi (1 – rasm) elektr zanjiri tuziladi va o'lchashlar o'tkaziladi. Bu rasmida  $R_x$ -noma'lum qarshilik, V – voltmeter, A- ampermetr,  $\varepsilon$ -o'zgarmas tok manbai. Ampermetr va voltmetr yordamida noma'lum qarshilikni o'lchash bilvosita o'lchash usuli hisoblanadi.



1 – rasm.

Bizga aniqlik klassi 0,5 bo'lgan va eng ko'pi bilan 15 V kuchlanishni o'lchaydigan voltmetr, hamda aniqlik klassi 1 bo'lgan eng ko'pi bilan 0,5 A tokni o'lchay oladigan ampermetr berilgan bo'ssin. Faraz qilaylik o'chash jarayonida voltmeter  $U = 2 \text{ V}$  ni va ampermetr  $I = 0,25 \text{ A}$  ni ko'rsatdi. U holda Om qonuniga asosan noma'lum qarshilik qiyamatining:

$$R_x = \frac{U}{I} = \frac{12B}{0,25A} = 48 \Omega$$

ga tengligi kelib chiqadi. Endi kuchlanish va tokni o'lchashdag'i voltmetr va ampermetrning xatoliklarini hisoblab qarshilikni o'lchashdag'i nisbiy xatolikni aniqlaymiz.

$$\varepsilon = \frac{\Delta R_x}{R_x} * 100\%$$

$$\Delta U = 0,5\% \quad U_{max} = 0,005 \cdot 15 = 0,075 \text{ B}$$

$$\Delta J = 1\% \quad J_{max} = 0,01 \cdot 0,5 = 0,005 \text{ A}$$

$$(R_x)_{MAX} = \frac{U + \Delta U}{J - \Delta J} = \frac{48 + 0,075}{0,25 - 0,005} = 49,28 \Omega$$

$$\frac{\Delta R_x}{R_x} = \frac{R_{max} - R_x}{R_x} = \frac{49,28 - 48}{48} \cdot 100 \% = 2,7\%$$


Demak, aniqlik klasslari yuqorida keltirilgan voltmetr va ampermetr yordamida bilvosita o'lchash usuli bilan hisoblangan qarshilik 2,7% aniqlikda o'lchangan ekan.

### 2.3. Shunt va qo'shimcha qarshiliklarni tanlash

Odatda galvanometrlar juda ham kichik bo'lgan toklarni, kuchlanishlarni va zaryad miqdorlarini o'lchashda ishlataladi. Shu bilan birgalikda galvanometrlar katta toklarni va katta kuchlanishlarni o'lchash uchun ham ishlatalishi mumkin. Buning uchun ampermetrga parallel holda shunt qarshilik, voltmetrga esa qo'shimcha qarshilik ketma – ket ularadi.

Shunt qarshilikni hisoblash. Quyidagi elektr sxemani ko'rib chiqamiz (2 – rasm).

Faraz qilaylik elektr tarmog'idan katta tok ( $I$ ) kelayotgan bo'lsin. O'lchash asbobimiz galvanometr kichik tokga mo'ljallangan bo'lsin. 2 – rasmdan ko'rindiki tarmoqdan kelayotgan tok  $C$  tugunda ikkiga ajraladi.



2 – rasm.

Bir qismi galvanometrdan, qolgan qismi esa shunt qarshilik  $R_{sh}$  dan o'tadi. Shunt degani tarmoqlanish demakdir.

Elektr zanjirimiz murakkabdir. Shuning uchun ham tarmoqlangan murakkab zanjirga Kirxgof qoidalarini ishlatalib, tegishli kattaliklarni topamiz. Birinchi qoida tugunlar uchun bo'lib, unda 2 – rasmdagi C tugun uchun Kirxgofni birinchi qoidasiga asosan quyidagini yozamiz:

$$I = I_g + I_{sh} \quad (4)$$

(D) tugun uchun esa C tugunning teskarisi bo'ladi.

Kirxgofning ikkinchi qoidasiga asosan har qanday yopiq zanjir uchun potensial tushishlar yig'indisi shu yopiq zanjirdagi E.Yu.K yig'indisiga teng. Bu qoidalarni ishlatganda ixtiyoriy yo'naltirilgan tok

yo'nalishlarini va E.Yu.K lar klemmalarining (+ yoki -) ishoralarini nazarga olish kerak. 2 – rasmdagi yopiq zanjir uchun ikkinchi qoidaga asosan :

$$I_g R_g - I_{sh} R_{sh} = 0 \quad (5)$$

(4) va (5) tenglamalardan :

$$I = I_g \left( \frac{R}{R_{sh}} + 1 \right) \quad (6)$$

Galvanometrning o'lchash chegarasini n marta oshirish kerak bo'lsa

$$I = I_g \cdot n \quad (7)$$

deb olamiz. (7) ni (6) ga qo'yib :

$$R_{sh} = \frac{R}{n-1} \quad (8)$$

ni olamiz. 2 – rasmda  $R_{sh}$  qarshilikni shunday tanlab olganda galvanometr shkalasining ko'rsatishi  $n = 1$  marta ortgan tokni o'lchaydigan asbob bo'ladi. Masalan: Bizda shkalasi 100 bo'limga bo'lingan ichki qarshiligi 600  $\Omega$  va  $100 \mu A$  tokni o'lchaydigan mikroampermetr o'lchov asbobimiz bor. Shu asbob yordamida tokni  $0,3 A$  gacha o'lchash uchun ampermetr o'mida ishlatmoqchi bo'lsak, sxemadagi shunt qarshiligini qancha tanlab olishimiz kerak. Bu berilganlarni hisobga olib 2 – rasmga yuqorida keltirilgan (6) - (8) formulalarga asosan:

$$n = \frac{I}{I_a} = \frac{0,3 A}{100 \mu A} = 300$$

$I_a = 100 \mu A$  (100 bo'limga og'sa shuncha tokni ko'rsatadi)

$$R_{sh} = \frac{R_a}{n-1} = \frac{600}{3000-1} \approx 0,5 \Omega$$

Demak, to'liq shkalasi  $100 \mu A$  lik asbobning har bo'limi  $1 \mu A$  ni ko'rsatgan. Unga  $R_{sh} = 0,5 \Omega$  lik shunt qarshilik ulangandan keyin o'sha milliampermetrning har bo'limi  $3000 \cdot 10^{-6} A = 3 \cdot 10^{-3} A$  ni ko'rsatadi. Shunt qarshilik ulangandan keyin mikroampermetr milliampermetrga "aylandi".

**Qo'shimcha qarshilikni hisoblash.** Voltmetrning o'lchash chegarasini oshirish (katta kuchlanishlarni o'lchash) uchun voltmetrga

ketma – ket qo'shimcha qarshilik ulanadi. Quyidagi sxemani tuzamiz va uni analiz qilamiz (3 – rasm).

$R_v$  – voltmetr ichki qarshiligi,  $R_q$  - voltmetr o'lchash chegarasi kengaytirish uchun ulangan qo'shimcha qarshilik,  $U_{AB}$ - AB klemmalari orasidagi potensiallar farqi – kuchlanish. 3 – rasm yopiq zanjirni tashkil etadi. Bu yopiq zanjir uchun KIRXGOFNING ikkinchi qoidasini qo'llaymiz.


$$U_{AB} = U_v + U_q \quad (9)$$

$$U_{AB} = IR_v + IR_q = U_v \left(1 + \frac{R_q}{R_v}\right) \quad (10)$$

$$U_{AB} > U_v, U_{AB} = nU_v \quad \text{desak}$$

$$nU_v = U_v \left(\frac{q}{R_v} + 1\right); \quad R_q = R_v(n-1) \quad (11)$$

(11) – formula o'lchash chegarasi kichik kuchlanishlarni o'lchashga mo'ljallangan voltmetrlarga qo'shimcha qarshiliklarni ulab, uni katta kuchlanishlarni o'lchashga mo'ljallangan voltmetr yasash uchun olingan formuladir. Endi voltmetr o'lchash chegarasi  $n = 1$  marta otrtirilgan bo'ladi.



3 – rasm.

Bir xil voltmetrlarda ikki va undan ortiq qo'shimcha qarshiliklar ulangan bo'lib, ular ko'p chegarali (3 V, 30 V, 300 V) voltmetrlar deyiladi.

Masala: O'lchash chegarasi 3 V ga va uning ichki qarshiligi  $3 \text{ k}\Omega$  bo'lgan elektrordinamik sistemasidagi voltmetr mavjud. Bu voltmetri o'lchash chegarasini 300 V ga oshirish uchun kerak bo'lgan qo'shimcha qarshilik qiymatini, avvalgi va oxirgi istemol qiladigan quvvatlari topilsin.

—, — —

—,

$\Omega$ .

$$\frac{U_2^2}{3 \cdot 10^5} = 0,3$$

O'lchash chegarasini  $n = \frac{300}{3} = 100$  marta oshirish uchun kerak bo'lgan qo'shimcha qarshilik  $0 \Omega$ . Hisoblash shuni ko'rsatdiki,  $P_1 \ll P_2$

#### 2.4. Potensiometrik ulash

Quyidagi sxemani tuzamiz (4-rasm). Bu sxemada ( $\varepsilon$  - tok manbai, R- reostat D - reostat surgichi, D - surgichni C dan F gacha va aksincha F dan C gacha surish mumkin. Kalit K ni ulasak, yopik zanjir (CDFC) dan  $I_0$  tok o'tadi. Om qonuniga muvofiq

$$I_0 = \frac{\varepsilon}{R} \quad (12)$$

Reostatdagi potensial tushish bo'lib, manba ning E.Yu.K ga teng  $U_R = \varepsilon$ . Demak reostatdan  $I_0$  tok o'tadi.


Reostatning bir qismi bo'lgan DF qarshiligini  $r_x$  desak, u holda reostatning DF qismidan o'tayotgan tok miqdori va shu DF qismidagi potensial tushish

$$U_x = r_x I_0, \quad I_0 = \frac{U_x}{r_x} \quad (13)$$

(12) va (13) larni tenglab

$$U_x = \varepsilon \frac{r_x}{R} \quad (14) \text{ ni olamiz.}$$

DF oraliqdagi qarshilikni  $r_x$  qiymati surgichning holatiga bog'liq bo'lib, uning qiymati  $r_x = 0$  dan (surgich D  $\rightarrow$  F ga), to  $r_x = R$  (surgich D (C ga kelganda)) gacha o'zgaradi. (14) formulaga binoan  $\varepsilon = \text{const}$  bo'lgani uchun  $r_x$  o'zgarishiga qarab (D surgich o'zgarishiga qarab)  $r_x = 0$  dan  $r_x = R$  gacha o'zgarsa, u holda  $U_x = 0$  dan to  $\varepsilon$  gacha o'zgarar ekan.



4 – rasm.

Shunday qilib 4 – sxema yordamida AB klemmalarida D – surgichning holatini o'zgartirib  $0 \leq U \leq U_{\max} = \varepsilon$  oraliqda turli kuchlanishlarni olishimiz mumkin ekan. Bunday ulash sxemani potensiometrik ulash yoki kuchlanishni bo'lish sxemasi deyiladi.

## 2.5. Tajribada olingan o'lchash natijalarini turli matematik usullarda hisoblashlar

Fizik kattaliklarni o'lchash va olingan natijalarni hisoblash asosan ikki xil amalga oshiriladi.

I. Bevosita o'lchashlar va ularni hisoblash.

II. Bilvosita o'lchashlar va ularni hisoblash.

**I. Bevosita o'lchashlar.** Bevosita o'lchashlarda fizik kattaliklar to'g'ridan to'gri (turli o'lchash asboblar yordamida ko'p marta – takroran) o'lchanadi. **Masalan:** Mikrometr yoki shtangensirkul bilan sterjen diametrini, biror yupqa plastinka qalinligini, chizg'ich yordamida biror sim yoki sterjenning uzunligini, yoki ommetr yordamida biror rezistor qarshiligini ko'p marta o'lchashlar, bunga misol bo'la oladi. Biror fizik kattalikni, masalan, X kattalikni istalgan o'lchash asboblari yordamida k – martta o'lchab uni quyidagi jadvalga kiritamiz.

1-jadval

Nº	1	2	3	.....	K
$X_i (sm)$	$X_1$	$X_2$	$X_3$	.....	$X_k$

Jadvaldagi k marta o'lchangani larning o'rtacha qiymati

$$X_{\text{ort}} = \frac{\sum_{i=1}^k X_i}{K}$$

va har bir o'lchashdagi absalyut xatoliklar:  $|X|$  yoki  $|X|$  ga asosan topiladi. Bu absolyut qiymatlardan k – marta o'lchashdagi o'rtacha kvadratik xatolik

$$\delta = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\Delta Y_i)^2}{k(k-1)}}$$

va ishonch intervali chegarasi (o'lchash natijasining xatoligi)

ni hisoblash mumkin. Bu erda  $t_{\alpha,k}$  k – ta o'lchash uchun  $\alpha = 95\%$  ga to'g'ri kelgan ishonchlilik (Styudent koeffisienti). Undan keyin  $X$  natija yoziladi. Eng oxitida nisbiy xatolik foizlarda, beriladi:

— .

**II. Bilvosita o'lchashlar. Eng kichik kvadratlar usuli (EKKU).** X va Y fizik kattaliklar orasidagi funksional bog'lanishni topish kerak bo'lsin. Tajriba natijasida lar va bularga tegishlichalar o'lchangan bo'lsin (2-jadval). Maqsad

) ko'rinishdagi bog'lanish funksiyasini topishdir. Juft kattaliklar  $(X_1, Y_1), (X_2, Y_2), \dots, (X_k, Y_k)$  nuqtalar bo'lib, XOY koordinata sistemasida yotadi va bu nuqtalarga binoan  $Y = f(X)$  tekis (shu jumladan to'g'ri) chiziq o'tkazaylik. Shuni aytish kerakki, o'lchashlarimizda xatoliklar mavjudligi sababli bizning nuqtalarimiz )tekis chiziq bermasligi mumkin. Yuqorida o'lchashlar bizga

(15)

ko'rinishdagi bog'lanish funksiyasini bersin. U holda har bir  $X$  larga to'g'ri kelgan  $f$  lar (va  $Y_1, Y_2, Y_3, \dots, Y_k$  lar) orasidagi farqlar kvadratlarining yig'indisi eng kichik kattalik ya'nii minimum bo'lsin:

$$S(a, b) = \sum_{i=1}^k [Y_i - f(X_i)]^2 \rightarrow \min \quad (16)$$

Qavslardagi  $(Y)$  lar ordinata bo'yicha tajribada olingan nuqtalar bilan izlanayotgan chiziq orasidagi ayirmalardir. Tajribada

olingan o'lchash natijalariga asoslanib chiziq o'tqazish kerak. Shu chiziqni ifodalovchi tenglamadagi  $a$  va  $b$  larni shunday tanlash kerakki, tajribada olingan va o'tqazilgan chiziqdagi ordinatalar orasidagi kvadratlari yig'indisi minimum bo'lсин.

$$\text{Buning uchun (16) dan: } \frac{dS}{da} = 0 \text{ va } \frac{dS}{db} = 0 \quad (17)$$

bo'lishi kerak. (15), (16) va (17) lardan quyidagilarni olamiz:

$$S(a, b) = \sum_{i=1}^k [Y_i - a - bX_i]^2 \quad (18)$$

$$\frac{dS}{da} = -2 \sum_{i=1}^k [Y_i - a - bX_i] = 0 \quad (19)$$

$$\frac{dS}{db} = -2 \sum_{i=1}^k [Y_i - a - bX_i] X_i = 0$$

$$\left. \begin{array}{l} \sum_{i=1}^k Y_i = \sum_{i=1}^k a + b \sum_{i=1}^k X_i \\ \sum_{i=1}^k X_i Y_i = a \sum_{i=1}^k X_i + b \sum_{i=1}^k X_i^2 \end{array} \right\} \quad (20)$$

bu erda  $k$  – tajriba soni

2-jadval

No:	1	2	3	.....	K
$X_i$	$X_1$	$X_2$	$X_3$	.....	$X_k$
$Y_i$	$Y_1$	$Y_2$	$Y_3$	.....	$Y_k$

(20) – tenglamalardan, tajriba natijalariga binoan, noma'lum koeffisientlar  $a$  va  $b$  lar topiladi. (20) - tenglamalarni osonroq tushunish va yechish uchun, tajriba natijalariga asoslanib tenglamalarni quyidagicha yozamiz. Yuqoridagi tajribalarga asosan (15) – tenglama:

$$\begin{aligned} Y_1 &= a + bX_1 \\ Y_2 &= a + bX_2 \\ &\dots \\ Y_k &= a + bX_k \end{aligned} \quad (21)$$

$$\text{tenglamalarni qo'shib: } ka + b \sum_{i=1}^k X_i = \sum_{i=1}^k Y_i \quad (22) \text{ ni olamiz. (21) -}$$

tenglamalarning har birini, tegishlicha  $X_1, X_2, X_3, \dots, X_k$  larga ko'paytirib, hosil bo'lgan yangi tenglamalarni yana qo'shib quyidagi tenglamani olamiz.

$$a \sum_{i=1}^k X_i + b \sum_{i=1}^k X_i^2 = \sum_{i=1}^k X_i Y_i \quad (23)$$

Yangi hosil bo'lgan (22) va (23) tenglamalarga belgilashlar kiritamiz va determinant usulini ishlatib,  $a$  va  $b$  koeffisientlarni topamiz:

$$S1 = \sum_{i=1}^k X_i, \quad S2 = \sum_{i=1}^k X_i^2, \quad S3 = \sum_{i=1}^k Y_i, \quad S4 = \sum_{i=1}^k X_i Y_i$$

$$k \cdot a + S1 \cdot b = S3$$

$$S1 \cdot a + S2 \cdot b = S4 \quad (24)$$

Determinant usuli bilan

$$A = \frac{DA}{D}, \quad B = \frac{DB}{D}$$

$$Y1(I) = A + B \cdot X(I) \quad (I=1 \div k) \quad (25)$$

Topilgan koeffisientlar ( $A$  va  $B$ ) ning xatoliklarini hisoblash uchun ularning vaznlarini topish kerak.  $A$  va  $B$  larning vaznlari

$$PA = \frac{D}{S2}, \quad PB = \frac{D}{k} \quad (26)$$

Tajribada olingan va lar orasidagi kvadratik farqlarning yig'indisi

$$\delta = \sqrt{\sum_{i=1}^k \frac{(Y_i - Y1_i)^2}{(k-2)}} \quad (27)$$

$A$  va  $B$  koeffisientlarni hisoblashdagi o'rtacha kvadratik xatoliklar va nisbiy xatoliklar (%) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta A = \frac{\delta}{\sqrt{PA}}, \quad \Delta B = \frac{\delta}{\sqrt{PB}},$$

$$EpsA = \frac{100 * \Delta A}{A}, \quad EpsB = \frac{100 * \Delta B}{B}$$

$$A \pm \Delta A; B \pm \Delta B$$

$$\varepsilon_A = \frac{\Delta A}{A} * 100\%$$

$$\varepsilon_A = \frac{\Delta B}{B} * 100\%$$

Shuni aytish kerakki,  $Y_{1_i} = A + B \cdot X_i$  tenglama (tajribada olingen nuqtalarga asoslanib o'tkazilgan to'g'ri chiziqni beradi.  $X_i$  va lar orasidagi  $Y_i = a + bx_i$  ko'rinishdagi chiziqli bog'lanishga istalgan laboratoriya ishidagi ishchi formulani moslashtirish mumkin.

Masalan: Tangens bussol yordamida yerning magnit maydonini gorizontal tashkil etuvchisini aniqlashdagi ishchi formula

$$H = \frac{R^2 M}{\sqrt{(R^2 + H^2)^3}} \cdot \frac{I_i}{\operatorname{tg} \varphi_i} = C \cdot \frac{I_i}{\operatorname{tg} \varphi_i} \quad (28)$$

bu erda:

$$\operatorname{tg} \varphi_i = a + \frac{C}{H} I_i \quad (29)$$

Quyidagi belgilashlarni kirtsak  $Y_i = \operatorname{tg} \varphi_i ; X_i = I_i ; b = \frac{C}{H}$  yuqoridagi tenglama

$$Y_i = a + bx_i \text{ ko'rinishini oladi.}$$

**Tanlangan nuqtalar usuli.** Bu usulni ishlatib, biror fizik kattalikni hisoblash formulasiga kirgan, lekin bevosita o'lchanmagan kattaliklarni ham hisoblab topish mumkin.

Tanlangan nuqtalar usulida ham  $Y_i = a + bx_i$  kabi formula ishlatiladi. Buning uchun o'lchashlar natijasida olingen ( $k$  – marta o'lchashlardan tuzilgan,  $2$  – jadval kabi), istalgan ikkita  $X$  va  $Y$  kattaliklarni olamiz (masalan:  $X_2, Y_2$  va  $X_5, Y_5$ , yoki  $X_3, Y_3$  va  $X_7, Y_7$  va hokazolar) va ularni bog'lovchi quyidagi tenglamalarni tuzamiz:

$$\begin{cases} Y_2 = a + bx_2 \\ Y_5 = a + bx_5 \end{cases}$$

Bu olingen tenglamalardan determinant usuli yordamida  $a = A$  va  $b = B -$  lar topiladi. Topilgan  $A$  va  $B$  – lardan ularga kirgan fizik kattaliklar va ularning xatoliklari EKKU usuliga o'xshatib topiladi. Shuni aytish kerakki, tanlangan nuqtalar usuli EKKU usuliga qaraganda katta xatoliklarni beradi.

**O'rtacha arifmetik usul.** Bu usulda ham  $Y_i = a + bx_i$  kabi bog'lanishlar va  $2$  – jadvaldagi kabi o'lchashlar ishlatilib, o'lchashlar soni ( $K$ ) ikkiga bo'linadi. Masalan, agar  $K = 6$  bo'lsa

$$\begin{cases} Y_1 = a + bx_1 \\ Y_2 = a + bx_2 \\ Y_3 = a + bx_3 \end{cases} \quad \text{va} \quad \begin{cases} Y_4 = a + bx_4 \\ Y_5 = a + bx_5 \\ Y_6 = a + bx_6 \end{cases}$$

Bunday ikkita juft tenglamalarni qo'shib, ikkita tenglama hosil qilinadi:

$$\sum_{i=1}^{k/2} y_i = \frac{k}{2} a + \sum_{i=1}^{k/2} x_i b$$

$$\sum_{i=\frac{k}{2}+1}^k y_i = \frac{k}{2} a + \sum_{i=\frac{k}{2}+1}^k x_i b$$

Bu ikkita tenglamalardan determinant usuli yordamida  $a=A$  va  $b=B - \text{lar}$ ,  $A$  va  $B$  lar tarkibiga kirgan fizik kattaliklar va ularning xatoliklari topiladi. O'rtacha arifmetik usul bilan olingan natijalardagi xatoliklar topilgan nuqtalar usulidan ancha samaraliroq.

**Grafik usuli.** Labratoriya ishlarida o'lchanadigan va hisoblab topiladigan fizik kattaliklar orasidagi bog'lanishlar (29) formula kabi berilgan bo'lib, 2-jadvaldagagi kabi o'lhash natijalari olingan bo'lsa, bu jadvalga asosan  $y_i = a + bx_i$  grafigi chiziladi va bu grafikdan  $t$  va  $B$  koefisientga kirgan fizik kattalik topiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

[1] - 6,7 boblar., [4]-4 bob, [5]-5 bob, [7]-2 bob.

## 1 (60)- LABORATORIYA ISHI

### ELEKTROSTATIK MAYDONNI O'RGANISH

**Kerakli asbobva materillar:** Elektrolitik vanna, reostat, ossilograf, o'zgaruvchan tok generatori, elektrodlar, zond, pantografi, millimetrlı qog'oz, elektrolit, similar to'plami.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Elektrostatik maydonni o'rGANISH, ekvipotensial sirlarni aniqlash.

#### Elektrostatik maydonni qisqacha nazariy tavsifi

Bizga ma'lumki har qanday zaryad mavjud bo'lganda uning atrofidagi fazoda elektr maydoni hosil bo'ladi. Tinch turgan zaryadlar atrofida hosil bo'lgan elektr maydon ular orasida o'zaro ta'sir kuchi paydo bo'lishi va uning biridan boshqasiga uzatilishini amalga oshiradi. Elektr maydonning asosiy xossasi shundan iboratki, shu maydonda joylashgan har qanday zaryadga kuch ta'sir qiladi. Nuqtaviy zaryadlarning o'zaro ta'siri Kulon qonuni orqali aniqlanadi:

$$F_{1,2} = F_{2,1} = \frac{k_0 |q_1| \cdot |q_2|}{\epsilon_0 \cdot \epsilon \cdot r_{1,2}^2} \quad (1.1)$$

Elektr maydonini miqdoriy jihatdan xarakterlaydigan maxsus fizikaviy kattalik – bu elektr maydon kuchlanganligidir. Elektrostatik maydonni o'rganishda nuqtaviy zaryad va sinov zaryadlari tushunchasini kiritish muhim ahamiyatga ega. Agar zaryadlangan jismlardan har birining chiziqli ol'chamlari bu jismlar va maydonning qaralayotgan nuqtasi orasidagi masofaga qaraganda juda kichik bo'lsa, u holda har qaysi zaryadlangan jismni nuqtaviy zaryad deb qarashimiz mumkin. Sinov zaryadi qilib esa miqdori bir birlik bo'lgan ( $q_0 = +1$ ) musbat zaryad qabul qilingan. Sinov zaryadi shunday kichik bo'lishi kerakki, uni boshqa zaryad yoki zaryadlangan jism maydoniga kiritganda jismdag'i zaryadlar ko'chishi bo'lmasin, ya'ni maydonga kiritilgan zaryad maydonni o'zgartirmas. Nuqtaviy zaryadning elektr maydoniga  $q_0 = +1$  bo'lgan sinov zaryadini kiritganimizda unga  $F$  Kulon kuchi ta'sir qiladi:

$$F = \frac{k_0}{\epsilon_0} \frac{q_0 q}{\epsilon \cdot r^2} \quad (1.2)$$

(1.2) – ifodaning ikkala tomonini ga bo'lib yuborsak, tenglamaning o'ng tomoni sinov zaryadiga bog'liq bo'lmaydi va sinov zaryadi

qo'yilgan nuqtadagi elektr maydonni xarakterlaydi. Bu kattalikka elektr maydon kuchlanganligi deyiladi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$\vec{E} = \frac{\vec{F}}{q_0} = \frac{k_0}{\epsilon_0} \frac{q}{r^3} \vec{r} \quad (1.3)$$

Kuch vektor kattalik bo'lganligi uchun, elektr maydon kuchlanganligi ham vektor kattalikdir. Bu vektorning yo'naliishi maydonning biz qarayotgan nuqtasiga joylashtirilgan musbat zaryadga ta'sir qilayotgan kuchning yo'naliishi bilan bir xil bo'ladi. (1.3) – ifodadan ko'rinishdiki, agar biror nuqtada maydon kuchlanganligi ( $E$ ) ma'lum bo'lsa, shu nuqtaga joylashtirilgan, zaryadi  $q$  bo'lgan zaryadlangan zarrachaga ta'sir qilayotgan kuchni aniqlashimiz mumkin, ya'ni:


$$\vec{F} = q \cdot \vec{E} \quad (1.3^1)$$

Biz o'rganayotgan maydonni bitta nuqtaviy zaryad hosil qilayotgan bo'lsa (1.3) – ifodadan maydon kuchlanganligini hisoblashimiz mumkin. Lekin maydonni bir nechta zaryadlar hosil qilayotgan bo'lsa, natijaviy elektr maydon kuchlanganligi alohida zaryadlar hosil qilayotgan maydon kuchlanganliklarining vektor yig'indisiga teng bo'ladi:

$$\vec{E} = \vec{E}_1 + \vec{E}_2 + \dots + \vec{E}_n = \sum_k \vec{E}_k \quad (1.4)$$

Bu superpozisiya prinsipi bo'lib, maydonning muhim xossasidir. Demak, biz har qanday nuqtaviy zaryadning hosil qiladigan elektr maydon kuchlanganligini hisoblashimiz mumkin.

Agar zaryadlangan jism juda katta bo'lib, uni nuqtaviy zaryad deb qarash mumkin bo'lmasa, (1.3) va (1.4) formulalar yordamida maydon kuchlanganligini hisoblab bo'lmaydi. Bu holda zaryadlarning berilgan jismda taqsimlanishini bilishimiz kerak. Buning uchun zaryadlarning hajmiy, sirtiy va chiziqiy zichliklarini, hamda ularning tekis yoki notekis taqsimlanganliklarini bilishimiz kerak. Jismdagi zaryad taqsimoti ma'lum bo'lsa, u holda zaryadlar hosil qilayotgan elektr maydonni hisoblashimiz mumkin. Buning uchun zaryadlangan jismni cheksiz kichik qismlarga bo'lib, ularni nuqtaviy zaryad deb hisoblab, har birining maydon kuchlanganligi hisoblab kerak va ularning yig'indisi olinadi.



1.1 –rasm.

Elektr maydonni tasvirlash uchun maydonning har qaysi nuqtasidagi kuchlanganlik vektori berilgan bo'lishi kerak. Elektr maydonni kuch chiziqlar orqali tasvirlash mumkin va shu kuch chiziqlarni joylashishiga qarab (zich, siyrap, tekis) uning kattaligi, bir jinsli yoki bir jinsli emasligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Kuch chizig'i yoki maydon kuchlanganligining vektor chizig'i deb, elektr maydonda o'tkazilgan shunday chiziqqa aytildiki bu chiziqning istalgan nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning yo'nalishi maydon kuchlanganligi vektori yo'nalishi bilan mos tushadi. Kuch chiziqlar musbat zaryaddan boshlanadi va manfiy zaryadda tamom bo'ladi. Fazoda faqat musbat zaryad bo'lsa, unda kuch chiziqlar musbat zaryaddan boshlanib, cheksizlikka ketadi va yakkalangan manfiy zaryad bo'lsa kuch chiziqlar cheksizlikdan boshlanib manfiy zaryadda tomon bo'radi (1.1-rasm).

Yuqorida elektr maydonni hisoblashning bir necha usullarini ko'rib chiqdik. Elektr maydonni hisoblashning yana bir sodda usullaridan biri Ostragradskiy – Gauss teoremasini qo'llash usulidir. Bu teoremani kiritish uchun maydonni xarakterlaydigan elektr maydon induksiya vektori ( $\vec{D}$ ) va uning oqimini ko'rib chiqamiz. Asosiy fizik ma'noga ega bo'lgan elektr maydon kuchlanganligi ( $\vec{E}$ ) va elektr maydon induksiyasi orasida quyidagiga bog'lanish mavjud:

$$\vec{D} = \epsilon_0 \cdot \epsilon \cdot \vec{E} \quad (1.5)$$

Bu erda  $\epsilon$  – muhitning dielektrik sindiruvchanlik,  $\epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} F/m$  bo'lib, elektr doimiysi deb yuritiladi. Elektr maydon induksiya vektorining oqimi quyidagiga teng:

$$N = D \cos \alpha \quad (1.6)$$

Agar maydon bir jinsli bo'lmasa va oqim o'tayotgan sirt ( $S$ ) yassi bo'lmasa, bu sirtni kichik  $ds$  bo'laklarga bo'lib chiqiladi.  $ds$  sirti elementi orqali o'tayotgan induksiya oqimi  $dN = D_n ds$  boladi. Berilgan  $S$  sirt orqali o'tayotgan oqim

$$N = \int D_n ds \quad (1.7) \text{ orqali ifodalanadi.}$$

Ostrogradskiy – Gauss teoremasini mazmuni quyidagicha: ixtiyoriy berk sirtdan o'tayotgan elektr maydon induksiya vektorining oqimi shu berk sirt ichidagi zaryadlarning algebraik yig'indisi bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$N = k_0 4\pi \sum q_i \quad (1.8)$$

Bu teoremani qo'llab, bir nechta xususiy hollar uchun olingan elektr maydon kuchlanganligini ifodasini keltirish mumkin.


1. Tekis zaryadlangan, cheksiz uzun tekislik atrofidagi ixtiyoriy nuqtadagi elektr maydon kuchlanganligi faqat tekislik sirtidagi zaryadning sirtiy zichligi ( $\sigma$ ) va muhitning dielektrik sindiruvchanligi ( $\epsilon$ ) bilan aniqlanadi:

$$E = \frac{k_0 2\pi \sigma}{\epsilon_0 \epsilon} \quad (1.9)$$

2. Qarama – qarshi ishorali tekis zaryadlangan, cheksiz uzun o'zaro parallel ikkita plastinka orasidagi ixtiyoriy nuqtaning elektr maydon kuchlanganligi faqat zaryadlarning sirtiy zichligi ( $\sigma$ ) va plastinkalar orasidagi muhitning dielektrik sindiruvchanligi ( $\epsilon$ ) bilan aniqlanadi:

$$E = \frac{k_0}{\epsilon_0} \frac{4\pi \sigma}{\epsilon} \quad (1.10)$$

Agar bizda bir jinsli (plastinkalar orasidagi fazoning hamma nuqtalarida teng elektr maydon kuchlanganligiga ega bo'lgan) maydon hosil qilish zarurati paydo bo'lsa, shu xususiy holdan foydalanamiz (1.2-rasm).



1.2 – rasm.

Qarama – qarshi ishorali tekis zaryadlangan, koaksial cheksiz uzun ikkita silindrлarning orasidagi ixtiyoriy nuqtaning elektr maydon kuchlanganligini topish kerak bo'sin. Biz ichki silindrni ingichka simdan iborat deb qaraymiz ( $R_1 << R_2$ ). Bu erda  $R_1$  ichki silindrning,  $R_2$  – tashqi silindrning radiuslaridir. Bu holda Ostrogradskiy – Gauss teoremasidan foydalanib quyidagi ifodani olishimiz mumkin:

$$E = \frac{K_0}{\epsilon_0} \frac{2\lambda}{\epsilon \cdot r} \quad (1.11)$$

Bu erda  $\lambda$  – chiziqiy zichligi,  $\epsilon$  – muhitning dielektrik sindiruvchanligi,  $r$  – silindrлar o'qidan ikkala silindr orasidagi ixtiyoriy nuqtagacha bo'lgan masofa. (1.11) ifodadan ko'rinishdiki zaryadlar taqsimoti ( $\lambda$ ) berilgan bo'lsa, ikkala silindr oralig'dagi ixtiyoriy nuqtaning elektr maydonini ( $E(r)$ ) ni hisoblashimiz qiyin emas ekan.

Ostrogradskiy – Gauss teoremasidan foydalanib bir qancha xususiy hollar uchun (tekis zaryadlangan shar, tekis zaryadlangan sfera va konsentrik sferalar, va hokazo) elektrostatik maydonni hisoblashimiz mumkin ekan. Ostrogradskiy – Gauss teoremasining (1.8) ifodadagi ko'rinishini odatda uning integral ko'rinishi deyiladi. Chunki u ma'lum hajmga ega bo'lgan berk sirtdan o'tuvchi elektr maydon induksiyasining oqimi va sirt ichidagi va shu maydonni hosil qiluvchi zaryadlar orasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Ko'p hollarda bu teoremani differensial ko'rinishi ham ishlataladi. Fazoning biror  $A(x, y, z)$  nuqtasidagi elektr maydon induksiyasi  $D$  ( $D_x, D_y, D_z$ ) bo'lsin va uchi «A» nuqtada, tomonlari esa  $dx, dy, dz$  bo'lgan parallelepipedning qarama – qarshi tomonlaridan o'tayotgan to'la oqimini hasoblab, uni

$$N = \left[ \frac{\partial D_x}{\partial x} + \frac{\partial D_y}{\partial y} + \frac{\partial D_z}{\partial z} \right] \epsilon V$$

ekanligini ko'rsatish mumkin. XBT birliklar sistemasida  $N$  bo'lishini va berk sirt ichidagi (parallelepiped ichidagi) zaryad ekanligini hisobga olsak, quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$\frac{\partial D_x}{\partial x} + \frac{\partial D_y}{\partial y} + \frac{\partial D_z}{\partial z} = \rho \quad (1.12)$$

Bu (1.12) ifodani Ostragradskiy – Gauss teoremasining differensial ko'rinishi deb ataladi va u Puasson tenglamasi deb ham yuritiladi. (1.12) ifoda qisqaroq ko'rinishda quyidagicha yoziladi:

$$\operatorname{div} \vec{D} = \quad (1.13)$$

Elektrostatik maydonni o'rganishning va uni hisoblashning qulay usullaridan biri-maydoning ixtiyoriy nuqtasini potensialini yoki ikki nuqta orasidagi potensiallar farqini aniqlashdir. Bunda ko'pincha berilgan zaryadlar bo'yicha elektr maydonni o'rganish potensiallar farqini hisoblash bilan bajariladi. Birorta nuqtaviy zaryadning elektr maydonida  $q_0$  sinov zaryadini koordinatasi  $r_1$  bo'lgan 1- nuqtadan koordinatasi  $r_2$  bo'lgan 2 – nuqtaga ko'chirishda elektr maydonni bajargan ishi quyidagiga teng:

$$A_{1,2} = \int_{r_1}^{r_2} q_0 E dr = q_0 \frac{k_0}{\epsilon_0} \frac{q}{\epsilon} \left[ \frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2} \right] \quad (1.14)$$

(1.14) dan ko'rindiki elektrostatik maydonda bajarilgan ish faqatgina ikkala nuqtaning koordinatalari bilan aniqlanar ekan va  $q_0$  zaryad bosib o'tgan traektoriyaning shakliga bog'liq bo'lmas ekan. Agar  $r_1 = r_2$  bo'lsa, ya'nisi 1 – va 2 – nuqtalar ustma – ust tushsa ish nolga teng bo'ladi. Bunday maydonni odatda potensial maydon deyiladi. Demak elektrostatik maydon potensial maydon bo'lar ekan.

(1.14) ifodadagi  $\frac{A_{1,2}}{q_0}$  nisbat faqat  $q$  zaryadga bog'liq bo'lib, unga 1- va 2 – chi nuqtalarning potensiallar farqi yoki ikki nuqta orasidagi kuchlanish deyiladi:

$$— \quad (1.15)$$

Bu erda  $\varphi_1 - \varphi_2$  potensiallar farqi va  $U_{1,2}$  – kuchlanish. Agar 2 – nuqta cheksizlikda bo'lsa:  $\frac{1}{r_1} = \varphi_1$  ni 1 – nuqtaning potensiali deb ataymiz. Demak bir birlik zaryadni ( $q_0 = +1$ ) maydonning

ixtyoriy nuqtasidan cheksizlikka ko'chirishda bajarilgan ish ( $A_1, \infty$ ) bilan o'lchanadigan kattalikka shu nuqtaning potensiali deb ataladi.

Elektrostatik maydonda berk kontur bo'yicha bajarilgan ish nolga teng bo'lganligi uchun potensillar farqi yoki kuchlanish ham nolga teng. Shuning uchun elektrostatik maydonda potensiallar farqi ta'sir etuvchi maydon bilan bir qiyatli aniqlanadi va uning asosiy xaraktristikalaridan biridir. Maydonni xarakterlashda maydon kuchlanganligiga qaraganda potensiallar farqi ko'proq ishlataladi. Chunki maydon kuchlanganligi vektor kattalik va uni komponentlarini-  $\vec{E}$  bilish zarur. Potensiallar farqi esa skalyar kattalikdir va u o'zining bittagina son qiymatiga ega. Maydonning har bir nuqtasida potensialni bilgan holda, elektr maydon kuchlanganligini topishimiz mumkin. Tajribalarda maydon kuchlanganligiga qaraganda potensiallar farqini o'lhash oson. Shuning uchun ham, elektr maydonini potensial yordamida xarakterlash - qulayroq.

Elektr maydon kuchlanganligi potensialning teskari ishora bilan olingan gradientiga teng:

$$\vec{E} = -\frac{\partial \varphi}{\partial r} \hat{r} \quad \text{yoki} \quad \vec{E} = -\mathbf{grad}\varphi \quad (1.16)$$

Bu erda  $\hat{r}$  - birlik vektordir. (1.16) ifodadagi minus ishora maydon kuchlanganligi ( $\vec{E}$ ) ning potensial kamayishi tomonga yo'nalganligini ko'rsatadi.  $\vec{z}\vec{k}$  va  $\vec{E}(r) = \vec{i}E_x + \vec{j}E_y + \vec{k}E_z$ , bo'lgani uchun  $E = -\frac{\partial \varphi}{\partial r} = -\mathbf{grad}\varphi$  ni x,y,z o'qlariga proeksiyalari quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} E_x &= -(\mathbf{grad}\varphi)_x = -\frac{\partial \varphi}{\partial x}; \\ E_y &= -(\mathbf{grad}\varphi)_y = -\frac{\partial \varphi}{\partial y}; \\ E_z &= -(\mathbf{grad}\varphi)_z = -\frac{\partial \varphi}{\partial z}; \end{aligned} \quad (1.17)$$

Bularni hisobga olib,  $E$  - ning son qiymati uchun:

$$E = \sqrt{E_x^2 + E_y^2 + E_z^2} = \sqrt{\left(\frac{\partial \varphi}{\partial x}\right)^2 + \left(\frac{\partial \varphi}{\partial y}\right)^2 + \left(\frac{\partial \varphi}{\partial z}\right)^2} \quad (1.18)$$

formulani hosil qilainiz. Agar maydon bir jinsli bo'lsa, masalan, cheksiz uzun parallel plastinkalar (yassi kondensator) orasidagi elektr maydon, u holda:

$$E = \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{d} = \frac{u}{d}$$

bo'ladi.

Elektr maydonda bir xil potensialga ega bo'lgan nuqtalarni birlashtirib, ekvipotensial sirtlarni yoki ekvipotensial chiziqlarni (tekislikda) hosil qilamiz. Ekvipotensial sirtlarni bilgan holda har doim shu maydonning kuch chiziqlarini hosil qilishimiz mumkin.

Bizga bir nechta, har xil shakldagi o'tkazgichlar – metall elektrodlar berilgan va ularning har birini potensiallari ( $\varphi_A, \varphi_B, \varphi_C$  va hokazo) ma'lum bo'lsin. O'tkazgichlar orasidagi maydonning ixtiyoriy nuqtasidagi potensialning qiymatini aniqlash talab qilinsin. Bu masalani analitik ko'rinishda yechish uchun maydon kuchlanganligining ( $\vec{E}$ ) koordinatalar bo'yicha tashkil etuvchilarini potensial orqali ifodalaymiz. (1.17) dan ma'lumki:

$$E_x = -\frac{\partial \varphi}{\partial x}, E_y = -\frac{\partial \varphi}{\partial y}, E_z = -\frac{\partial \varphi}{\partial z};$$

Bu ifodalarni Puasson tenglamasiga (1.12) qo'yib, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial z^2} = -\frac{1}{\epsilon_0} \quad (1.19)$$

Agar o'tkazgichlar orasida zaryadlar bo'lmasa, ya'ni hamma nuqtalarda  $\rho=0$  bo'lsa (1.19) tenglama yana ham soddarоq ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial z^2} = 0 \quad (1.20)$$

(1.20) tenglamaga Laplas tenglamasi deyiladi. Potensialni umumiy holda hisoblash shunday  $\varphi(x, y, z)$  funksiyani topishga olib keladiki, bu funksiya Laplas tenglamasini qanoatlantirsin va

chegegaraviy shartlar sifatida har bir o'tkazgichda  $\varphi = \varphi_A$ ,  $\varphi = \varphi_B$ ,  $\varphi = \varphi_C$  va hokazo bo'lsin. Bunday yechim bir qiymatli bo'ladi. Biroq bunday masalani yechish ko'p hollarda juda katta qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun tajribada bir nechta o'tkazgichlar hosil qilgan elektr maydonni o'rghanishda eletrolitik vanna usulidan foydalaniladi.

### **Elektrostatik maydonni tajribada o'rghanish**

**Kerakli asboblar:** elektrolitik vanna, pantograf, zond, reostat, tovush generatori, ossillograf.

Tajribada elektrolitik vannaga ikkita yoki to'rtta istalgan geometrik shakldagi elektrodlarni o'rnatib, bu elektrodlarning hosil qilgan elektrostatik maydoni o'rghaniladi. Buning uchun ekvipotensial sirtlar (chiziqlar) chizib, maskur ekvipotensial sirtlarga maydon kuch chiziqlari ya'ni kuchlanganlik chiziqlari o'tkaziladi. Vanna va elektrodlarning o'lchamlari chizilgan manzara o'lchamlarda teng bo'lishi zarur. Ish davomida maydonning buzmasligi uchun elektrodlar o'zgarmas tok manbayi o'rniga o'zgaruvchan tok manbayiga, ya'ni tovush generatoriga ulanadi.

### **Qurilma va tajriba o'tkazish metodikasi**

Yassi elektrolitik vanna o'lchamlari taxminan  $40 \times 50 \times 15 \text{ cm}^3$  bo'lgan natural yoki organik shishadan yasalgan parallelopipeddan iborat. Vanna shunday o'rnatiladiki, bunda uning assosi qat'iy gorizontal bo'lishi kerak. Assosi tagiga millimetrlı qog'oz yoki maxsus tayyorlangan koordinatalar katagi qo'yiladi. Vannaga yupqa ( $0,5 - 1 \text{ mm}$ ) qatlam elektrolit (vodoprovod suvi yoki istalgan tuzning juda kuchsiz eritmasi) quyiladi. Elektrodlarning «ikki o'lchamli» modeli vannaning tubiga qo'yiladi. Elektrodlarda potensial hosil qilish uchun ular kuchlanish taqsimgichning mos nuqtalariga ulanadi. Elektrolitik vanna bilan ishlashda chastotasi  $10^3 \text{ Hz}$  tartibdag'i o'zgaruvchan kuchlanish qo'llaniladi.

Maydondagi tanlab olingan nuqtaning potensiali kompensatsion metod bilan o'lchanadi. Zondga kelayotgan tok indikatori sifatida ossillograf xizmat qiladi. 1.3 – rasmida elektr qurilmaning sxemasi berilgan. O'zgaruvchan tok manbai sifatida tovush generatori xizmat qiladi (TG). Kuchlanish taqsimgich elektrodlarni ularash uchun xizmat

qiladigan bir necha ulagichlar bilan ta'minlangan katta qarshilikli reostatdir. Bu potentsiometrik ulangan reostat 14 ta teng qismga bo'lingan bo'lib, kuchlanish taqsimlagich hisoblanadi. D – reostatning sirrangichi. T.I. – tok indikatori (nol – indikator ham deyiladi) bizning qurilmamizda ossillografdir. Zond ossillografning «u» og'ish klemasiga ulangan bo'lib, zond (z) potensiali reostat sirrangichi «D» ni siljitish orqali beriladi. Ravshanki, bu potensial birinchi elektrodga nisbatan aniqlanadi. Zond potensiali bilan maydonning shu zond qo'yilgan nuqtasidagi potensialining tengligini tok indikatorining og'masligi yoki ossillograf ekranida nuqta hosil bo'lishi tasdiqlaydi. Agar tok indikatori sifatida ossillograf qo'llanilsa, u holda uning kirish klemmalariga eksperimental tarzda tanlangan qarshilik ulash kerak.


Zond metalldan yasalgan uchli o'tkazgich bo'lib, izolyasiya qilingan tutkichga ega. (Tutkich va zonddan tok indikatoriga keluvchi o'tkazgich tashqi ta'sirlarni bartaraf qilish maqsadida ekranlab qo'yilgan). Zond qalamli pantografga ulangan bo'ladi, bu pantografga ekvipotensial nuqtalarni aniq belgilash imkonini beradi.

### Ish tartibi va o'lchashlar:

1. 1.3 – rasmda ko'rsatilgan elektr sxema yig'iladi. Vannaga maydoni tekshirilishi kerak bo'lgan elektrodlar ( $\exists_1$  va  $\exists_2$ ) o'rnatiladi. Keyin vannaga suv yoki konsentrasiyasi kichik bo'lgan elektrolit shunday qo'yiladiki, bu suyuqlikka elektrodlar botib tursin. Millimetrali qog'ozga elektrodlarning shakli, aniq o'lchamligi va joylanishi xuddi vannadagidek holda chizish kerak. Elektrodlarga potensial berib (1 – elektrodga nisbatan), reostat R ning D sirrangichi 1 – chi bo'limga qo'yiladi va zond maydonning biror nuqtasiga o'rnatiladi. Ossilograf ekranida sinusoida chiziq paydo bo'ladi, chunki bu nuqtada zondning potensiali ( $\varphi_z$ ) maydoning potensiali ( $\varphi_m$ ) ga teng emas, demak tok amplitudasi

$$I = \frac{\varphi_m - \varphi_z}{R}$$

qandaydir qiymatga ega ekan. U holda maydon bo'ylab zondni siljitim minimum signal (to'g'ri chiziq) topilishiga, ya'ni tok indikatorining ko'rsatishi nolga teng bo'lishiiga erishiladi.



1.3-rasm

Bu nuqtada zond potensiali va maydonidagi zond qo'yilgan shu nuqtaning potentsiallari bir xil bo'ladi.  $\varphi_m - \varphi_z = 0$  ya'ni  $\varphi$  bo'lib, tok amplitudasi  $I=0$  bo'ladi, ekrandagi vertikal chiziq nuqtaga aylanadi va bu nuqtaning koordinatalari belgilanadi, yoki pantograf qalami yordamida xuddi vannadagidek millimetrlı qog'ozga nuqta qo'yiladi. Shundan keyin D sirpangichning vaziyatiga muvofiq bo'lim yozib olinadi. Aynan shuning o'zi maydonda topilgan nuqtaning birinchi elektrodga nisbatan  $\varphi_1$  potentsiali bo'ladi.

2. D sirpangich vaziyatini o'zgartirmasdan zond biroz suriladi va ilgaridek yangi nuqta topiladi. Ravshanki, bu nuqta oldingi nuqtaga ekvipotensial bo'ladi. Topilgan nuqtaning koordinatalari yozib olinadi yoki pantograf qalami belgilaydi. Shunday jarayon butun ekvipotensial chiziq yetarli darajada aniq chizilmaguncha takrorlanaveradi. Shunday qilib, D sirpangichni ma'lum holatida (1 – chi holatida) bir necha (10 ta yoki 12 ta) nuqtalar topiladi va ularni uzlusiz birlashtirib, biz potensiallari bir xil bo'lgan chiziq, ya'ni ekvipotensial chiziqlari hosil qilamiz. (Ekvipotensial chiziqlarning tenglamasi  $\varphi(x,y,z) = \text{const}$  hisoblanadi).

3. «D» sirpangich 2 – chi bo'limga suriladi, kuchlanish taqsimlagichdagи bu vaziyat yozib olinadi va 2 – punktdagi o'lchashlar takrorlanadi.

4. Reostatni hamma (14) bo'limida shunday ishlar amalga oshiriladi. Topilgan ekvipotensial chiziqlar (yoki sirtlar) soni 10 – 14 bo'lishi kerak va albatta D sirpangichni qanday vaziyatda har qaysi chiziq olinganligi belgilanadi. Reostatni hamma 14 ta bo'limi uchun

olingen ekvipotensial chiziqlar bizga elektrodlarning shakliga bog'liq bo'lgan elektrostatik maydonning ko'rinishini beradi.

### **O'lchash natijalarini ishlash**

Qo'llanilgan elektrodlarning o'lchamlari va joylanishi millimetrlı qog'ozga vannaning haqiqiy kattaligida chiziladi. Tajribadan olingen natijalardan foydalanib, ekvipotensial chiziqlar va kuchlanganlik chiziqlari (kuch chiziqlari) ning manzarasi grafik shaklda chiziladi. Kuchlanganlik chiziqlari ekvipotensial chiziqlar oilasiga nisbatan ortogonal (perpendikulyar) ravishda o'tkaziladi. Bu chiziqlar hamma elektrodlarga nisbatan ham ortogonal bo'lib, shu elektrodlarda boshlanadi va shu elektrodlarda tugallanadi yoki «cheksizlikka» ketadi.

### **Nazorat savollari**

1. Elektrostatik maydonga ta'rif bering. Elektr maydonni xarakterlovchi kattaliklarning fizik ma'nosini tushuntiring.
2. Elektrostatik maydonda elektr zaryadini ko'chirish ishi.
3. Potensial gradienti. Elektr maydon kuchlanganligi va maydon potensiali orasidagi munosabat. Ekvipotensial sirtlar.
4. Ostrogradskiy – Gauss teoremasi. Gauss teoremasining integral va defferentsial ko'rinishi.
5. Silindrik va sferik kondensatorlar elektr maydonlarini hisoblash.
6. Ikki parallel simli tarmoq elektr maydoni.
7. Nima uchun elektr maydoni kuchlanganligi vektori ekvipotensial sirlarga tik bo'ladi?
8. Muhitning dielektrik singdiruvchanligi va qabul qiluvchanligi orasidagi munosabat. Qutblanish vektori.
9. Segnetoelektriklar. To'g'ri va teskari pyezoelektrik effektlar.
10. Elektrostatik maydonni o'rganishning boshqa usullari.
11. Nima uchun elektr maydon kuch chiziqlari kesishmaydi?
12. Elektr maydonni o'rganish qanday amaliy ahamiyatga ega?

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

[1] - 2,3 boblar, 8-14, 16-26 va 62 paragraflar, [2]-1 bob, 3-8, 17-22 va 47 paragraflar, [3]-1 bob, 5-12 paragraflar, [4]-2 bob, 5-8 paragraflar.

## 2(70) - LABORATORIYA ISHI

### KONDENSATORNING ZARYADLANISH VA RAZRYADLANISH JARAYONLARINI O'RGANISH

**Kerakli asboblar:** O'zgarmas tok manbai, katta qarshilikli rezistor, katta sig'imli kondensator, ampermetr, voltmeter, kalit, similarni to'plami.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Kondensatorning zaryadlanish va razryadlanish jarayonini o'rganish.

**Qisqacha nazariya:** Kondensator qoplamalarida elektr zaryadlarining yig'ish jarayoniga zaryadlash deyiladi. Kondensator zaryadlanishi jarayoniga teskari bo'lgan jarayonga razryadlanish deyiladi. Kondensatorni zaryadlash jarayoni doimiy tok manbaini ( $U_0$ ) kondensator C bilan ketma – ket ulangan rezistorni ulash momentidan boshlanib, kondensator qopalamalari orasidagi potensiallar farqi manbaining E.Yu.K ga tenglashguncha davom etadi. Bu holda kondensatorda hosil bo'lgan kuchlanish ( $U_0$ ) yo'nalishi manbadagi E.Yu.K yo'nalishiga qarama – qarshidir.

$$; I(t) = (U_0 - U_c)/R \quad (2.1)$$

(2.1) dan ko'rindaniki, vaqt o'tishi bilan zanjirdagi tok kamaya boradi, natijada kondensatorning to'liq zaryadlanish momentida zanjirdagi tok nolga teng bo'ladi. Shunday qilib, zanjirdagi tok maksimum qiymatidan asta – sekin kamayib nolga intiladi. Kondensatorning zaryadlash va razryadlash jarayoni natijasida zanjirdagi tokning yoki kondensatordagi kuchlanishning o'zgarishiga o'tish jarayonlari deyiladi.

Agar kondensator sig'imini C desak, unda istalgan vaqt momentidagi kondensator qoplamalari orasidagi (potensiallar tushishi) kuchlanish quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{—} \quad (2.2)$$

Kondensatorning zaryadlash va razryadlash jarayonini ikkita usulda o'rganish mumkin:

1. Ampermetr (mikroampermetr) usuli.

2. Voltmetr usuli.

Mana shu ikki usulni alohida – alohida ko'rib o'tamiz.

## Ampermetr usuli

**Kerakli asboblar:** Katta sig'imli kondensator, katta qarshilikli rezistor, mikroampermetr, doimiy tok manbai, kalit, sekundomer.

### a) Kondensatorni zaryadlash.


2.1 – rasmdagi sxemani tuzamiz va  $K$  kalitni neytral holatdan 1 – holatga o'tkazamiz. Boshlang'ich holatda, ya'ni kalitni 1 - holatga o'tkazish vaqtida, ya'ni  $t = 0$  da  $q = 0$  bo'ladi. Ampermetr va tok manbaining ichki qarshiliklarini hisobga olmagan holda yopiq zanjir uchun jarayonni kvazistatsionar deb hisoblab, Kirxgofning ikkinchi qoidasiga ko'ra quyidagini hosil qilamiz:

$$\text{yoki} \quad - \quad (2.3)$$

Oxirgi tenglamani yechib, boshlang'ich shartni qo'llash natijasida istalgan  $t$  vaqt momentdagi kondensatorni zaryadlash tokini olamiz.

$$- \quad (2.3^1)$$

Bu yerda:  $-$  ga teng bo'ladi.



2.1 – rasm.

### b) Kondensatorni razryadlash.

2.1 – rasmdagi (sxemadagi) kalitni 1 – holatdan 2 – holatga o'tkazamiz. Kalitni 2 – holatga o'tkazish momentida, ya'ni boshlang'ich holatda,  $t = 0$  da  $q = q_0$  bo'ladi. Yopiq zanjir uchun (yopiq kontur) Kirxgofning 2 – qoidasiga ko'ra:

$$\text{yoki} \quad - \quad (2.4)$$

Bu tenglamani yechib, boshlang'ich shartni qo'llash natijasida kondensatorning razryadlanish tokini (istalgan  $t$  vaqt momenti uchun) topamiz:

$$- \quad (2.4^1)$$

bu yerda  $I_0 = \frac{U_0}{R}$ , ko'rnib turibdiki razryadlash toki kondensator plastinkalari (qoplamlalari) orasidagi kuchlanishga proportsional ekan. Bu tok  $t = 0$  boshlang'ich momentda eng katta qiymatga ega va ishorasi zaryadlash tokiga teskari bo'ladi. (2.3<sup>1</sup>) va (2.4<sup>1</sup>) formulalardagi  $RC$  ni  $\tau$  deb belgilaymiz, bu  $\tau = R \cdot C$  kattalikka zanjirning vaqt doimisi yoki relaksatsiya vaqtini deyiladi. (2.3<sup>1</sup>) va (2.4<sup>1</sup>) formulalardan ko'rindiki,  $t = \tau$  bo'lsa,  $I = 0,368I_0$  hosil bo'ladi, ya'ni tok  $e = 2.72$  marta kamayadi.

### Tajribaning bajarilish tartibi:

1. 2.1 - rasmdagi sxema tuzilib, kalit neytral holatga qo'yiladi.
2. Kalit 1 – holatga ulanadi, bu holatda mikroampermetr strelkasi maksimum og'adi (kondensator zaryadlana boshlaydi).
3. Mikroampermetr strelkasining maksimal qiynatidan boshlab, sekundomerni ishga tushirish zarur va bir xil intervalni tanlab tokning shu intervallariga mos kelgan vaqtlarini ish davomida yozib borish kerak.
4. Kalitni uzib, neytral holatga qo'yiladi.
5. Kalitni ikkinchi holatga ulaymiz, bunda mikroampermetr strelkasi boshqa tomonga maksimal og'adi (kondensator razryadlana boshlaydi).
6. Mikroampermetr strelkasining ko'rsatishi bu holatda ham asta -- sekin kamaya boradi va mikroampermetr strelkasi maksimal holatda turganda sekundomer ishga tushirilib, kondensatorning razryadlanishi uchun bir xil intervalni tanlab tokning shu intervallarga mos kelgan vaqtlarini ish davomida yozib borish kerak.
7. Kalit uzilib, yana neytral holatga keltiriladi.
8. Yuqoridagi 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 – amallar uch marta takrorlanib, olingan natijalar 1- va 2- jadvallarga yoziladi.
9. 1- va 2 – jadvallarga asoslanib,  $I_i$  bilan  $t_i$  ning bog'lanish grafiklari chiziladi (grafiklar  $30 \times 35 \text{ sm}^2$  millimetrlik qog'ozga chiziladi). Grafiklardan  $I = 0,368I_0$  ga to'g'ri kelgan  $t$  ning qiymatini ( $t = \tau = R \cdot C$  ga teng bo'ladi) topish kerak. Agarda u grafiklarni OY o'qi bilan kesishguncha davom ettirsak  $I_0$  – qiymatlarini topamiz.
10. (2.3<sup>1</sup>) va (2.4<sup>1</sup>) formulalarga asosan 1- va 2 – jadval natijalarini

$t$  ko'rinishda ifodalaymiz va eng kichik kvadratlar usuli bilan hisoblaymiz,  $\tau$  ning qiymatlarini aniqlaymiz. Buning uchun  $(2.3^1)$  va  $(2.4^1)$  ifodalarni logarifmlaymiz:

- va

; ; —

belgilashlarni kiritib,  $(2.3^1)$  va  $(2.4^1)$  munosabatlarni ko'rinishiga keltiramiz.

11. 1- va 2 – jadvallarga asoslanib eng kichik kvadratlar usuli bilan topilgan  $\tau$  qiymatlaridan foydalanihib va  $R$  ni ma'lum deb hisoblab  $\tau = R \cdot C$  formuladan  $C$  ning qiymati topiladi.

12. Eng kichik kvadratlar usuliga asoslanib,  $a$  va  $b$  lar topilgandan keyin  $y_i = a - bt_i$  formulaga  $a=A$  va  $b=B$  qiymatlar qo'yiladi va quyidagi formula olinadi.

$$y_i = A - B \cdot t_i$$

Endi  $t_i$  - larga turli qiymatlar berib ( $t_i$  – larning bu qiymatlari jadvallardan olingan)  $t$  – larning minimum va maksimum qiymatlari oralig'idaqi qiymatlar hisoblanadi.

13. Yuqoridagi funksiyalarining grafiklarini chizilib asosiy parametrlar topib, tahlil qilinadi.

1-jadval

Kondensatorni zaryadlashda olingan natijalar

Nº	Ampermetr ko'rsatish (bo'limi)				

2-Jadval

Kondensatorni razryadlashda olingan natijalar.

Nº	Ampermetr ko'rsatish (bo'lim)				

### Voltmetr usuli

**Kerakli asboblar:** Katta sig'imli kondensator, katta qarshilikli rezistor, elektrostatik voltmetr, doimiy tok manbai, kalit, sekundomer.

Kondensatorni zaryadlash va razryadlashni voltmetr usulida o'rganish uchun quyidagi 2.2 – rasmida keltirilgan sxemani tuzamiz.

### a) Kondensatorni zaryadlash.

Kalitni 1 – holatga ulaymiz. Boshlang'ich holatda, kondensatorda vaqtning  $t = 0$  momentida zaryad  $q = 0$  ga teng bo'ladi. Kalit ulangandan keyin  $R$  qarshilik orqali kondensator  $C$  tok manbaidan zaryadlana boshlaydi. Shuni aytish kerakki, bu usul bilan tajriba o'tkazishda voltmetrning sig'imi sxemadagi sig'imdan juda ham kichik bo'lishi zarur ( $C_V \ll C$ ). Jarayonni kvazistasionar deb hisoblab, bu yopiq zanjir uchun Kirxgofning ikkinchi qoidasini qo'llaymiz:

(2.5)

Yuqoridaqni tenglamani quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$I \cdot R + \frac{1}{C} \cdot q = U_0, \quad \frac{dq}{dt} + \frac{1}{RC} q = \frac{U_0}{C}$$


Bu tenglamani yechib, boshlang'ich shartni qo'llash natijasida kondensatorda to'planayotgan zaryad miqdorining (istalgan  $t$  vaqt momenti uchun) vaqt bo'yicha o'zgarish qonunini topamiz:

$$q(t) = q_0 \left( 1 - e^{-\frac{t}{RC}} \right) \quad (2.6)$$

$u=q/C$  ekanligini nazarga olsak

$$u(t) = u_0 \left( 1 - e^{-\frac{t}{RC}} \right) \quad (2.7)$$

kondensator qopalamalaridagi kuchlanishning o'zgarish qonunini olamiz.



2.2 – rasm.

### 6) Kondensatorni razryadlash.

Kondensatorda zaryadlanish jarayoni tamom bo'lganidan keyin kalitni 1 – holatdan 2 – holatga o'tkazamiz. Boshlang'ich vaziyatda, vaqtning  $t = 0$  momentida qoplamlardagi zaryad miqdori  $q = q_0$  ga teng bo'ladi. Endi kondensator asta – sekin razryadlana boradi.

Razryadlanish jarayonini ham kvazistasionar hisoblab, bu hosil bo'lgan yopiq zanjir uchun Kirxgofning ikkinchi qoidasini qo'llaymiz:

$$U_R + U_C = 0 \quad (2.8)$$

Bu differensial tenglamani yechish natijasida

$$U = U_0 \exp\left(-\frac{1}{RC}t\right) \quad (2.9)$$

kondensator qoplamlari orasidagi potensiallar farqining o'zgarish qonunini olamiz.

(2.7) va (2.9) formulalarda  $\tau = RC$  ( $\tau$  - zanjirning vaqt doimiysi). Agarda R - ni  $\Omega$  ( $M\Omega$ ) va C ni  $F$  ( $\mu F$ ) larda olsak  $\tau$  - ning birligi sekundlarda kelib chiqadi. Bu ifodalardan, agarda  $\tau = t$  desak, tegishligicha  $U = 0,368U_0$  (2.9<sup>1</sup>) ga ega bo'lamiz.

### Tajribaning bajarilish tartibi

1. 2.2-rasmdagi sxemani tuzish va kalitni neytral holatga qo'yish kerak.
2. Kalitni 1-holatga ulaymiz, bu holda voltmetr ko'rsatishi noldan boshlab asta – sekin orta boradi.
3. Voltmetr ko'rsatishi 30 V ga yetgandan so'ng, sekundomerni ishga tushirish kerak. Undan keyin har bir 10 V ga to'g'ri kelgan sekundomerning ko'rsatishi (t) 3 – jadvalga yoziladi.
4. Kalit neytral holatga keltiriladi.
5. Kalit ikkinchi holatga ulanadi, bunda voltmetr ko'rsatishi maksimum (125 V) bo'ladi, keyin u kamaya boshlaydi.
6. Voltmetr ko'rsatishi 120V ga yetgach, sekundomerni ishga tushirib, 4-jadvalga har bir 10V da vaqtini (t) yozib borish zarur.
7. Kalit neytral holatga keltiriladi.
8. Yuqoridagi 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 – amallar uch marta takrorlanib, 3 – va 4 – jadvallar to'ldiriladi.
9. 3 – va 4 – jadvallar uchun U bilan t orasidagi bog'lanish grafiklari ( $30x 35 \text{ sm}^2$  millimetrlar qog'ozga) chizilgandan keyin, grafiklardan  $\tau$  - larni topish kerak.
10. 3 – jadvalning natijalarini (2.7) formulaga asosan va 4 – jadvalning natijalarini (2.9) formulaga asosan va  $y_i=a-bt$  ko'rinishda ifodalab, eng kichik kvadratlar usuli bilan hisoblab  $\tau$  ning qiymatlari topiladi.

11. 3 – va 4 – jadvalda olingen tajriba natijalarini eng kichik kvadratlar usulida aniqlash uchun (2.7) formulani logarifinlab, quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$\ln(u_0 - u(t)) = \ln u_0 - \frac{1}{\tau} \cdot t \quad (2.7^1)$$

Belgilashlar kiritib (2.7<sup>1</sup>) ni quyidagicha ifodalaymiz:

$$y(t) = a - b \cdot t \quad (2.7^2)$$

3 – jadvaldagi qiymatlardan foydalanib (2.7<sup>2</sup>) formuladagi  $a=A$  va  $b=B$  koeffisientlarni topamiz va jadvaldagi  $t$  ning qiymatlari orasidagi sonlarni berib,  $y(t)=f(t)$  bog'lanish grafigini chizamiz (yoki boshqa mm qog'ozga).

Eng kichik kvadratlar usulidan topilgan A va B lardan tegishlichcha  $\tau$  va R (yoki C) qiymatlarini hisoblaymiz. (2.9) formulani logarifmalab

$$\ln u(t) = \ln u_0 - \frac{1}{\tau} \cdot t ; \quad (2.9^1)$$

va bunda  $y(t)=a-bt$  (2.9<sup>2</sup>) ni olamiz. 4 – jadval natijalaridan eng kichik kvadratlar usuli bilan  $a=A$  va  $b=B$  larni va ulardan  $\tau$ , C – larni topamiz.

Shunday qilib, voltmetr usulidagi kondensatorni zaryadlash va razryadlash jarayonidagi  $\tau$  – larni hamma usullar bilan topilgan qiymatlarini va ularning hatoliklarini bir – biri bilan taqoslab ko'ramiz.

### Kondensatorni zaryadlashda olingen natijalar

3-jadval

Nº	Voltmetr ko'rsatish (V)				
1.					
2.					

### Kondensatorni razryadlashda olingen natijalar

4-jadval

Nº	Voltmetr ko'rsatish (V)				
1.					
2.					

## **Nazorat savollari**

1. Kondensator deb nimaga aytildi?
  2. Kondensatorning zaryadlanishida va razryadlanishida zanjirdagi tok vaqt o'tishi bilan qanday o'zgaradi?
  3. Kondensatorning zaryadlanishida va razryadlanishida kuchlanish qanday o'zgaradi?
  4. Zanjir doimiysi nima? Uning fizik mazmuni nimadan iborat?
  5. Kvazistatsionar toklar deb qanday toklarga aytildi?
- Kvazistatsionarlik sharti nima?**
6. Nima uchun kondensator doimiy toklarni o'tkazmaydi?
  7. Nima uchun kondensator zaryadlanish jarayonida undagi tok kamaya boradi?
  8. Nima uchun kondensator zaryadlanish jarayonida undagi kuchlanish orta boradi?
  9. Siljish toki nima? Siljish toki qanday hosil bo'ladi?
  10. Kondensatorda sirqish toki deganda nima tushuniladi? Uni qanday bartaraf qilinadi?
  11. Murakkab kondensatorlar qanday kondensatorlar?
  12. Nima uchun kondensatorlar parallel ulanganda undagi kuchlanishlar bir xil bo'ladi?
  13. Elektrolitik kondensatorning tuzulishi va asosiy xarakteristikalarini tushuntiring.
  14. O'zgarmas va o'zgaruvchan tok zanjirlarida kondensator qanday vazifalarni bajaradi?
  15. O'zgaruvchan tok kondensatorlar yordanmida qanday filtirlanadi?
  16. O'zgaruvchan tokni to'g'irlovchi ko'prik sxemasini tushuntiring.

17. Tajriba natijalaridagi xatoliklar nimalarga bog'liq?
18. Kondensatorning zaryadlanishi va razryadlanishi bo'yicha yana qanday tajribalar o'tkazish mumkin?
19. Kondensatorning zaryadlanishi va razryadlanishini o'rganish qanday ahamiyatga ega?
20. Kondensatorlarning qanday turlari mavjud? Super kondensatorlar nima?

## **Foydalilanigan adabiyotlar**

[1]-6 bob, 73,74 paragraflar. [2]-2 bob, 48 paragraf. [5]-4 bob, 59 paragraf.

## 3 (81) – LABORATORIYA ISHI

### O'ZGARMAS TOK KO'PRIGI YORDAMIDA QARSHILIKLARNI O'LCHASH


**Kerakli asboblar:** reoxord, nol – galvanometer, qarshiliklar magazini, o'zgarmas tok manbai, kalit, uchta qarshiliqi nomalum bo'lgan rezistorlar.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Noma'lum qarshilikli rezistorlarning qarshiligidini aniqlash, rezistorlarni turli xil ulashlardagi umumiy qarshiligidini aniqlab nazariy formula bilan solishtirish.

**Qisqacha nazariya:** O'tkazgich qarshiligini o'lchashning turli usullari mavjud. Shulardan biri – ampermetr va voltmetr usulidir. Bu usul bilan ishlashda shunday sxema tuzish kerakki, unda o'lchanishi kerak bo'lgan rezistordan o'tgan tokni ampermetr yordamida va shu rezistor uchlaridagi potensial tushishlarni voltmetr yordamida o'lchab, zanjirning bir qismi uchun  $\text{Om}$  qonunidan foydalanib o'sha nomalum rezistor qarshiliqi aniqlaymiz. O'tkazgich qarshiligini o'lchashning yana bir oddiy usuli, ko'prik usuli bo'lib, bunda rezistordan o'tgan tok va kuchlanish tushishi o'lchanmaydi va bu usul yuqoridagi usulga qaraganda ancha aniq natijalar beradi. O'zgarmas tok ko'prigi usulini odatda Uitston ko'prigi yordamida qarshiliklarni aniqlash usuli deb ham yuritiladi.

Ko'prik usuli yoki Uitston ko'prigi to'rtta rezistordan tashkil topgan bo'lib, ular yopiq to'rburchak ABCD ni hosil qiladi. Bu to'rburchakning bitta diagonaliga tok manbai, ikkinchi diagonaliga esa asbob - galvanometr ulanadi (3.1 – rasm). 3.1 – rasmdan ko'rindiki, bu sxema murakkabdir. Murakkab tarmoqlangan elektr zanjirlarni hisoblashda odatda zanjirning bir qismi yoki butun zanjir uchun  $\text{Om}$  qonunidan emas, balki Kirxgof qoidalaridan

foydalaniladi. Bu tugunlar va yopiq konturlar uchun bo'lib, tarmoqlangan zanjirlarni hisoblashda eng samarali usullardan biridi.



3.1- rasm.

Kirxgofning birinchi qoidasi tugunlarga tegishli bo'lib, tugunlardagi toklarning algebraik yiing'disi nolga teng deydi. Boshqacha aytganda, tugunlarga keluvchi toklarning yig'indisi undan ketgan toklarning yig'indisiga teng. Har bir tugunda ham kelayotgan, ham ketayotgan toklar bo'lishi shart. Yuqoridagi ta'rifga asosan, tugunlar uchun Kirxgofning 1 – qoidasini ishlatsak quyidagi tenglamalarni hosil qilamiz:

$$\begin{array}{ll} \text{A: } I = I_1 + I_x \\ \text{C: } I_0 + I_2 = I \\ \text{B: } I_x = I_g + I_0 \\ \text{D: } I_1 + I_g = I_2 \end{array} \quad (3.1)$$

Ikkinchi qoida yopiq konturlar uchun bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi: har qanday yopiq konturdagi potentsial tushuвлар yig'indisi o'sha yopiq konturdagi E.Yu.K lar yig'indisiga teng. Potentsial tushish deganda rezistordan o'tgan tokni, o'sha rezistor qarshiligiga ko'paytmasiga aytildi. Potentsial tushishlar va E.Yu.K lar ishorasi quyidagicha tanlanadi. Konturni aylanib chiqishni soat strelkasi harakati bo'yicha olsak, u holda aylanish yo'nalishi tok yo'nalishi bilan bir hil bo'lsa, potensial tushish ishorasi "+" yoziladi., agar teskari bo'lsa, potensial tushish ishorasi "-" yoziladi. E.Yu.K oldidagi ishora esa quyidagicha tanlanadi: konturni aylanib chiqishda manbaning minus klemmasidan plyus klemmasiga o'tilsa ( $-\varepsilon$ ) yoziladi, agar konturni aylanib chiqishda plyus klemmasidan minus klemmasiga o'tilsa ( $+\varepsilon$ ) yoziladi. Agar yopiq konturda E.Yu.K bo'lmasa, u holda tenglikdan keyin nol yoziladi (0). Bu qoidani 3.1 – rasmdagi yopiq konturlar uchun ishlatib, quyidagi tenglamalarni xosil qilamiz:

$$\begin{array}{ll} \text{ABDA: } I_x R_x - I_g R_{\tilde{A}} - I_1 R_1 = 0 \\ \text{BCDB: } I_0 R_0 + I_2 R_2 - I_{\tilde{A}} R_{\tilde{A}} = 0 \\ \text{ABC}\varepsilon\text{A: } I_x R_x + I_0 R_0 - I_r = \varepsilon \end{array} \quad (3.2)$$

Rasmida  $R_x$ -noma'lum qarshilik,  $R_0$ -ma'lum qarshilik bo'lib, uning qiymati qarshiliklar magazinidan tanlab olinadi.

$R_1$  va  $R_2$  ning o'zgarishi natijasida galvanometrdagi tok B dan D tomonga yoki teskarisiga ham oqishi mumkin.  $R_1$  va  $R_2$  larni shunday

tanlab olish kerakki, galvanometrdan tok o'tmasin, ya'ni  $I_g = 0$  bo'lsin. Ko'priq sxemasining bunday xolatiga muvozanat holati deyiladi. Ma'lumki,

$$Ig = \frac{U_B - U_D}{R_g}$$

bundan ko'priq muvozanatligida  $I_g = 0$  bo'lsa, demak,  $\varphi_B = \varphi_D$ . Bundan esa  $\varphi_B = \varphi_D$  ya'ni ko'priq muvozanat xolatdaligida B nuqtaning potensiali D nuqtaning potensialiga teng bo'lishi kerak ekan.  $I_g = 0$  bo'lganda (3.1) va (3.2) tenglamalar quyidagicha yoziladi:

$$I_x = I_0, \quad I_1 = I_2 \quad (3.1^l)$$

$$I_x R_x - I_1 R_1 = 0, \quad I_0 R_0 - I_2 R_2 = 0 \quad (3.2^l)$$

Bu ikki tenglamadan (3.1) ni nazarga olgan holda

$$\frac{R_X}{R_0} = \frac{R_1}{R_2}$$

tenglikni hosil qilamiz, bundan

$$R_X = R_0 \cdot \frac{R_1}{R_2} \quad (3.3)$$

bo'ladi.

Odatda sxemaga nol galvanometr ulanadi.  $R_1$  va  $R_2$  rezistorlarni tanlash natijasida ko'priksi muvozanatga keltirish juda qiyin. Shu sababdan  $R_1$  va  $R_2$  rezistorlarni reoxord bilan almashtiriladi (3.2 – rasm). Reoxord bu lineykaga tortilgan ko'ndalang kesimi bir hil, bir jinsli 1m lik o'tkazgich sim AC bo'lib, shu o'tkazgich bo'ylab sirpanuvchi D kontaktidan iborat. Surilgich yordamida reoxord qarshiligi  $R_1$  va  $R_2$  bo'laklarga bo'linadi. Surilgich D ni AC bo'ylab siljitim natijasida  $R_1$  va  $R_2$  qarshiliklar qiymati o'zgartiriladi.  $R_1$  va  $R_2$  qarshiliklar bir jinsli o'tkazgichdan yasalganligi sababli:

$$R_1 = \rho \cdot \frac{l_1}{S}, \quad R_2 = \frac{l_2}{S}$$

bo'lib, bundan  $\frac{R_1}{R_2} = \frac{l_1}{l_2}$ , ya'ni qarshiliklar nisbati uzunliklar

nisbatiga tengligi kelib chiqadi.

Demak:


$$R_X = R_0 \cdot \frac{l_1}{l_2} \quad (3.4)$$

bo'ladi. Reoxord uzunligi  $AC=l=100$  ta bo'lakka bo'lingan. AC lineyka o'miga 1 metr millimetrali qog'oz qo'yilsa,  $\Delta l=1\text{mm}$  bo'lib,  $l_1$  ni 1mm xatoik bilan aniqlash mumkin. Unda

$$R_X = R_0 \cdot \frac{l_1}{l-l_1} \quad (3.5)$$

bo'ladi.

(3.5) formula - noma'lum qarshilikni reoxordli ko'prikl bilan ko'prikl usulida o'lchashning asosiy tenglamasidir.



3.2 – rasm.

$R_x$  ni o'lchashdagi xatolik  $R_0$  va  $l$  larning xatoliklardan tashkil topadi.  $R_0$  ni o'lchashdagi xatolik qarshiliklar magazininining aniqlik klassidan aniqlanadi. Noma'lum qarshilikni o'lchashdagi nisbiy xatoligini topish uchun (3.5) formulani logarifmlaymiz va undan keyin differensiallab quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \ln R_X &= \ln R_0 + \ln l_1 - \ln(l-l_1) \\ \Delta R_X &= \frac{\Delta R_0}{R_0} + \frac{\Delta l_1}{l_1} + \frac{\Delta l}{l-l_1} + \frac{\Delta l_1}{l_1} \end{aligned} \quad (3.6)$$

oxirgi tenglik uchun umumiyl maxraj  $R_0 \cdot l_1 \cdot (1 - l_1)$  bo'ladi.  $R_x$  ni aniqlashdagi nisbiy xatolik minimal bo'ladi, agar maxraj  $f(l_1)=R_0 \cdot l_1 \cdot (1 - l_1)$  maksimum bo'lsa,  $f(l_1)$  ning maksimumlik sharti  $df(l_1)/dl_1=0$ , bo'lishi kerak, ya'ni tenglik o'rinni. Bu erdan  $l_1=l/2$  kelib chiqadi. Demak,  $R_x$  ni o'lchashda nisbiy xatolik minimal bo'lishi uchun muvozanatlangan ko'prikl reoxord surilgichi  $l_1 = l_2$  vaziyatga muvofiq turishi, ya'ni surilgich reoxordning o'rtasida joylashishi lozim. Shuning uchun ham noma'lum qarshilikni ko'prikl usuli bilan o'lchashda mumkin qadar surgich reoxordning o'rtalariga yaqin

nuqtalarda joylashgan holda, qarshiliklar magazinidan  $R_0$  ni tanlab olib, ko'priq muvozanatga keltiriladi va  $I_1$  va  $I_2$  yozib olinadi.

### O'lchashlar va hisoblashlar:

1. 3.2 – rasmdagidek elektr sxema tuziladi. Sxemadagi  $R_x$  o'rniga qarshiliqi o'lchanishi kerak bo'lgan  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  lardan birini, masalan  $R_1$  ni ulaymiz.

2. Reoxord surgichini (D) taxminan o'rta qismlarga o'rnatib, qarshiliklar magazinidan  $R_0$  ni shunday tanlab olamizki, sxema diagonaliga ulangan galvanometrdan tok o'tmasin, ya'ni galvanometr nolni ko'rsatsin. Galvanometrning bu nol xolati uchun reoxord surgichining (D – ning) chap ( $I_1$ ) va o'ng ( $I_2$ ) holatlari tuzilgan jadvalga yoziladi. Shuni aytish kerakki  $I_1 + I_2 = 100$ ;  $I_2 = 100 - I_1$

3. Qarshiliklar magazinidan boshqa  $R_0$  ni olib, yana surgich D ni o'zgartirib, yana  $I_1$  elka xolatini reoxord millimetrlaridan jadvalga yozib olamiz. Berilgan  $R_1$  noma'lum qarshilik bilan  $R_0$  larni tanlab olib  $I_1$  arni yozishni 3-4 martta takrorlab, jadvalga yozib boramiz. Shuni aytish kerakki, reoxord surgichini holati  $I_1$  50 sm lar tevaragida (boshqacha aytganda 40 – 60 sm oralig'ida) bo'lishini ta'minlash kerak.

4. Sxemaga  $R_1$  ni o'rniga endi  $R_2$  va  $R_3$  larni ulab 2 – va 3 - bandlarni takrorlab jadvalga yozib boramiz.

5. Sxemadagi  $R_x$  o'rniga noma'lum qarshiliklarni,  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  rezistorlarni turli kombinasiyalarda ketma-ket, parallel va aralash ulab, u kombinasiyalar uchun ham  $R_0$  larni qarshilik magazinidan tanlab, reoxord surgichini (D ni) surib, galvanometrni nol xolatga keltirib, 3 – 4 marta  $R_0$  larni berib  $I_1$  larni jadvalga yozib boramiz.

6. Jadvalda yozilgan tajriba natijalariga asosan (3.5) formula yordamida har bir o'lchashlar uchun  $R_x$  lar hisoblanadi.

7. Hisoblangan (3 – 4 martta)  $R_1$  larning qiymatlaridan uning o'rtacha qiymati, o'rtacha kvadratik xatoligi va nisbiy xatoligi hisoblanadi.

8. 7 – band  $R_2$ ,  $R_3$  lar uchun hamda  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  larning turli kombinasiyalari ketma – ket, parallel va aralash ulashlari uchun ham bajariladi.

9.  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  larning o'rtacha qiymatini bilgan holda bu uchlasini turli kombinasiyalarda ketma – ket, parallel va aralash ulashlarni, ularning ulashda umumiy qarshiliklarini hisoblash formulasiga asoslanib, ularni hisoblash kerak. Ushbu usulda (nazariy) olingan natijalarни tajribada chiqarilgan kattaliklar bilan taqqoslash lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Tarmoqlangan zanjirlar. Kirxgof qoidalari va uning isboti.
2. Qarshilik va uning temperaturaga bog'liqligi. Qarshilikning termik koefitsienti
3. Qarshilikning klassik elektron va kvant nazariyasi. Etalon qarshiliklar.
4. Qarshilik termometrlari. Fotoqarshiliklar.
5. Yarimo'tkazgichlar qarshiligi va uning temperaturaga bog'liqligi
6. Kichik, o'cta, katta va o'ta katta qarshiliklar.
7. Muvozanatlasmagan Uitston ko'prigi. Uitston ko'prigining afzalliklari va kamchiliklari.
8. Qarshiliklarni tayyorlanish texnologiyalari, tarkibi va nomlanishi.
9. Qarshiliklarni o'lchsh natijalarini absolut xatoliklarini hisoblash formulalari.
10. Nima uchun Uitston ko'prigida kichik qarshiliklarni o'lchash mumkin emas?
11. Nima uchun Uitston ko'prigida katta qarshiliklarni o'lchash mumkin emas?
11. Qarshiliklarni o'lchashning yana qanday zamonaviy usullarini bilasiz?

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

[1]-6,7 boblar, 57-59 va 70 paragraflar. [3]-4 bob, 14-17 paragraflar. [5]—4 bob, 47-58 paragraflar.

## 4 (57)- LABORATORIYA ISHI

### O'ZGARMAS TOK KO'PRIGI USULIDA GALVANOMYETRNING ICHKI QARSHILIGINI O'LCHASH

**Kerakli asboblar:** Galvanometr, kalit, reostat, qarshiliklar magazini, tok manbai.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Galvanometrning ichki qarshiligini aniqlash va galvanometrning xarakteristikalarini o'rghanish.

**Qisqacha nazariya:** Bu laboratoriya ishida foydalaniладиган Uitston ko'prigining sxemasi 3 – laboratoriya ishida to'liq ko'rib chiqilgan edi. 3 – laboratoriya ishning 3.2 – rasmidagi sxemada galvonometrдан tok o'tmaydi ( $I_g=0$ ). Bunday holda noma'lum qarshilikni topish uchun

$$R_1 = R_o \frac{I_1}{I_2} \quad (4.1)$$

munosabatga ega bo'lган edik.


Shuni yana takror eslatish kerakki, bu formula ko'prik muvozanatda bo'lгandagina o'rnlidir.

Galvanometr ichki qarshiligini o'lchash uchun ushbu laboratoriya ishida o'zgartirilgan ko'prik sxemasidan foydalanamiz. Bu sxema 4.1 – rasmda keltirilgan bo'lib, unda R-reostat tok manbaiga potensiometrik (kuchlanishni bo'lish) ulangan. Agarda reostat surgichini tugun tomonga sursak, ko'prikga berilgan kuchlanish kamayadi – galvanometr ko'rsatishi ham kamayadi.  $R_o$  - qarshiliklar magazini. AC – bir jinsli 100 sm uzunlikdagi simdan iborat bo'lган reoxord shakldagi AB, BC, AD, DC, lar - ko'prik yelkalar. G – ichki qarshiliги o'lchanadigan galvanometr. K - ko'prik muvozanatdami yoki yo'qmi (ulash yoki uzish natijasida) ekanligini ko'rsatadigan kalit. 4.1 - rasmda asosan ko'prik muvozanatda bo'lган hol uchun quyidagi ifoda o'rnlidi bo'ladi:

$$R_g = R_o \frac{I_1}{100 - I_1} \quad (4.2)$$

Ushbu elektr sxemada diogonalda kalit o'rnatilgan. Shu sababdan, ko'prik muvozanatda bo'lsa, kalit joylashgan zanjirning qismidan tok o'tmaydi, natijada kalitni ulasak ham galvanometrning ko'rsatib turgan toki (strelka ko'rsatib turgan raqam soni)

o'zgarmasdan turaveradi. Tanlangan  $R_o$  uchun reoxorddagi bu holat uchun  $I_1$  (yoki  $I_2$ ) ni yozib olish kerak. Galvanometrning sezgirligini oshirish maqsadida uning ko'rsatishi mumkin qadar maksimumga yaqin bo'lsin. Ma'lumki, sxemadagi galvanometr nol galvanometr.



4.1 – rasm.

Noldan ikki tomonga ham bo'limlar 20 gacha, shuning uchun tok galvanometr strelkasini 15 – 18 bo'limlarni ko'rsatguncha tanlab olish kerak. Bunday tanlovni potensiometrik ulangan reostat surgichining vaziyatini o'zgartirish yordamida sodir etiladi.

Shuni aytish kerakki, sxemadagi  $R_g$  va  $R_o$  lar qiymatlari qarab galvanometrdagi tok yo'nalishi teskarisiga ham o'zgarishi mumkin, ya'ni galvanometr strelkasi o'zining holatidan o'ngga yoki chapga ham og'ishi mumkin. Istalgan holatda bo'lismiga qaramasdan uning sezgirligini oshirish uchun 15 – 18 bo'limgacha tokni tanlab olib, ko'priq muvozanat holatini topib, reoxord surgichi holatlarini yozib olish zarur. Yana qarshiliklar magazinidan  $R_o$  ni tanlab, reoxord surgichini o'zgartirib, yana muvozanat holatini topamiz. Bu tanlangan va topilgan qiymatlarni 1-jadvalga kiritamiz.

1-jadval

$\text{№}$	$R_o(\Omega)$	(cm)	(cm)
1.			
2.			

Galvanometrning ichki qarshiligidagi o'lchashdagi xatoliklar kam bo'lishi uchun qarshiliklar magazinidagi  $R_o$  – larni shunday tanlab olish kerakki, reoxord surgichi mumkin qadar reoxord o'rtalarida (yarmida) bo'lsin.

### **O'lchashlar va hisoblashlar:**

1. 4.1 – rasmdagi sxema tuziladi. Sxemani tok manbaiga ulashdan oldin reostat surgichini tugun tomonga keltiriladi.
2. Reoxord surgichini uning o'ttalariga qo'yiladi.
3. Diognaldagi  $K_2$ -kalit ulangan bo'ladi va qarshiliklar magazinidan  $R_o$  -qarshilik tanlab olinadi. Galvanometr ko'rsatishini 15 – 18 bo'limlarga kelguncha reoxord surgichini asta - sekin C tugun tomonga kerakli bo'limgacha suramiz. Endi qarshiliklar magazinidan shunday  $R_o$  qiymatni tanlab olamizki,  $K_2$  - kalitni uzganda va yana ulaganda galvanometr ko'rsatishi (tanlab olgan 15 – 18 oraliqda) o'zgarmasini. Agarda ko'p o'zgarsa  $R_o$  -ni o'zgartirish, agarda juda kam o'zgarsa, reoxord surgichini o'zgartirish kerak. Bu hol uchun  $R_o$ ,  $I_1$ , lar 1-jadvalga kiritiladi.
4. Qarshiliklar magazinidan yana  $R_o$ -lar tanlab olinadi va yana ko'prik muvoznatlashtirib, berilgan  $R_o$ -lar va olingan reoxord yelkalarining uzunliklari jadvalga kiritiladi.
5. Jadvalga kiritilgan o'lchash natijalarini (4.2) formulaga qo'yib, galvanometr ichki qarshiliklari (jadvaldagi har bir natijalar uchun), ularning o'ttacha qiymatlari va xatoliklari hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Galvanometrlar, turlari va ishslash prinsiplari.
2. Galvanometr ichki qarshiliqi va sezgirligi. Kritik qarshilik.
3. Ballistik galvanometer tuzulishi va ishslash prinsiplari.
4. Nima sababdan galvanometrlar ichki qarshiligini aniqlash kerak?
5. Elektr ish zanjirida o'zgaruvchan tokdan foydalansa bo'ladimi?
6. Galvanometr sezgirligi nimalarga bog'liq?
7. Galvanometrlarni har doim shuntlash zarurmi?
8. Galvanometrlar ichki qarshiligini aniqlashning yana qanday usullari mavjud?
9. Qanday hollarda nol galvanometrdan foydalansa bo'ladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]-7 bob, 68-71 §§. [3]-bob, 31-36 §§. [4]-4 bob, 14-17 §§. [5]-4 bob, 47-58 §§.

## 5 (56) - LABORATORIYA ISHI

### MISNING ELEKTROKIMYOVIY EKVIVALENTINI ANIQLASH

**Kerakli asboblar:** Elektrolit uchun vanna, mis kuporosining suvdagi eritmasi, ikkita mis plastinkalar, ampermetr, reostat, kalit, o'zgarmas tok manbai, sekundomer.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Elektroliz qonunlarini o'rghanish, misning elektrokimyoviy ekvivalentini, Faradey sonini, misning valentligini va elektronning zaryadini aniqlash.


**Qisqacha nazariya:** Elektr otkazgichlar ikki turga bo'linadi: bиринчи va ikkinchi tur o'tkazgichlar. Brinchi tur o'tkazgichlarga metallar va yarimo'tkazgichlar kiradi.

Ikkinci turdagi o'tkazgichlarga elektrolitlar kiradi. Elektrolitlar deb atomlari yoki molekulalari qarama – qarshi ionlardan (musbat va manfiy atom yoki molekula) tuzilgan bo'lib, ular bir – birlari bilan Kulon kuchlari ta'sirida tutib tura oladigan eritmalarga aytildi. Elektrolitlarga kislotalar ( $HCl$ ,  $HNO_3$ ,  $H_2SO_4$ , ...), ishqorlar ( $NaOH$ ,  $KOH$ ,  $NH_4OH$ , ...) va tuzlar ( $NaCl$ ,  $CuSO_4$ ,  $NH_4Cl$ , ...) ning suvdagi eritmalarini kiradi.

Birinchi tur o'tkazgichlarda tok erkin elektronlarning harakatidan vujudga keladi, elektrolitda ionlarning tashqi elektr maydon ta'sirida harakati elektr tokini hosil qiladi.

Aytaylik C idishga (5.1 – rasm)  $CuSO_4$  mis kuporosining eritmasi quylgan va unga ikkita – K hamda A mis elektrodlar tushirilgan bo'lsin. B batareyaning manfiy qutbi K elektrodga, musbat qutbi A elektrodga ulangan. Bunda elektrodlar zaryadlanib qoladi va ular orasida eritmada elektr maydon hosil bo'ladi. Mis kuperisi molekulalarining dissotsiyatsiyalanishidan hosil bo'lgan ionlar bu maydon ta'sirida harakat qila boshlaydi, eritmadan tok o'tadi bunday jarayonga elektroliz deyiladi. Musbat zaryadli ionlar K katodga keladi, unga o'z zaryadlarini berib, katodda neytrallangan zarra holida ajraladi. Manfiy ionlar A anodga qarab harakat qila boshlaydi va unda ajraladi. Mis kuperosi eritmasi orqali biror vaqt davomida tok o'tkazib katodning sirtida qizg'ish metall mis qoplami o'tirayotganini osongina kuzatish mumkin. Bundan eritmada mis musbat ionlar ko'rinishida bo'lganiga ishonish mumkin.

Dissotsiatsiyalangan  $\text{CuSO}_4$  molekulasining qolgan qismi, ya’ni  $\text{SO}_4^{2-}$  guruh manfiy ionlar hosil qilishi kerak. Shunday qilib, mis kuperosi molekulalari eriyotganda misning musbat ionlariga va  $\text{SO}_4^{2-}$  manfiy ionlarga dissotsiatsiyalaniadi, degan natijaga kelemiz va uni quyidagicha yozamiz:



$++$  va  $--$  qo’sh ishoralar mazkur holda ionlarning ikki zaryadli ekanini, ya’ni mos ravishda ikkita elektron yo’qotishi yoki ikkita ortiqcha elektron qo’shib olishi natijasida hosil bo’lganini bildiradi.

Misning  $\text{Cu}^{++}$  musbat ionlari katodga keladi va u yerda mis atomlari sifatida ajraladi.  $\text{SO}_4^{2-}$  manfiy ionlar anodga keladi. Agar anod mis bo’lsa,  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlar anodda neytrallanib, u bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi va qaytadan mis kuperosi molekulasini hosil qiladi:



Bunda  $e^-$  – anodga o’tgan elektronni bildiradi. Hosil bo’lgan mis kuperosi molekulalari yana eritmaga o’tadi. Natijada mis kuperosining eritmadiagi miqdori o’zgarmay qoladi; katodda mis ajralib chiqadi, anodning misi  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, eritmaga o’tadi.

Bu misol xarakterlidir: u bir tomondan elektrolitning o’tkazuvchanligi erigan modda molekulalarining dissotsiatsiyalangan ionlari harakatiga bog’liqligini ko’rsatadi, ikkinchi tomondan, erigan moddaning tarkibiy qismlari elektrodlarda hamma vaqt ham ajrala bermasligini ko’rsatadi. Elektrolizning pirovard natijasi ionlar ajraladigan joylarda bo’ladigan kimyoviy reaksiyalarga bog’liqdir. Bu reaksiyalar ikkilamchi reaksiyalar deyiladi, ularni hisobga olmasdan turib elektrolitik dissotsiatsiya jarayonini to’g’ri o’rganib bo’lmaydi. Ma’lumki, ikkilamchi reaksiyalarning xarakteri faqat eritma tabiatigagina emas, elektrodlarning materialiga ham bog’liq bo’ladi.

Birgina eritma elektrolizining natijalari qanday elektrod tanlanishiga qarab turlicha bo’lishi mumkin. Misol tariqasida  $\text{H}_2\text{SO}_4$  sulfat kislotaning suvdagi eritmasi elektrolizi bilan tanishaylik. Sulfat kislotasi molekulalari  $\text{H}^+$  musbat vodorod ionlariga va  $\text{SO}_4^{2-}$  manfiy ionlarga dissotsiatsiyalaniadi, shu bilan birga,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  molekulaning dissotsiatsiyalishida ikkita vodorod ioni hamda zaryadining son

qiymati har bir vodorod ionining zaryadidan ikki marta katta bo'lgan bitta  $SO_4^{2-}$  ion hosil bo'ladi; buni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

Dastlab, sulfat kislota eritmasiga qo'rg'oshin elektrodlar tushirilgan, deylik. U holda katod vazifasini bajarayotgan elektrotda gazsimon vodorod ajralib chiqadi. Anodda esa  $SO_4^{2-}$  ion ajrala boshlab, anod materiali bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi va qo'rg'oshin sulfat hosil qiladi:

Eritmadagi sulfat kislotaning miqdori kamaya boradi, elektroliz natijasida sulfat kislotaning parchalanishi ro'y beradi.


Endi xuddi shu sulfat kislota eritmasini platina elektrodlar bilan elektroliz qilaylik. Bu holda katodda avvalgidek gazsimon vodorod ajralib chiqadi. Anodda ajralgan  $SO_4^{2-}$  ion esa platina bilan reaksiyaga kirishmay, suv bilan reaksiyaga kirishadi; bu reaksiya quyidagi ko'rinishda boradi:

ya'ni qaytadan sulfat kislota hosil bo'ladi, anodda esa gazsimon vodorod ajralib chiqadi. Natija quyidagicha boladi: eritmada sulfat kislota miqdori o'zgarmaydi; elektrodlarda gazsimon vodorod va kislorod ajraladi, shu bilan birga, anodda ajralgan har bir kislorod atomiga katodda ikkita vodorod atomi ajralishi to'g'ri keladi, ya'ni bitta kislotaning elektrolizi bilan bir vaqtda bo'ladigan ikkilamchi reaksiyalar natijasida suv parchalanadi, sulfat kislota esa qayta tiklanadi.

Bu va bundan boshqa elektroliz hodisalarning analizi ko'rsatishicha metallar va vodorod hamma vaqt musbat ionlar hosil qiladi, bu ionlarni odatda kationlar deb yuritiladi. Molekulalarning qolgan qismlari manfiy ionlar (anionlar) hosil qiladi.

Misning elektrokimyoviy ekvivalentini aniqlashdan maqsad uning kimyoviy ekvivalentini, Faradey sonini, elektronning zaryadini, misning valentligini va boshqalarini aniqlashdan iborat bo'lib, uning sxemasi 5.1 – rasmida keltirilgan. 5.1 – rasmdagi K kalitni ulasak plastinkalar tok manbaining musbat va manfiy ishoralariga ega bo'ladi, natijada elektrolitda dissosiasiyalangan musbat ionlar ( $Cu^{2+}$ ) katodga, manfiy ionlar ( $SO_4^{2-}$ ) anod tomonga harakatga keladi.

Katodga kelgan  $\text{Cu}^{++}$  mis ionlari (kationlar) katodga kelib zaryadsizlanadi va hosil bo'lgan Cu katodga o'tiradi, natijada katodning massasi ortadi. Anodga esa  $\text{SO}_4^-$  qoldiq kislota ionlari (anionlar) kelishi natijasida mis ionlari eritmaga o'tadi va anod massasi kamayadi. Buning natijasida eritma konsentrasiyasi (eritmadagi mis konsentrasiyasi) tajriba davomida o'zgarmaydi. Shunday qilib eritmadan katodga qancha mis o'tirsa, anoddan eritmaga shuncha mis o'tadi.



5.1 – rasm.

Elektroliz hodisasini 1836 yillarda ingliz fizigi Faradey mufassal o'rgandi va quyidagi ikkita qonunni kashf etdi:

**Faradey I – qonuni:** Elektrodda (katodda) ajralib chiqqan modda miqdori elektrolit orqali o'tgan zaryad miqdoriga proporsionaldir.

$$m = k \cdot q \quad (5.1)$$

bu erda  $q = I \cdot t$  – ionlarning zanjirdan  $I$  tok o'tishi natijasida  $t$  vaqt ichida olib o'tgan zaryad miqdori,  $m$  – katodda ajralgan modda miqdori,  $k$  – moddaning (qaralayotgan holda misning) elektrokimyoviy ekvivalenti. Yuqoridagilarni hisobga olib, (5.1) ifodani qayta yozamiz:

$$m = k \cdot I \cdot t \quad (5.2)$$

**Faradey II – qonuni:** Barcha moddalarning elektrokimyoviy ekvivalenti ularning kimyoviy ekvivalentiga proporsionaldir.

$$k \sim \frac{M}{Z}; \quad k = \frac{1}{F} \cdot \frac{M}{Z}; \quad (5.3)$$

$M$  – moddaning molekulyar massasi,  $Z$  - misning valentligi,  $F$  - Faradey soni,  $\frac{M}{Z}$  - moddaning kimyoviy ekvivalenti.

(5.1) va (5.3) formulalardan Faradeyning birlashgan qonuni kelib chiqadi, ya'ni:

$$- - \quad (5.4)$$

Bu formuladan ko'rindiki, agar  $q$  – zaryad son jihatdan  $F$  ga teng bo'lsa, u holda  $m$  – massa son jihatdan  $\frac{M}{Z}$  ga teng bo'ladi.

Demak, elektrodlarda kimyoviy ekvivalentga son jihatdan teng bo'lgan modda massasi ajralib chiqishi uchun elektrolitdan Faradey soniga teng miqdorda zaryad o'tishi kerak ekan.

Katodda ajralib chiqqan moddaning miqdori ionlar soniga proporsional, ya'ni:

$$m = m_i \cdot N_i \quad (5.5)$$

$m_i$  – bitta ionning massasi,  $N_i$  – elektroliz vaqtida o'tgan ionlar soni. Ion deganda bitta yoki bir necha elektronlarni yo'qotgan musbat ion yoki olgan (manfiy ion) atom yoki molekulalar tushiniladi. Bunga asosan bitta ionning massasi va zaryadi

$$m = \frac{M}{N_A}; \quad q_i = e \cdot Z \quad (5.6)$$

ga teng bo'ladi, bu yerda  $N_A$  – Avogadro soni,  $e$  – elektronning zaryadi,  $Z$  – misning valentligi,  $q_i$  – mis ionining zaryadi.

Agarda elektroliz davomida ( $t$  – vaqtida) hamma o'tgan zaryad miqdorini deb hisoblasak, u holda katodga o'tgan ionlar soni

$$N_i = \frac{q}{q_i} \quad (5.7)$$

Shunday qilib elektroliz vaqtida ( $t$  – vaqtida) katodda ajralgan modda miqdori

$$m = \frac{M}{N_A} \cdot \frac{1}{e \cdot Z} \cdot q = k \cdot q \quad (5.8)$$

ga teng bo'ladi. (5.3) va (5.8) formulalardan Faradey soni uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$F = eN_A \quad (5.9)$$

### O'lchashlar va natijalarni tahlil qilish:

1. 5.2 – rasmdagi elektr sxema tuziladi. Katodni aniqlab olish kerak. Kalitni ulab reostat surgichini surib, ampermetrdagi tokni 0,45 A ga keltirish kerak.

2. 1 – banddagisi ishlari bajarilgandan keyin, kalit uziladi va katod plastinka vannadan chiqariladi, quritiladi keyin esa tarozida tortiladi. Katodning bu o'lchangan qiymati yozib olinadi ( $m_0$  ).

3. Tortilgan va massasi aniqlangan katod yana vannaga joylashtirilgach, kalitni ulaymiz va bir vaqtida sekundomerni ishga tushiramiz. Ish davomida tokni doimiy saqlash kerak. 45 minut o'tgach kalitni uzamiz. Katodni vannadan chiqarib yuvamiz, quritamiz va yana tarozida tortamiz ( $m_1$ ),  $\Delta m_1 = m_1 - m_0$ ,  $t = 45$  minutda katodda ajralgan misning massasini beradi.

4. Shu tariqa tajribani yana ikki marta takrorlab, olinganlarni birinchi jadvalga kiritamiz.

1-jadval.

Nº	$m(i)$ , (mg)	$t(i)$ , sek
1		
2		
3		

5. Har bir tajriba davomida ( $t = 45$ ) minutda katodda ajralgan (o'tgan) misning miqdorini topamiz va (5.2) formulaga binoan elektrokimiyoviy ekvivalentni hisoblaymiz.

6. Avogadro sonini ( $N_A$ ), moddaning molekulyar massasini ( $M$ ) tegishli jadvallardan aniqlab, qolgan kattaliklar  $Z$ ,  $q_i$ ,  $q$ ,  $e$ ,  $F$  lar hisoblanadi.

### Nazorat savollari

1. Faradeyning 1 – qonunini ta'riflang va isbotini keltiring.
2. Faradeyning 2 – qonunini ta'riflang va isbotini keltiring.
3. Faradeyning umumlashgan qonunini tushuntiring.
4. Galvanoplastina va galvanostegiya nima?
5. Faradey doimiy sining fizik ma'nosini tushuntiring.
6. Elektrolitik dissotsiatsiya hodisasini tushuntiring.
7. Ionlarning harakatchanligi va elektrodlarning elektr o'tkazuvchanligini tushuntiring.

### Foydalanilgan adabiyotlar

[1]-18 bob, 189-193- §§.. [2]-6 bob, 92-96- §§.. [5]-5 bob, 64-69- §§.

## 6 (82) - LABORATORIYA ISHI

### TAQASIMON MAGNIT MAYDONIDA TOKLI O'TKAZGICHGA TA'SIR ETUVCHI KUCHNI O'LHASH

**Kerakli asbob va uskunalar:** Taqasimon magnit, kuch sensori, o'tkazgich halqalar to'plami, o'tkazgich halqalarlar uchun taglik, elektron dinamometr, ko'p simli ulash kabeli, yuqori energiyali manba, kichik shtativ (V – shaklida), shtativ tayoqchasi, Leybold ko'ptutgich, ko'ndalang kesimi  $2.5 \text{ mm}^2$  bo'lgan ulash kabellari.

#### Laboratoriya ishining maqsadi:

Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni tok kuchining funksiyasi sifatida o'lhash.

Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni o'kazgich uzunligi funksiyasi sifatida o'lhash.

Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni magnit maydoni va tok yo'nalishi o'rtasidagi burchakning funksiyasi sifatida o'lhash.

Magnit maydonini hisoblash.

**Qisqacha nazariya:** Magnit maydon induksiysi vektori, yoki soddarroq qilib aytganda magnit induksiya  $\vec{B}$  vektor kattalik hisoblanadi. B magnit maydonida  $\vartheta$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $q$  zaryadga tezlikning kattaligi va yo'nalishidan hamda magnit maydoni kuchlanganligidan va yo'nalishidan bog'liq bo'lgan kuch ta'sir etadi. Bu kuchni topish uchun quyidagi munosabatdan foydalilanadi:

$$q[\vec{v}\vec{B}] \quad (6.1)$$


Lorents kuchi deb ataluvchi bu kuch ham vektor kattalik bo'lib u va  $\vec{B}$  lar bilan aniqlanadigan tekislikka perpendikulyar ravishda tasir etadi.

Tokli o'tkazgichga magnit maydonida ta'sir etayotgan kuchni tokni hosil qiluvchi va shu maydonda harakatlanayotgan individual zaryad tashuvchilarga ta'sir etuvchi kuch tashkil etuvchilarining yig'indisi deb tushunish mumkin. (6.1) tenglamaga asosan Lorents kuchi  $\vec{v}$  dreif tezlik bilan harakatlanayotgan har bir individual  $q$  zaryadga ta'sir etadi (6.1 – rasm). To'g'ri o'tkazgich uchun bu umumiy kuch:

$$l[\vec{v}\vec{B}] \quad (6.2)$$

Bu yerda  $n$  – zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi,  $S$  – o’tkazgich kondalang kesim yuzasi,  $l$  – o’tkazgichning magnit maydonida joylashgan qismining uzunligi.

Umumiy holda o’tkazgich kesimining yo’nalishini ko’rsatuvchi  $\vec{l}$  vektorni kiritish qulay hisoblanadi. Bundan tashqari  $q$  ko’paytma  $I$  tok kuchiga teng. Shunday qilib magnit maydonining tokli o’tkazgich segmentiga ta’sir etuvchi kuchi quyidagi tenglamadan topiladi:



6.1 – rasm.

$$I \cdot [\vec{l} \vec{B}] \quad (6.3)$$

Bu kuchning absolyut qiymati esa quyidagi tenglamadan topiladi:

$$F = I \cdot l \cdot B \cdot \sin\alpha \quad (6.3^1)$$

bu yerda  $\alpha$  – magnit maydoni va tok kuchi yo’nalishi orasidagi burchak.

### Tajriba qurilmasi va ishni bajarish tartibi

Bu tajribada 10 A gacha tok o’tkazadigan to’g’ri to’rt burchak shaklidagi otkazgich halqa taqasimon magitning gorizontal maydoniga joylashtiriladi. Otkazgichning gorizontal qismiga ta’sir etuvchi kuch o’lchanadi. Otkazgichning ikki vertikal qismiga ta’sir etuvchi kuchlar o’zaro kompensatsiyalanadi.


O'tkazgich halqa kuch sensoriga ulanadi. U egilgan qismga ega bo'lib unga o'lhash asbobiga biriktiriladi. Bu elementlarning elektr qarshiligi o'zgartirilishi mumkin. Qarshilikdagi o'zgarish hosil bo'ladigan kuchga to'g'ri proportional. Unga ulangan dinamometr qarshilikdagi o'zgarishni o'lchaydi va unga mos kuchni ko'rsatadi.

#### 6.2 – rasmida ko'rsatilgandek qurilmani yig'ing.

Qisqa tutashuv bo'lmasligi uchun o'tkazgich halqa uchun taglik kabelining izolyatsiyalanmagan qismi tegib qolmasligiga ishonch hosil qiling.

Dinamometr o'lhash diapozonining kalitini 2000 ga o'mating.

Tajribalar faqatgina tor qismga ega bo'lмаган o'tkazgich halqalardan foydalanim o'tkaziladi. Tokni o'matishning eng oson yo'li tokni nazorat qilish tugmasi (b) dan foydalanim bajarilishi mumkin. Kuchlanishni nazorat qilish tugmasi (a) hamma vaqt o'ng tarafga burligan holda turadi.



6.2 – rasm. Magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni o'lhash qurilmasi.

**Eslatmalar:** O'lchanayotgan kattalikning qiymati juda kichik bo'lganligi sababli o'lhashlarga tashqi ta'sirlar oson xalaqit berishi mumkin. Atrofdagi temperaturaning o'zgarishidan, siljishlardan va taqillashlardan saqlaning.

Dinamometr tajribalarning boshlanishidan kamida 15 minut qizdirilishi lozim. Dinamometrn ulanga kuch sensori bilan qurilma orqa tarafidagi asisiy kalit yordamida qo'shing. 20 A tokni o'tkazgich

halqadan va ta'minlash manbaidan faqat qisqa muddat (bir necha minut) o'tkazish mumkin.

Taqasimon magnitning magnit maydoni bir jinsli emas. Barcha tajribalar uchun o'tkazgich halqani taqasimon magnit qo'llari o'rtasida shunday joylashtiringki, magnit maydonining ta'siri imkonli boricha bir jinsli bo'lzin.

**a) O'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchning tok funksiyasi (*I*) sifatida o'lchashlar:**

Dastlab kengligi 8 sm bo'lgan o'tkazgich halqani kuch sensoriga ulang.

Tokni nazorat qilish (b) tugmasini hamma vaqt chap tarafga burilgan holda va kuchlanishni nazorat qilish tugmasi (a) ni hamma vaqt o'ng tarafga burilgan holda o'rnatning. Keyin yuqori tok manbaini qo'shing.

Dinamometrning nol nuqtasini kompensatsiyalash uchun SET pozitsiyasida COMPENSATION kalitini (c) tanlang.

Tokni nazorat qilish tugmasi (b) yordamida tokni 2 A qadam bilan 10 A gacha oshiring. Tokning har bir qiymati uchun dinamometrdan kuchni yozib oling va bu qiymatlarni tajriba daftaringizga jadval tuzib yozib oling.

Tok kuchini  $I = 0$  A ga o'rnatning va kuchning nol nuqtasini tekshiring.

**b) O'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchning o'tkazgich uzunligi funksiyasi  $F(l)$  sifatida o'lchashlar:**

Dastlab kengligi 4 cm bo'lgan o'tkazgich halqani kuch sensoriga ulang.

Dinamometrning nol nuqtasini kompensatsiyalash uchun SET pozitsiyasida COMPENSATION kalitini (c) tanlang.


Tok kuchini  $I = 6$  A satnga o'rnatning, Tokning bu qiymati uchun dinamometrdan kuchni yozib oling va bu qiymatlarni tajriba daftaringizga yozing.

Tok kuchini  $I = 0$  A ga ornating va kuchning nol nuqtasini tekshiring.

Tajribani 1 cm, 2 cm, 8 cmlig' o'tkazgich halqlar uchun takrorlang.

**c) O'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchning induksiya vektori va tokning yo'naliishlari orasidagi burchak funksiyasi sifatidagi o'lchashlar:**

Tavsiya: magnit maydonining bir jinslimasligini kompensatsiyalash uchun va xususiy aylanish burchagini o'rnatish uchun moslama yasang (6.3 – rasmga qarang).



6.3 – rasm. Taqasimon magnitni kerakli holda joylashtirish uchun moslamadan foydalanish.

Bu moslama taqasimon magnitni kerakli holda joylashtirishni osonlashtiradi va aniqlashtiradi.

Tokni nazorat qilish tugmasini chap tarafga buring va 4 cm kenglikdagi o'tkazgich halqani kuch sensoriga ulang.

Moslamani o'tkazgich halqaning atrofiga shunday joylashtiringki, moslamaning markazi o'tkazgich halqaning gorizontal qismining o'rjasiga joylashsin va moslama chiziqlaridan biri o'tkazgich gorizontal qismiga parallel bo'lsin.

Taqasimon magnitni shunday joylashtiringki, magnit maydon va o'tkazgich gorizontal qismi parallel bo'lsin.

Dinamometrning nol nuqtasini kompensatsiyalash uchun SET pozitsiyasida COMPENSATION kalitini (c) tanlang.

Tok kuchi sathini  $I = 6 \text{ A}$  qilib o'rnating.

Magnitni  $30^\circ$  burchakli qadam bilan  $360^\circ$  gacha buring va har bir burchak uchun dinamometrdan kuchni yozib oling.

Tok kuchini  $I = 0 \text{ A}$  ga o'mating va kuchning nol nuqtasini tekshiring.

Yuqoridagi o'lchashlardan olingan natijalar asosida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchning barcha parametrlarga bog'liqlik grafiklarini millimetrali qog'ozda chizing va tahlil qiling.

O'lchashlardan olingan natijalar asosida taqasimom doimiy magnitning magnit maydonining induksiya vektorini (6.3<sup>1</sup>) – formulaga asosan hisoblang va tahlil qiling.

### **Nazorat savollari**

1. Magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuch. Amper kuchi.
2. Parallel toklarning o'zaro magnit ta'siri.
3. Chap qo'l qoidasini tushuntiring.
4. Parallel bo'limgan toklarning o'zaro magnit ta'sirini tushuntiring.
5. Magnit o'zaro ta'sirlarini qanday yo'qotish mumkin.
6. Magnit maydon kuchlanganligi 1 A/m ni fizik ma'nosini tushuntiring.
7. Magnit maydonida joylashgan tokli kontur. Magnit momenti.
8. Magnit maydonida o'zgaruvchan tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuch.
9. Tokli konturni magnit maydonida ko'chirishda bajarilgan ish.
10. Taqasimon magnit shakli boshqa shaklga o'tkazilsa, tajriba natijalariga qanday ta'sir etadi?
11. Bir jinsli bo'limgan magnit maydonida tokli konturga ta'sir etuvchi kuch.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]-8 bob, 75 - 89- §§.. [2]-6 bob, 92-96- §§.. [5]-5 bob, 64-69- §§.

## 7 (83) - LABORATORIYA ISHI

### TOKLI TO'G'RI O'TKAZGICH VA AYLANMA HALQANING MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH

**Kerakli asbob va uskunalar:** O'tkazgichlar to'plami, teslametr, aksial B – proba, tangensial B – probe, ko'p o'zakli kabel, yuqori energiyali manba, kichik optik stol, shtepsel elementlari tutgichi, leybold ko'ptutgich, shtativ(V – shaklda), ikki yo'lli adapterlar to'plami, ulash simlari.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** To'g'ri o'tkazgich va aylanma halqaning magnit maydonining induksiyasini tok kuchining funksiyasi sifatida o'lchash;


To'g'ri o'tkazgich magnit maydonining induksiyasini o'tkazgich o'qidan hisoblanadigan masofaning funksiyasi sifatida o'lchash;

Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgich magnit maydonining induksiyasini halqa radiusining funksiyasi sifatida va halqa o'qidagi nuqtadan halqa markazigacha masofaning funksiyasi sifatida o'lchash.

**Qisqacha nazariya:** Bio – Savar – Laplas qonuniga asosan  $I$  tok o'tayotgan o'tkazgich atrofidagi  $P$  nuqtadagi magnit maydoni o'tkazgichning cheksiz kichik qismalarining magnit maydonlarining ulushlarining yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$\vec{B} = \dots - \quad (7.1)$$

O'tkazgichning uzunligi va yo'nalishi  $d\vec{s}$  vektor yordamida ifodalanadi. O'tkazgichning kichik qismidan  $P$  nuqtaga o'tkazilgan radius vektor  $\vec{r}$  orqali berilgan (7.1 – rasmga qarang).




7.1 – rasm.

Shuning uchun umumiyl magnit maydon integral hisob yordamida aniqlanadi. Bu holda analitik yechim faqat ma'lum simmetriyaga ega bo'lgan o'tkazgichlar uchun hisoblanishi mumkin bo'ladi. Masalan cheksiz uzun o'tkazgichning magnit maydoni o'tkazgich o'qidan  $r$  masofada quyidagi teng bo'ladi:

$$B = \frac{\mu_0}{4\pi} \cdot I \cdot \frac{r^2}{r^2} \quad (7.2)$$

Maydon kuch chiziqlari silindr o'qi atrofida konsentrik shaklda bo'ladi. (7.2 – rasmiga qarang)




7.2 – rasm.

Radiusi  $R$  bo'gan aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning aylana o'qi ustida halqa markazidan  $x$  masofadagi nuqtaning magnit maydoni quyidagicha:

$$B = \frac{\mu_0}{4\pi} \cdot I \cdot 2\pi \cdot \frac{R^2}{(R^2+x^2)^{\frac{3}{2}}} \quad (7.3)$$

Uning maydon kuch chiziqlari aylana o'qiga parallel bo'ladi (7.3 – rasmiga qarang).




7.3 – rasm. Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydoni

## Tajriba qurilmasi va ishning bajarish tartibi

a) To'g'ri o'tkazgichning magnit maydoni. Bu tajribada yuqorida qayd etilgan o'tkazgichlarning magnit maydoni mos ravishda aksial yoki tangensial  $B$  – probe metodi yordamida o'lchanadi.  $B$  – probening Xoll datchigi yupqa plastinka shaklida bo'lib, u magnit maydonining o'z yuzasiga perpendikulyar bo'lgan komponentalariga sezgir bo'ladi. Shuning uchun magnit maydoni kuchlanganligining nafaqat qiymatini balki uning yo'nalishini ham aniqlash mumkin. To'g'ri o'tkazgich uchun magnit maydon induksiyasi  $B$  ning  $r$  masofadan bog'liqligi o'rghaniladi, aylanma shakldagi otkazgich uchun esa fazoviy koordinata  $x$  dan bog'liqligi o'rghaniladi. Bundan tashqari, magnit maydon induksiyasi  $B$  va tok kuchi  $I$  o'rtasidagi proportsionallik ham tekshirib ko'rildi.

Tajriba qurilmasi 7.4 – rasmda tasvirlangan.



7.4 – rasm. To'g'ri o'tkazgichning magnit maydonini o'lchash uchun tajriba qurilmasi.

1. Kichik optik qurilmani shtativga o'mating va uni gorizontall holatda joylashtiring.
2. (a) shtepsel uchun tutgichni Leyboldga mahkamlang.
3. To'g'ri o'tkazgich uchun tutgichni mahkamlang, to'g'ri o'tkazgichni unga o'mating va katta tokli manbaga ulang.
4. Tangensial  $B$  – probeni teslametrga ulang va teslametrni nolini o'mating (teslametr uchun ko'rsatmalarga qarang).

5. Tangensial B – probening chap uchini Leyboldga shkalada 50.0 cm belgiga va to'g'ri o'tkazgich o'rtasining balandligiga to'g'irlab o'rnatning.

6. To'g'ri o'tkazgichni Xoll datchigi tomon deyarli unga tegadigan darajada yaqin qilib o'rnatning ( $l = 0$  bo'lzin).

7. Tok kuchi I ni har 2 A qiymatga 0 A dan, 10 A gacha oshiring. Har safar B magnit maydonini o'lchang, qiymatini yozib oling.

8. I = 10 A ga B – probeni unga tomon qadam – ba qadam siljiting, B magnit maydonini masofaning funksiyasi sifatida o'lchang va qiymatlarini yozib oling.

9. Olingen natijalar bo'yicha tokli to'g'ri o'tkazgich magnit maydonining induksiyasini o'tkazgich o'qidan hisoblanadigan masofaga bog'liqlik grafigini chizib tahlil qiling.


**b) Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydoni.**

Tajriba qurilmasi 7.5 – rasmida tasvirlangan.

1. To'g'ri o'tkazgich uchun tutgichni o'tkazgich halqa uchun adapter bilan almashtiring va unga diametric 40 mm bo'lgan o'tkazgich halqani biriktiring.

2. Otkazgich halqani ulash kabellari yordamida tutgichning (a) shtepselli elementining pozetkalariga ulang.

3. Aksial B – probe ni teslametrga ulang va teslametrning nolini o'rnatning (teslametr uchun ko'rsatmalarga qarang)



7.5 – rasm. Aylanma halqa shaklidagi o'tkazgichning magnit maydonini o'lhash uchun tajriba qurilmasi.

4. Aksial B – probe ni Leybold ga chap uchi 70.0 cm shkala belgisiga to'grilab joylashtiring. B – probe ni o'tkazgich halqa markaziga to'g'rilab joylashtiring.

5. O'tkazgich halqani imkonli boricha Xoll datchigiga aniq joylashtiring.

6.  $I$  tok kuchini har safar  $2 A$  qiymatga  $0 A$  dan to  $10 A$  qiymatgacha oshiring. Har safar magnit maydonini o'lchang va qiymatini yozib oling.

7.  $I = 10 A$  da  $B$  – probe ni chap tarafga va ong tarafga qadam – ba qadam siljiting, har safar magnit maydonini o'lchang, ya'ni magnit maydonini fazoviy koordinata  $x$  ning funksiyasi sifatida o'lchang. O'lchagan qiymatlarini yozib oling.

8.  $40 \text{ mm}$  li o'tkazgich halqani  $80 \text{ mm}$  li o'tkazgich halqa bilan almashtiring va keyin  $120 \text{ mm}$  li o'tkazgich halqa bilan almashtiring. Barcha hollarda magnit maydonini fazoviy koordinata  $x$  ning funksiyasi sifatida o'lchang.

9. Olingen natijalar asosida aylanma halqa shaklidagi o'tkazgich magnit maydonining induksiyasini halqa radiusiga bog'liqlik funksiyasi va halqa o'qidagi nuqtadan halqa markazigacha bo'lgan masofaga bog'liqlik grafigini tuzib tahlil qiling.

### **Nazorat savollari**

1. Magnit maydonlar uchun superpozitsiya qonunini tushuntiring va isbotini keltiring.

2. Bio – Savar – Laplas qonunini tushuntiring va qo'llanilish chegarasini ko'rsating

3. To'g'ri tok magnit maydonini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.

4. Aylanma tok magnit maydonini hisoblash formulasini keltirib chiqaring va tushuntiring.

5. To'g'ri va aylanma tok magnit maydonlarini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatlarini tushuntiring.

6. Xoll datchigi tuzulishi va ishslash prinsiplarini tushuntiring.

7. O'lchash natijalarining absolut va nisbiy xatoliklarini tushuntiring.

8. Magnit maydon induksiyasi va kuchlanganligi fizik ma'nolarini tushuntiring.

9. Yer magnit maydoni o'lchash natijalariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]-28 bob, 189-193-paragraflar. [2]-6 bob, 92-96-paragraflar.  
[5]-5 bob, 64-69-paragraflar.

## **8 (54)- LABORATORIYA ISHI**

### **YER MAGNIT MAYDON KUCHLANGANLIGINING GORIZONTAL TASHKIL ETUVCHISINI ANIQLASH**

**Kerakli asboblar:** Tangens – Bussol, ampermetr, reostat, o'zgarmas tok manbai, qo'sh kalit.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** O'tkazgichdan elektr toki o'tishi bilan bog'langan magnit hodisalar va yer magnetizmini va shunga bog'liq bo'lgan masalalarini yechishda bu hodisalardan foydalana bilişni o'rganishdir.

**Qisqacha nazariya:** Yerning magnit maydoni mavjudligibirinchi marotaba angliyalik shifokor Gilbert tomonidan e'tirof etilgan. Gilbert magnit rudasidan olingen sharcha bilan magnit strelkasi orasidagi o'zaro ta'sirni o'rganib chiqib Yer ulkan magnit degan xulosaga keldi.

Yerning janubiy magnit qutbi 1831 yilda angliyalik tadqiqotchi Djon Ross tomonidan Kanada arxipellagida, Yerning shimoliy magnit qutbi esa 1841 yilda Djeyms Ross (Djon Rossning jiyani) tomonidan Antarktidada ekanligi aniqlangan.

So'nggi 160 million yil ichida Yerning shimoliy va janubiy magnit qutblari o'z o'rnnini 100 marta almashtirgan. Oxirgi almashtirish taxminan 720 ming yil avval sodir bo'lgan.

#### **Geomagnit maydon tabiatи**

Hozirgi paytda, geomagnit maydon asosan Yerning suyuq metall yadrosida yuzaga keluvchi oquvchi toklar tufayli paydo bo'ladi degan faraz keng tarqalgan. Magnit maydoning bunday paydo bo'lish modeli "gidromagnit dinamo" deb ataladi. Gidromagnit dinamo (dinamo effekti) tushunchasi shundan iboratki, bunda o'tkazuvchan suyuqlik yoki gaz plazmasi harakati tufayli o'z - o'zidan magnit maydoni paydo bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar konvektiv oqimlar o'q simmetriyasiga ega bo'lmasa unda gidrodinamo ish bajarishi mumkin ekan. Yerda aylanish o'qi va magnit maydon o'qlari ustma - ust tushmaganligi sababli yuqorida shart bajariladi.

Hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, geodinamoning ishi magnit maydoni fluktuatsiyalariga sabab bo'luvchi erigan nikel - temir oqimlaridagi xaotik o'zgarishlar bilan bog'liq ekan. Yer magnit

maydonining inversiyasi (o'zgarishi) juda katta fluktuatsiya bo'lib, uni oldindan bashorat qilish hozirgi paytda mumkin emas. Magnit dinamosi mexanizmi Yerning magnit qutblari siljishi va almashinish hodisalarini qoniqarli ravishda ifodalaydi va Venerada nega magnit maydon yo'qligini tushuntiradi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Yerning magnit maydoniga ionosferadagi (atmosferaning 400-500 km dagi yuqori qismi) toklar ham o'z hissasini qo'shadi.


Shunday qilib, Yer tabiiy magnit bo'lib, uning magnit qutblari geografik qutblariga yaqin (300 km) joylashgan. Biror nuqtada Yer magnit maydonining kattaligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun Yer magnetizmining uchta elementini yaxshi bilishimiz lozim; bular – magnit maydoni induksiyasining gorizontal tashkil etuvchisi, magnit og'ishi va magnit qiyalanishi.

Magnit og'ishi – Yer yuzasidagi geografik va magnit meridianlar orasidagi  $\beta$  burchak (8.1-rasm). Magnit strelkamizning shimoliy uchi geografik meridianga nisbatan sharq tarafga og'gan bo'lsa magnit og'ishi musbat, g'arb tomonga og'gan bo'lsa manfiy hisoblanadi. Magnit og'ishining qiymatlari magnit xaritalarda qayd etiladi va kompas orqali haqiqiy meridianni aniqlashda foydalilanadi.

Magnit qiyalanish –  $\theta$  gorizont tekisligi va magnit kuch chiziqlari orasidagi burchak. Yerning magnit qutblari va turli katta magnit anomaliyasi bor hududlarda magnit qiyalanish  $90^\circ$  ga teng bo'ladi.

Biror nuqtada magnit maydon induksiyasining qiymatini aniqlash uchun berilgan hudud uchun magnit meridiani tekisligini ko'rib chiqamiz. Geomagnit meridian deb magnit maydon kuch chiziqlarining Yer sathiga tushirilgan proeksiyasi tushuniladi. Magnit meridianlar aslida murakkab egri chiziqlar bo'lib Yerning shimoliy va janubiy qutblarida birlashadi.

Amalda esa Yer magnit maydonining gorizontal tashkil etuvchisini to'g'ridan - to'g'ri aniqlash ancha qulayligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun, ko'p hollarda, Yerning magnit maydoni uchta kattalik




8.1-rasm

bilan xarakterlanadi: bular magnit og'ishi, magnit qiyalanishi va magnit maydonining gorizontal tashkil etuvchisining son qiymati.

Yer magnit maydoni induksiyasining gorizontal tashkil etuvchisini aniqlash uchun biror nuqtada yo'nalishi gorizontal bo'lgan sinov magnit maydoni va Yer magnit maydoni gorizontal tashkil etuvchisining superpozitsiyasini ko'rib chiqish kerak.


Bunday masalani yechish uchun, magnit sterlkasi tangens – bussol (bitta g'altak) markazida o'rnatilishi o'rninga, oralarida magnit maydoni bir jinsli bo'ladi. Gelmgolts g'altaklari markazlarini o'tasida, bu g'altaklar markazidan o'tgan o'qda joylashgan bo'ladi. Gelmgolts g'altagi ikkita ketma – ket ulangan g'altakdan iborat bo'lib, ularning  $R$  radiuslari g'altaklar orasidagi masofaga tengdir. Gelmgolts g'altaklari ketma – ket ulangani uchun o'ramlardan o'tgan tok bir xil bo'ladi. G'altaktagi toklar hosil qilgan magnit maydonlar yo'nalishi bir xil bo'lib, natijaviy maydonning yo'nalishi tashkil etuvchilar yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi. O nuqtadagi natijaviy magnit maydon kuchlanganligi  $\vec{H}_y$ , ikkita (birinchi va ikkinchi) g'altakning (8.2 – rasm) shu nuqtada hosil qilgan  $\vec{H}_1$  va  $\vec{H}_2$  maydon kuchlanganliklarining yig'indisiga teng bo'ladi (ya'ni:  $\vec{H}_y = \vec{H}_1 + \vec{H}_2$  ).



8.2 – rasm.

Har bir g'altak uchun aylanma tokning markazidan o'tuvchi o'qdagi istalgan nuqtaning magnit maydon kuchlanganligi formulasini ishlatalib, magnit strelka o'rnatilgan joydagi ( $O$  nuqtadagi) bitta g'altakdan hosil bo'lgan magnit maydon kuchlanganligini topamiz (8.3 – rasm).

O'ram uzunligini  $dl$  elementlarga bo'lib chiqamiz va 8.2 – rasmdan ko'ringanidek, o'ramning hamma elementlari  $O$  nuqtadan bir xil ( $r$ ) masofada joylashgan bo'ladi.



8.3 – rasm.

O'ram radiusini  $R$ , o'ram markazidan magnit strelkasi joylashgan nuqtagacha bo'lgan masofani  $h$  va o'ramdan o'tayotgan tokni  $I$  desak, Bio – Savar – Laplas qonuniga binoan  $dl$  tok elementidan  $r$  masofada joylashgan O nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligi

$$d\vec{H} = k_I \cdot \frac{[I \vec{dl} \cdot \vec{r}]}{r^3}, \quad dH = k_I \cdot \frac{I dl \cdot \sin \alpha}{r^2} \quad (8.1)$$

formula bilan ifodalanadi. Bundagi burchak tok elementi bilan radius vektor orasidagi burchak,  $k_I$ -birliklar sistemasiga bog'liq bo'lgan koeffisient, (SGS birliklar sistemasida  $k_I = \frac{1}{c}$ , SI birliklar sistemasida  $k_I = \frac{1}{4\pi}$ ) 8.2 – rasmdan ravshanki, O nuqtada tokli bitta o'ram hosil qilgan magnit maydon kuchlanganligi

$$= \int dH_t = \int dH \sin \alpha \quad (8.2)$$

bo'ladi. Bu erdag'i  $\alpha$  - radius vektor bilan o'q orasidagi burchak.

(8.1) formulani (8.2) ga qo'yib, integrallash natijasida tokli bitta o'ramdan hosil bo'lgan magnit maydon kuchlanganligini topamiz:

$$H_1 = k_I \cdot \frac{2 \cdot \pi \cdot I \cdot R^2}{r^3} = k_I \cdot \frac{2 \cdot \pi \cdot I \cdot R^2}{\sqrt{(R^2 + h^2)^3}} \quad (8.3)$$

Ikkita g'altaklarni shunday ketma – ket ulaymizki, g'altaklarning O nuqtada hosil qilgan magnit maydon kuchlanganliklari bir xil yo'nalgan bo'lsin, u holda superpozitsiya prinsipiga asosan umumiy hosil bo'lgan magnit maydon kuchlanganligi:

$$\vec{H} = \vec{H}_1 + \vec{H}_2$$

$$H = \sqrt{H_1^2 + H_2^2 + 2 \cdot H_1 \cdot H_2 \cdot \cos(\bar{H}_1 \cdot \bar{H}_2)},$$

bu erda  $(\bar{H}_1 \wedge \bar{H}_2) = 0^\circ$  bo'lgani uchun:  $H = H_1 + H_2$  kelib chiqadi.

G'altaklardagi o'ramlar soni  $N_1 = N_2 = N$  bo'lsa, u holda


$$H = 2H_1 \cdot N \approx k_1 \frac{4 \cdot \pi \cdot I \cdot R^2 \cdot N}{\sqrt{(R^2 + h^2)^3}} \quad (8.4)$$

Ikkita g'altakdan O nuqtada vujudga kelgan aylanma tokning magnit maydon kuchlanganligining SI sistemasidagi formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$H = \frac{I \cdot R^2 \cdot N}{\sqrt{(R^2 + h^2)^3}} \quad (8.4^1)$$

$R$  va  $h$  larning son qiymatlari chizg'ich bilan o'lchanadi.  $N$  esa bitta g'altak uchun sanaladi. Bu formuladagi  $I$  Amperlarda,  $R$  va  $h$  metrlarda o'lchansa, [H]-A/m larda hisoblanadi.

Shunday qilib, g'altakdan elektr toki o'tayotganda, strelka bir paytda ikkita maydon -Yerning magnit maydoni va aylanma tok vujudga keltirgan maydoni ta'sirida bo'ladi. Kompas strelkasining orientasiyasi natijaviy kuchlanganliklar vektori yo'nalishi tomonida bo'ladi. Shuning uchun aylanma tokning magnit maydonini Yerning magnit maydoniga tik joylashtirish kerak (8.4 – rasm)



8.4 – rasm.


Kompas strelkasining (Yerning magnit maydon yo'nalishiga ( $H_0$  nisbatan) og'ish burchagini  $\varphi$  bilan belgilasak, Yer magnit maydonining gorizontal tashkil etuvchisi

$$H_0 = \frac{H_y}{\operatorname{tg} \varphi}$$

yoki

$$H_0 = \frac{R^2 \cdot N}{\sqrt{(R^2 + h^2)^3}} \cdot \frac{I}{\operatorname{tg} \varphi} \quad (8.5)$$

bo'ladi.



8.5 – rasm.

### Ishning bajarish tartibi:

1. Laboratoriya ishining elektr sxemasi 8.5 – rasmda ko'satilgandek yig'iladi, «A» va «B» doimiy tok manbayining klemmalari,  $R$  – reostat,  $K$  – kalit,  $P$  – kommutator bo'lib, uning yordamida tangens – bussoldagi tokning yo'nalishini o'zgartirish mumkin. TB – tangens – bussol, A – ampermetr.

2. T.B o'ramining tekisligini magnit strelkasi yo'nalishida o'rnatiladi (strelka yaqinida temir va po'lat buyumlari bo'lmasligi zarur.)

3. Tok qiymatini tanlab olish:

a)  $R$  reostat surilgichini siljитib, tangens bussolga ma'lum tok yuboriladi va u yoziladi. Tokning bu qiymatiga to'g'ri kelgan magnit strelkasining ikki tomonidagi ko'satishlari (burchaklari) yozib olinadi;

b) Tok qiymatini doimiy saqlab, kommutator yordamida tangens bussoldagi tok yo'nalishini o'zgartirib, yana strelkaning ikki tomonidagi ko'satishlari yoziladi.

v)  $R$  reostat yoradmida tokni o'zgartirgan holda yuqoridagi o'lchashlar yana qaytariladi ( $\varphi$  - burchak  $45^\circ$  dan oshmasligi kerak).


g) Chizg'ich yordamida o'ramning diametri o'lchanadi va o'ramlar soni sanaladi;

d) O'lchash natijalari quyidagi jadvalga yoziladi:

1-jadval.

№	$I$ (A)	Kompas strelkasining og'ishi				$\angle\varphi$	$\operatorname{tg}\angle\varphi$	$H_0$ (A/m)
		$\varphi_1$	$\varphi_2$	$\varphi_3$	$\varphi_4$			
1								
2								
...								

Bu laboratoriya ishini bajarishda Gelmgolts g'altagi o'mniga bitta g'altak olib, bu g'altak o'qi o'rtasiga magnit strelkasi (kompas) joylashtirilsa ham bo'ladi. Biroq Gelmgolts g'altagidagi hosil bo'lgan magnit maydon kuchlanganligi, bitta tokli g'altak magnit maydon kuchlanganligiga nisbatan birjinslidir.



8.6 – rasm.

Markazda joylashgan magnit strelkasi nuqtaviy emas, balki magnit strelka uzunligi (8.8 – rasm) taxminan 4 cm lar chamsi bo'ladi. U holda uchlari o'q markaziga nisbatan 2 cm kattalikga ega. Hozir biz (markaziga nisbatan) 2 cm li magnit strelkasini Gelmogolts g'altagi markaziga va bitta o'ramga ega bo'lgan g'altak markaziga joylashtirib, ularning qaysi birida magnit strelkasi kattaligidagi maydonlarning birjinsliligini tekshiramiz.


Masalani osonlashtirish uchun g'altaklardagi o'ramlar soni, g'altaklar radiuslari, ulardagи toklarni bir xil deb faraz qilamiz.

8.6 – rasmida o'zaro parallel o'rnatilgan ga'l taklarning geometric markazlarini tutashtiruvchi to'g'ri chiziqning o'rtasida kompas joylashtirilgan holat tasvirlangan bo'lib, tokli g'altaklarning bu nuqtadagi magnit maydoni kuchlanganligining natijaviysi quyidagi qonuniyatlar asosida topiladi:

$$H_A = H_1 + H_2 = k \frac{4\pi IR^2 N}{\sqrt{(R^2 + h^2)^3}},$$

$$H_B = H_1^1 + H_2^1 = k_1 \cdot \frac{2\pi IR^2 N}{\sqrt{[R^2 + (h - BA)^2]^3}} + k_1 \frac{2\pi IR^2 N}{\sqrt{[R^2 + (h + BA)^2]^3}}$$

$$\left. \begin{array}{l} \text{Birjinsli} \\ \text{Gelmgolts} \\ \text{g'altakda} \end{array} \right\} = \frac{H_A - H_B}{H_A} \cdot 100\%$$



8.7 – rasm.

8.7 – rasmdan

$$H_D = k_I \frac{2\pi I N}{R}; \quad H_E = k_I \frac{2\pi J R^2 N}{\sqrt{(R^2 + ED^2)^3}}$$

$$\left. \begin{array}{l} \text{Birjinsli} \\ \text{bitta} \\ \text{g'altakda} \end{array} \right\} = \frac{H_D - H_E}{H_D} 100\%; \quad \left. \begin{array}{l} \text{Birjinslilik} \\ \text{Gelmgolst} \\ \text{Birjinslilik} \\ \text{Bittag'altakda} \end{array} \right\} >> 1.$$

Demak Gelmgolts g'altagidagi hosil qilingan magnit maydon kuchlanganligi bitta g'altaknikiga qaraganda ancha katta ekan. Bundan shunday natija chiqarish kerakki, magnit strelkasi (hamma uzunligi) bir jinsli magnit maydonida joylashtirilgan.

### O'Ichash natijalarini hisoblash:

1. (8.5) formuladagi tangens – bussol doimiysini hisoblash kerak:  $C = \frac{R^2 N}{\sqrt{(R^2 + h^2)^3}}$
2. (8.5) formula  $H_0 = C \cdot \frac{I}{\operatorname{tg} \varphi}$  ga asosan 1 – jadvaldan olingan natijalarga binoan  $H_0$  – larni hisoblanadi.
3. Hisoblangan  $H_0$  – lardan uning o'rtacha qiymati hisoblanadi.
4. O'rtacha kvadratik xatolik hisoblanadi.
5. Nisbiy xatolik foizlarda topiladi.

### Nazorat savollari

1. Yer magnetizmi elementlari deganda nimani tushunish kerak?
2. Magnit maydoni va uning xarakteristikalarini.

3. Bio – Savar – Laplas qonunining integral va differensial ko'rinishlari.
4. Aylanma tok o'qida magnit maydonini hisoblash.
5. Magnit maydon induksiyasi va kuchlanganligi orasidagi bog'lanish.
6. Ersted va A/m orasidagi munosabatni keltirib chiqaring.
7. Magnit maydon kuchlanganligi vektorining sirkulyatsiyasi haqidagi teorema. To'la tok qonuni.
8. Nima uchun magnit maydoni uyurmali xarakterga ega?
9. To'g'ri tok magnit maydoni.
10. Magnetlanish vektori.
11. Muhitning magnit singdiruvchanligi va qabul qiluvchanligi.
12. Magnit maydonni o'rganishning boshqa usullari.
13. Gelmgolts g'altagi nima? Uning qanday ko'rinishlari mavjud?
14. Nima uchun tok Gelmgols g'altagida kommutatsiyalanadi?
15. Tajriba natijalarining xatoliklarini tushuntiring.
16. Yer magnit maydonining vujudga kelishi sabablarini tushuntiring.
17. Magnit inversiyasi nima?
18. Yer magnit maydonini o'rganish qanday ahamiyatga ega?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]-8 bob, 75-80-paragraflar. [4]- 7 bob, 29-32-paragraflar. [5]- 8 bob, 100-106-paragraflar. [6]-III-qism, 1 bob, 5-8-paragraflar.

## 9 (86) – LABORATORIYA ISHI

### YER MAGNIT MAYDONINI AYLANUVCHI INDUKSION G'ALTAK YORDAMIDA O'LCHASH

**Kerakli asbob va uskunalar:** Juft Gelmgolts g'altaklari, sensor CASSY USB, mikrovoltmetr, CASSY Lab, ularash kabeli  $2,5 \text{ mm}^2$ , 200 cm, qizil; ularash kabeli  $2,5 \text{ mm}^2$ , 200 cm, ko'k.

*Qo'shimcha rekomendatsiya:*

Eksperimental motor, eksperimental motor uchun kontroller

*Qo'shimcha talablar*

1 PC, Windows 2000/XP/Vista

#### Laboratoriya ishining maqsadi:

Yer magnit maydonining komponentlarini aniqlash, Yer magnit maydonining og'ish burchagini aniqlash.

**Qisqacha nazariya:** O'ramlar soni  $N$  ta, yuzasi  $S = \pi R^2$  bo'lgan aylanma induksion g'altak aylanish o'qining diametridan otuvchi o'q atrofida o'zgarmas  $\omega$  burchak tezlik bilan bir jinsli  $B$  magnit maydonida aylansa uni kesib o'tuvchi magnit oqimi

(9.1)

Bu yerda  $\omega$  – burchak tezlik,  $R$  – induksion g'ltakning radiusi,  $N$  – induksion g'ltakning o'ramlar soni. (1) tenglamada aylanish o'qi  $B$  magnit maydoniga perpendikulyar yonalgan.  $B$  magnit maydonini induksiyalayotgan kuchlanishi  $U$  ning amplituda qiymatini aniqlash mumkin:

—

(9.2)

aylanish davrida foydalanib, induksiyalangan kuchlanishning maksimal qiymati uchun quyidagini hosil qilamiz:

—

(9.3)

—

(9.4)

Induksion g'altakning  $z$  o'qi atrofida aylanish uchun Dekart koordinatalar sistemasida (9.1 – rasm) kuchlanish amplitudasi quyidagicha aniqlanadi:

$$a \sqrt{B} \quad (9.5)$$

Induksion kuchlanish Yerning quyidagi magnit maydonida induksiyalanadi:

$$B = \begin{pmatrix} B_x \\ B_y \\ B_z \end{pmatrix} \quad (9.6)$$

Simmetriya tufayli  $x$  – yoki  $y$  – yo’nalishlar uchun quyidagilar o’rinli bo’ladi:

$$U_x = a \sqrt{B_y^2 + B_z^2} \quad (9.7)$$

$$U_y = a \sqrt{B_x^2 + B_z^2} \quad (9.8)$$

Yer magnit maydonining komponentalari (9.5), (9.7) va (9.8) tenglamalar sistemasini yechish orqali hisoblanishi mumkin.

$$B_x = \sqrt{\frac{U_z^2 + U_y^2 - U_x^2}{2a^2}} \quad (9.9)$$

$$B_x = \sqrt{\frac{U_z^2 + U_y^2 - U_x^2}{2a^2}} \quad (9.11)$$


Xususiy holda Yer magnit maydonining umumiy qiymati quyidagiga teng bo’ladi:

$$B = \sqrt{B_x^2 + B_y^2 + B_z^2} = \sqrt{\frac{U_z^2 + U_y^2 + U_x^2}{2a^2}} \quad (9.12)$$

Yer magnit maydonining gorizontga nisbatan og’ish burchagi  $\varphi$  quyidagi tenglamadan topilishi mumkin:

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{B_z}{\sqrt{B_x^2 + B_y^2}} = \sqrt{\frac{U_z^2 + U_y^2 + U_x^2}{2U_z^2}} \quad (9.13)$$

Bu formula matematik jihatdan to’g’ri, ammo o’lchash noaniqligi tufayli kvadrat ildizning argument ekvatorga yaqin joylardagi tajribalar uchun manfiy bo’lishi mumkin. Bu tajribada induksion g’altakning aylanish o’qi to’g’ri burchakli koordinatalar sistemasining  $x$ ,  $y$  va  $z$  - yo’nalishlari bo’yicha o’rnatiladi. Har bir holda induksiyalangan kuchlanish amplitudasi vaqtning funksiyasi sifatida CASSY bilan o’lchanadi. O’lchangan signallardan amplituda va chastota Yerning magnit maydon kuchlanganligi va og’ish burchagini aniqlash uchun foydalilanadi.



9.1 – rasm. Eksperimental motor bilan o’lchanadigan tajriba qurilmasining ko’rinishi

**Tajriba qurilmasi:** Tajriba motorini stol ustining burchagiga 9.1 – rasmda ko’rsatilgandek joylashtiring. Qurilmaning g’altagi  $x$ ,  $y$  va  $z$  o’qlari atrofida buralishi mumkin bo’lsin.

Mikrovoltmetrni va induksion g’altakni bir – biriga ulash uchun 2 m uzunlikdagi aylanma ulash simidan foydalaning.

### Ishning bajarish tartibi:

**Tajribani motor yordamida o’tkazish:** CASSY misollar faylidan “Earth magnetic field” ni ishga tushiring. Eslatma: By fayl CASSY misollar faylida saqlanmagan. U kompyuter “Hard disk”idan funksional tugma F3 ni bosish bilan ishga tushirilishi lozim.

Misollar faylidagi berilganlarni funksional tugma F4 ni bosish bilan tozalang.

Tajriba motorining tezligini 0 ga o’rnating.

Motorni ehtiyyotkorlik bilan qo’shing va uning tezligini taqriban sekundiga 0.3 aylanishgacha oshiring.

Aylanma ulash kabelini qo’l bilan shunday yo’naltiringki, ular tajriba motori bilan o’rab olinsin. O’tkazgich halqa aylanayotganida u tugunlarda ushlab qolinmasligiga amin bo’ling.

Induksion kuchlanishni vaqtning funksiyasi sifatida o’lchashni F9 funksional tugmasini bosish yordamida boshlang.

**Eslatma:** O’lchash 20 sekunddan keyin avtomatik ravishda to’xtaydi. O’lchash parametrlarining detallari uchun ... knopkasini bosing va “measuring parametr” menyusidan ularni ko’ring. O’lchashlar

tugagandan keyin motorning o'chirilganligiga ishonch hosil qiling. Tajriba motorini teskariga aylantiring va uni qulay fursatda to'xtating.

Aylanish o'qini  $x$  – yo'nalihsiga o'zgartiring va o'lhashlarni dastlabki burchak tezlik bilan takrorlang.

Va nihoyat induksion kuchlanishni vaqtning funksiyasi sifatida aylanish o'qining y – yo'nalihi uchun tajriba motorini  $90^0$  ga buring.

Induksion g'altakning d diametrini o'lchang.

**Tajriba motorisiz o'lhashlarni bajarish:** CASSY misollar faylidan "Earth magnetic field" ni ishga tushiring.

Eslatma: By fayl CASSY misollar faylida saqlanmagan. U kompyuter "Hard disk" idan funksional tugmasi F3 ni bosish bilan ishga tushirilishi lozim.

Misollar faylidagi berilganlarni funksional tugma F4 ni bosish bilan tozalang.

Tajriba motorining tezligini 0 ga o'rnating.


Induksion kuchlanishni vaqtning funksiyasi sifatida o'lhashni F9 funksional tugmani bosish yordamida boshlang.

Induksion g'altakni z o'qi atrofida qo'l bilan aylantiring.

Eslatma: O'lhash 20 sekunddan keyin avtomatik ravishda to'xtaydi. O'lhash parametrlarining detallari uchun ... knopkasini bosing va "measuring parametr" menyusidan ularni ko'ring.

O'lhashlarni  $y$  va  $x$  - o'qlar atrofida aylantirishlar uchun takrorlang.

**O'lhash misollari:** Misol sifatida,  $x$  o'qi atrofida aylantirishlar uchun kuchlanish grafigi 9.2 – rasmida keltirilgan.  $y$  va  $z$  - o'qlar atrofida aylantirishlar uchun tajriba natijalari 9.5 – rasm va 9.6 – rasmlarda.



9.2 – rasm.  $U_x$  induksiyalangan kuchlanish vaqtning funksiyasi sifatida

(z o'qi aylanish o'qi)


### Hisoblash va natijalar

Yer magnit maydonining komponentlarini aniqlash uchun amplituda va chastota aniqlanishi lozim. Chastotani aniqlashning bir necha yo'llari mavjud.

### I – USUL

Display ustida sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va "Set Marker/ Measure Difference" ni tanlang. (9.3 – rasm)

Kursorni nol kuchlanish holati ustiga bosing va buni T davrdan keying holat ustiga bosing.



9.3 – rasm.

Alt T sizga asosiy chiziqning natijasini ekranda ko'rishga imkon beradi. (9.3 – rasm)

Chastotani aniqlash (Metod 1). (9.4) va (9.5) rasmlarni taqqoslang


#### Metod 2

Jadvalda "Frequency Spectrum" ustiga bosing.

Display ustida sichqonchaning o'ng knopkasini bosing va "Other Evaluations" / "Calculate Peak Center" ni tanlang.

Tajriba natijalari ustida sichqonchani surib maksimumni belgilang.

Alt – T sizga asosiy chiziqning natijasini displayda ko'rishga imkon beradi. (9.4 – rasm)



9.4 – rasm.

9.4 – rasm. Chastotani aniqlash (metod 1). 9. 3 – rasm va 9.5 – rasmni taqqoslang.

Yer magnit maydononing komponentlarini aniqlash uchun amplitudani aniqlash lozim. Induksiyalangan kuchlanish amplitudasini aniqlash uchun ikki yo'l mavjud.

### Metod 1

Display ustida sichqonchaning o'ng knopkasini bosing va "Set Marker/ Measure

Difference" ni tanlang. (9.3 – rasm)

Sichqonchani nol kuchlanish holati ustiga bosing va buni maksimum kuchlanish ustida takrorlang.

Alt – T sizga asosiy chiziqning natijasini displayda ko'rishga imkon beradi.

### Metod 2


Bu metodda chastotani va amplitudani aniqlash uchun "Fitting tool" dan foydalilaniladi.

Sichqonchaning o'ng knopkasini display ustida bosib "Fitting tool" ni displayga chiqaring va "Fit function"/"Free Fit" ni tanlang yoki Alt F ni bosing.

Dastlab mos keluvchi funksiyani tanlang – bu erda  
 $f(x, A, B, C, D) = A * \sin(360 * B * x + C)$

Mos keluvchi parameter uchun kerakli baholash qiymatlarini kiriting (boshlang'ich qiymatlar)

$A = U_0 = 1 \text{ V}$  (amplituda, diagrammaning y – o'qidan yozib oling).



9.5 – rasm.

$B = 0.3 \text{ Gs}$  (Chastota , 2 Gs lar atrofida)

$C = 0$  ( faza siljishi, o'lchash sharoitida 0 ga teng)

“Display result automatically as a new channel” ni tanlang.

“Continue with Range Marking” knopkasi bilan davom ettiring.

Alt T sizga natijalarini displayda ko'rishga imkon beradi.

**Eslatma:** Mos keluvchi algoritm yaxshi baholash qiymatlarini talab qiladi. Bu tanlangan model uchun, ya'ni 9.14 – tenglama uchun, chastotaning boshlang'ich qiymati tajribaviy qiymatlarga yaqin qilib tanlanishi lozim.

### Qoshimcha ma'lumotlar

Tajribadagi asosiy xatolik o'tkazgich halqa yaqinida joylashgan magnitlangan po'lat jismlar sababli magnit maydonining buzilishidan hosil bo'ladi. Yuqori o'lchash aniqligiga erishish uchun g'altakning parametrlari imkonli boricha katta qilib tanlab olinishi zarur. Er magnit maydonining og'ishi bo'lmaganda (magnit ekvatorda) er magnit maydonining qiymati  $31.2 \mu\text{T}$  ga teng va magnit qutblarida 2 marta kattaroq bo'ladi. Ekvatorga yaqin joyda tajribani bajarishda muammo tug'iladi. Ekvatorda magnit maydonining qiyalik burchagi 0 ga yaqin va xuddi shu holda  $B(z)$  ham nolga yaqin bo'ladi. (9.11) va (9.13) tenglamalar katta sonlarni ayiradi va nazariyada kichik musbat sonlarni hosil qiladi. Bu kichik farq kichik o'lchash xatoliklari tufayli ham (po'lat bo'lagi) manfiy bo'lib qolishi mumkin va (9.11) va (9.13) tenglamalardagi kvadrat ildiz echimga ega bo'lmaydi. Ekvatorga yaqin joylarda og'ish burchagi uchun natijalar olish uchun  $B_{iz}$  to'g'ridan – to'g'ri o'lchanishi kerak. (9.7) tenglamadan foydalanib biz gorizontal aylanish o'qi bo'yicha tajriba o'tkazamiz va  $B_z = 0$  ga aylanish o'qini shimol janubga to'g'rilab erishamiz. Bu esa

kuchlanishning minimummini izlash bilan bajarilishi mumkin. Keyin  $B_z$  ning qiymati (9.7) tenglamadan hisoblanadi va (9.13) tenglamaning o'ta qismiga qo'yildi. Bu tajribada biz  $B_z$  ning qiymatini uning ishorasisiz o'lchaymiz, chunki ekvatorning janubida (9.11) va (9.13) tenglamalar kvadrat funksiyaning manfiy natijalaridan foydalanish lozim.

### Nazorat savollari

1. Elegtromagnit induksiya hodisasini ta'riflang va asosiy tenglamasini keltiring.
2. Yer magnetizmi haqidagi asosiy tushunchalar va elementlari.
3. Yer magnit maydon induksiyasining gorizontal va vertical tashkil etuvchilari.
4. To'g'ri tok magnit maydonini hisoblash.
5. Solenoid magnit maydonini hisoblash.
6. Nima uchun induksion g'altak shimoliy, sharqiy va vertikal yo'nalishlarda aylantiriladi?
7. Magnit induksiyasini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
8. G'altakning aylanish tezligi o'lchash natijalariga ta'sir etadimi?
9. Magnit maydon induksiyasini geografik kenglikga bog'liqligini tushuntiring.
10. Magnit shamollari o'lchash natijalariga qanday ta'sir etadi?
11. Yer magnit maydoni qanday tajribalarni o'tkazishda o'z ta'sirini ko'rsatadi va undan qanday ximoyalanadi?
12. Yerning magnitlanishi nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
13. Magnit inversiyasi nima?
14. Yer magnit maydonini aniqlashning qanday usullarini bilasiz?
15. Qanday sayyoralar magnit maydoniga ega? Oyda magnit maydoni mavjudmi?
16. Tajriba natijalaridagi xatoliklar nimalarga bog'liq?
17. Yer magnit maydonini aylanuvchan induksion g'altak yordamida o'lchashning afzalliklari va kamchiliklari.
18. Yer magnetizm elementlarini o'rganish qanday ahamiyatga ega?

### Foydalanilgan adabiyotlar

[1]-21 bob, 218, 220-paragraflar, [3]-15 bob, 92-95-paragraflar,  
[5]-13 bob, 182, 182-paragraflar.

## 10 (59) - LABORATORIYA ISHI

### KO'PRIK USULI YORDAMIDA KONDENSATORLARNING SIG'IMINI O'LCHASH


**Kerakli asbob va uskunalar:** Ma'lum sig'imli kondensatorlar to'plami, noaniq sig'imli kondensatorlar, o'zgaruvchan tok manbai, reoxord, tok indikatori, ulovchi similar.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Kondensatorlarning sig'imi aniqlash, kondensatorlar sistemasining umumiy sig'imi aniqlash va nazariy formulalar bilan taqqoslash.

**Qisqacha nazariya:** 3 – laboratoriya ishida o'zgarmas tok ko'prigi yordamida o'tkazgichlarning qarshiligini o'lchash usuli bilan tanishgan edik. Bu ko'priks xchemasini yana bir marta ko'z oldimizga keltiraylik. Ko'priks yelkalariga  $R_x$ ,  $R_o$ ,  $R_1$ ,  $R_2$  rezistorlar ulangan bo'lib, AC dioganalga o'zgarmas tok manbai, BD dioganalga galvanometr (tok indikatori) ulangan. Ko'priks muvozanatda bo'lganida galvanometrdan o'tgan tok  $I_g = 0$  bo'lib noma'lum qarshilikni topish uchun quyidagi ifodani olgan edik:

$$R_x = R_o \frac{R_1}{R_2} \quad (10.1)$$

Agar noma'lum kondensatorlar sig'imi o'lchashimiz (topishimiz) kerak bo'lsa, u holda quyidagicha sxema tuzamiz (10.1 – rasm). Bu sxema avvalgi sxemadan farqli bo'lib, BD – dioganalga o'zgaruvchan tok manbai ulangan, AC dioganalga esa ossillograf ulangan. AC – reoxord. Ko'priks yelkalarini sig'imgari  $C_x$  va  $C_o$  bo'lgan kondensatorlar;  $R_1$  va  $R_2$  lar AC reoxord yelkalarining qarshiliklaridir.



10.1 – rasm.

Ko'priks usulida kondensator sig'imi o'lchashning rezistor qarshiligini o'lchashdan farqi quyidagilardan iborat:

I. O'lchash o'zgaruvchan tokda olib boriladi. Buning sababi - o'zgaruvchan tokda kondensator davriy ravishda zaryadlanib va razryadlanib turadi. O'zgarmas tokda esa kondensatorlar  $R_1$  va  $R_2$  rezistorlar orqali zaryadlanadi. Natijada reoxorddagi  $R_1$  va  $R_2$  larning istalgan qiymatlarida ( $D$  tugunning holatida) A va B tugunlardagi potensiallar o'zaro teng bo'ladi.

II. Bu holda sxemada to'liq muvozanat bo'lmaydi (indikator nolni ko'rsatmaydi), chunki zanjir elkalaridagi tok va kuchlanishning amplituda qiymatlari orasida faza farqlari mavjud bo'ladi.

III. Agar sxemaga kichik sig'imli kondensatorlar ulangan bo'lsa, u holda reoxord surguchi  $D$  ni siljtganda katta intervalda tok indikatori ko'rsatib turishi mumkin. Bunday holda o'sha interval o'rtasi olinishi lozim.


Shunday qilib, ko'priq muvozanatga keltirilganda elkalardagi kondensator sig'imlarining nisbatlari emas, balki o'zgaruvchan tokga ulangan kondensatorlarning o'zgaruvchan tokga ko'rsatgan sig'im qarshiliklarining nisbatlari olinishi kerak (10.1 – rasm).

Hozir biz sig'im qarshiliklari qanday kelib chiqishini batafsil ko'rib chiqamiz. O'zgaruvchan tok kattaligi va yo'nalishi davriy ravishda teng oraliq vaqtida o'zgarib turadi. Bunday o'zgarish sinusoida (yoki kosinusoida) ko'rinishida ifodalanishi mumkin. O'zgaruvchan tok zanjiriga faqat qargshiligi  $R$  ga teng bo'lgan rezistorni va sig'imi  $C$  bo'lgan kondensatorni alohida – alohida ulaymiz (10.2 – rasm).. O'zgaruvchan tok zanjiridagi tokni  $i(t)$  bilan, tokning amplituda qiymatini  $i_o$  bilan belgilaymiz. O'zgaruvchan tokning E.Yu.K.sini

$$U(t) = U_0 e^{j\omega t} \quad (10.1)$$

ko'rinishda olamiz.

1. O'zgaruvchan tok zanjirida faqat  $R$  bo'lsin (10.2 – rasm).



10.2 – rasm.


Bunday zanjirdagi tok qanday qonun bilan o'zgaradi? Bu jarayonni kvazistasionar hisoblab, yopiq zanjir uchun Kirxgofning ikkinchi qoidasini ishlatalamiz.

(10.2)

Bu yerdagi  $R$  ni Omik qarshilik yoki aktiv qarshilik deyiladi.

- o'zgaruvchan tok zanjirdagi tokning o'zgarish qonuni shu formula bilan ifodalananar ekan.

2. O'zgaruvchan tok zanjirida faqat kondensator ( $C$ ) ulangan bo'lzin (10.3 – rasm). Bu zanjirdagi tok qanday qonun bilan ifodalananadi.



$$U(t) = U_0 e^{j\omega t}$$

10.3 – rasm.

Bu jarayonni kvazistasionar deb hisoblasak  
— dan kelib chiqadi.

Bu tenglama kondensatorda zaryad miqdorining vaqt bo'yicha o'zgarish qonunini ifodalaydi.

Elektr tokining ta'rifidan:

$$\underline{d(q)}$$

bundan

O'zgaruvchan tok zanjirida faqat  $C$  bo'lgan holda tok kuchining o'zgarish qonuni kelib chiqadi. Oxirgi tenglamani maxrajidagi kattalik — bo'lib, kompleks ko'rinishida tasvirlangan va kompleks sig'im qarshiligidir.  $X_c = -$  esa sig'im qarshilik yoki reaktiv qarshilik deyiladi. Oxirgi ifodani sig'im qarshilik orqali quyidagicha ifodalaymiz:

$$i(t) = \frac{U_0}{\frac{1}{\omega C}} \cdot j e^{j\omega t} = \frac{U_0}{R_0} \cdot e^{j\omega t} \cdot e^{j\frac{\pi}{2}} = i_0 e^{j(\omega t + \frac{\pi}{2})} \quad (10.3)$$

Bu formuladan ko'rinaradiki o'zgaruvchan tok zanjirida faqat kondensator ( $C$ ) bo'lganida tok shu qonunga muvofiq o'zgarar ekan.

Mana bu tushuncha va formulalarga ega bo'lganimizdan keyin, o'zgaruvchan tok ko'prigi uchun (10.1 – rasm) muvozanat shartini quyidagicha yozamiz:

$$--- \quad (10.4)$$

ya'ni ko'priklarining kompleks qarshiliklar proporsiyasi kabi yoziladi. Bu yerda:

$$z_{C_x} = -j \frac{1}{\omega C_x}, \quad z_{C_0} = -j \frac{1}{\omega C_0},$$

$$z_1 = R_1, \quad z_2 = R_2$$

Bularni (10.4) ga qo'ysak:

$$C_x = C_0 \frac{R_2}{R_1} \quad (10.5)$$

ni olamiz. (10.5) – formula o'zgaruvchan tokda ishlaydigan ko'priklar sxemasi yordamida noma'lum kondensator sig'imini topish formulasidir. Agar (10.5) ifodadagi  $C_0$  ni SI sistemaidagi sig'im birligi – Farada ( $F$ ) bilan belgilasak,  $C_x$  ham shu birlikda ifodalanadi.

Reoxord diametri o'zgarmas va bir jinsli o'tkazgichdan yasalgan uchun

$$R_1 = \frac{l_1}{S}; \quad R_2 = \frac{l_2}{S}, \quad l_1 + l_2 = 100 \quad \text{va} \quad \frac{R_2}{R_1} = \frac{l_2}{100 - l_2}$$

ekanligini hisobga olib, (10.5) formulani quyidagicha ifodalaymiz:

$$C_x = C_0 \frac{l_2}{100 - l_2} \quad (10.6)$$

## Ishning bajarish tartibi

1. 10.1 - rasmdagi elektr sxema yig'iladi.
2. Sxemaga  $C_x$  noma'lum kondensatorlardan biri  $C_{x1}$  ulanib, ma'lum sig'imi kondensatorlar magazinidan  $C_o$  tanlanadi.  $C_o$  ning qiymatini shunday tanlash kerakki, reoxord surilgichi D ni siljitib, tok indikatori (ossillograf yoki telefon) minimum ko'rsatganida (ekranda to'g'ri chiziq bo'lishiga erishilganda, yoki telefonda minimal tovush eshitilganida), D surilgichni reoxordning 50 - bo'limi atrofida joylashtiriladi (reoxord o'talarida).
3. D surilgichni siljitib, tok indikatori minimum ko'rsatganida, reoxord shkalasidan  $I_1$  va  $I_2$  kattaliklar yozib olinadi. (Reoxord uzunligi 100 cm,  $I_1 + I_2 = 100$  cm).
4. Shu tarzda  $C_{x2}$  va  $C_{x3}$  lar uchun ham natijalar olinadi.
5. Noma'lum kondensatorlarni ( $C_{x1}$ ,  $C_{x2}$ ,  $C_{x3} \dots$ ) turli kombinasiyalarda ketma – ket, parallel va aralash ularshlar uchun ham 2 va 3 banddag'i aytilganlar takrorlanadi. Olingan tajriba natijalari jadvalga kiritiladi.

## O'lchash natijalarini hisoblash

Jadvaldag'i tajriba natijalariga asosan (10.5) formula yordamida  $C_{xi}$ -lar hisoblanadi.

$C_{x1}$ ,  $C_{x2}$ ,  $C_{x3}$ larning har bittasi uchun ( $\bar{C}_{x1}, \bar{C}_{x2}, \bar{C}_{x3}$ ) o'rtacha qiymatlari, o'rtacha kvadratik hatoliklari va ularning nisbiy hatoliklari aniqlanadi.

Istalgan kombinasiyalarda kondensatorlarni ularshdagi hollar uchun ham o'rtacha qiymatlari, o'rtacha kvadratik hatoliklari va nisbiy hatoliklari hisoblanadi.

2 – banddag'i topilgan ( $\bar{C}_{x1}, \bar{C}_{x2}, \bar{C}_{x3}$ ) uchta kondensatorlarning o'rtacha qiymatlariga asosan nazariy tomonidan ularni turli kombinasiyalarda ularash natijasidagi qiymatlari hisoblanadi va bu nazariy qiymatlar tajribada olingan tegishli qiymatlar bilan taqqoslab ko'riladi.

## Nazorat savollari

1. Elektr sig'imi. Sig'im birlklari. Yakkalangan o'kazgich sig'imi.

2. Yassi, sferik va silindrik kondensator sig'imi.
3. Yer shari sig'imi va uni o'lhash.
4. Kondensatorlar va ularning turlari, vazifalari.
5. Kondensatorlarning o'lhash qoidalari.
6. O'zgaruvchan va o'zgarmas tokli elektr zanjirlarida kondensatorlar.
7. Sferik kondensator elektr maydoni.
8. Reaktiv qarshiliklar. Nima uchun reaktiv qarshiliklarda issiqlik ajralmaydi.
9. Murakkab kondensatorlar. Sirqish toklari.
10. Elektr sig'imi aniqlashning boshqa usullarini tushuntiring.
11. Super kondensatorlar.
12. Ko'priksxemaning afzalliklari va kamchiliklарini tushuntiring.
13. Elektrolitik kondensatorlar, ularning vazifalari hamda tayyorlanish texnologiyalari.
14. Zamonaviy kondensatorlarning fan texnikada qo'llanilishi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]-21 bob, 218, 220-paragraflar, [3]-15 bob, 92-95-paragraflar, [5]-13 bob, 182, 182-paragraflar.


## 11 (65) - LABORATORIYA ISHI

### O'ZGARUVCHAN TOK UCHUN OM QONUNINI TEKSHIRISH

**Kerakli asboblar:** O'zgaruvchan tok generatori, qarshiliklar magazini, sig'imlar magazini, induktivlik (g'altak), milliampermetr, voltmetr.

**Laboratoriya ishining maqsadi:**

**Qisqacha nazariya:** O'zgaruvchan tok zanjirida ketma – ket ulangan aktiv qarshilik  $R$ , induktivlik  $L$  va sig'im  $C$  lar dan iborat sxemani ko'ramiz (11.1 – rasm).



11.1 – rasm.

Zanjirga ulangan tok manbaining E.Yu.Ki

(11.1)

ko'rinishda berilgan bo'lsa, bu zanjirdagi tok qanday qonun bilan o'zgaradi va yana E.Yu.K. ning amplituda qiymati va tokning amplituda qiymatlari orasidagi fazalar farqi qanday bo'ladi? Jarayonni kvazistasionar hisoblab, bu yopiq zanjir uchun Kirxgofning ikkinchi qoidasini qo'llaymiz.

(11.2)

Bu yerda  $U_R = iR$ ,  $U_C = \frac{q}{C}$ ,  $\varepsilon_{\text{ind}} = -L \frac{di}{dt}$  ekanini nazarga olib, quyidagicha ikkinchi tartibli to'liq differensial tenglamaga ega bo'lamiz.

$$L \frac{d^2i}{dt^2} + R \frac{di}{dt} + \frac{i}{C} = \varepsilon_0 e^{j\omega t} j\omega \quad (11.3)$$

Bu tenglama yechimini quyidagicha izlaymiz

(11.4)

(11.4) dan  $\frac{di}{dt}$  va  $\frac{d^2i}{dt^2}$  larni topib, (11.3) tenglamaga qo'yamiz, keyin haqiqiy va mavhum qismlarini tenglab, quyidagi ikkita tenglikga ega bo'lamiz:

$$\left. \begin{array}{l} R \sin \varphi + \left( \omega L - \frac{1}{\omega C} \right) \cos \varphi = 0 \\ R \cos \varphi - \left( \omega L - \frac{1}{\omega C} \right) \sin \varphi = \frac{\varepsilon_0}{i_0} \end{array} \right\} \quad (11.5)$$

(11.5) tengliklarning birinchisidan:

$$\varphi = \operatorname{arctg} \frac{\omega L - \frac{1}{\omega C}}{R} \quad (11.6)$$

(16.5) tengliklarni kvadratga oshirib, qo'shsak

$$i_0 = \frac{\varepsilon_0}{\sqrt{R^2 + \left( \omega L - \frac{1}{\omega C} \right)^2}} \quad (11.7)$$

larni olamiz. Bu erda  $i_0$  va  $\varepsilon_0$  lar tok kuchi va E.Yu.K larning amplitudaviy qiymatlari. (11.7) ifodaning maxrajai

$$Z = \sqrt{R^2 + \left( \omega L - \frac{1}{\omega C} \right)^2} \quad (11.8)$$

zanjirning to'liq qarshilikini (impedans) beradi. (11.8) da  $R$  - Omik qarshilik ( $\Omega$ ),  $X_L = \omega L$  - induktiv qarshilik ( $\Omega$ ),  $X_C = \frac{1}{\omega C}$  - sig'im qarshilik ( $\Omega$ ),  $\omega = 2\pi v$  - siklik chastota, L-induktivlik (Henri), C - sig'im (F), v - chastota (Hz)

Shunday qilib, agarda R, L, C -lar o'zgaruvchan tok zanjiriga ketma-ket ulansa va unga E.Yu.K.  $\varepsilon(t) = \varepsilon_0 e^{j\omega t}$  ko'rinishda bersak, zanjirdagi tok

$$i(t) = \frac{\varepsilon_0}{Z} \cdot \exp \left( j\omega t - \operatorname{arctg} \frac{\omega L - \frac{1}{\omega C}}{R} \right) t$$

ko'rinishdagagi qonun bilan o'zgarar ekan.

$\varepsilon(t)$  va  $i(t)$  larni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, E.Yu.K ning amplituda qiymati tokning amplituda qiymatidan  $\varphi$  - ga oldinda bo'lar ekan (agarda,  $\omega L > \frac{1}{\omega C}$  bo'lsa).

$$\varphi(\omega) = -\arctg \frac{\omega L - \frac{1}{\omega C}}{R} \quad \text{da uchta hol bo'lishi mumkin.}$$

I.  $\omega L > \frac{1}{\omega C}$  bo'lsa,  $\varphi$  - manfiy ishorali,

II.  $\omega L < \frac{1}{\omega C}$  bo'lsa,  $\varphi$  - musbat ishorali,

III.  $\omega L = \frac{1}{\omega C}$  bo'lsa,  $\omega^2 = \frac{1}{LC} = \omega_{rez}^2$ , bu holda rezonans hodisasi sodir bo'ladi.

Majburiy tebranish chastotasining kontur xususiy tebranish chastotasiga juda ham yaqinlashishi tebranish amplitudasini keskin kuchayishiga olib keladi. Bu hodisani rezonans hodisasi deyiladi. Ya'ni rezonansda  $\varphi=0$  bўлиб,  $Z=R$  bo'ladi. Rezonans chastotasi quyidagi teng bo'ladi:

$$\nu_{rez} = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}} \quad (11.9)$$

Agarda kontur rezonansga sozlansa, kontur qarshiligi minimum ( $Z = R$ ) bo'ladi va (11.7) ga asosan konturdagi tok maksimum bo'ladi. (11.7) va (11.8) -formulalardan:

$$i_0 = \frac{\varepsilon_0}{Z} \quad (11.7^1)$$

(11.7<sup>1</sup>) ni o'zgaruvchan tok uchun Om qonuni deyiladi.


O'zgaruvchan tokni o'lchaydigan asboblar – ampermetr va voltmetrlar uning effektiv qiymatlarini ko'rsatadi. Tok va kuchlanishlarning amplituda ( $i_0, \varepsilon_0$ ) va effektiv ( $i_{ef} = i, \varepsilon_{ef} = U$ ) qiymatlari orasidagi bog'lanish:  $i = \frac{i_0}{\sqrt{2}}$ ,  $\varepsilon = \frac{\varepsilon_0}{\sqrt{2}}$  bo'lgani uchun, o'zgaruvchan tok uchun Om qonunini tok va kuchlanishning effektiv qiymatlari yordamida quyidagicha ifodalaymiz:

$$i = \frac{U}{\sqrt{R^2 + \left( \omega L - \frac{1}{\omega C} \right)^2}} \quad (11.7^2)$$

O'zgaruvchan tok uchun Om qonunini keltirib chiqarganimizdan keyin uni tekshira boshlaymiz.

## I – USUL

11.2 rasmdagi elektr sxemani yig'ib,  $R=\text{const}$ ,  $L=\text{const}$ ,  $v=\text{const}$  va  $i$ -ni doimiy saqlab sig'implar magazinidan  $C$  – larni o'zgartirib, ularga mos kelagan  $U_i$ -lar 1 – jadvalga yoziladi.



11.2 – rasmi.

Kondensatorning sig'imi va voltmetrning ko'rsatishi o'zgarishlariga binoan (11.7) formulani quyidagicha ifodalaymiz.

$$\left[ \left( \frac{U_K}{i} \right)^2 - \left( \frac{1}{\omega C_K} \right)^2 \right] = R^2 + (\omega L)^2 + (-2\omega L) \cdot \left( \frac{1}{\omega C_K} \right)^2 \quad (11.10)$$

Ushbu belgilashlarni kiritib,

$$X_K = \left( \frac{1}{\omega C_K} \right)^2, Y_K = \left[ \left( \frac{U_K}{i} \right)^2 - X_K^2 \right]; A = R^2 + (\omega L)^2, B = -2\omega L$$

quyidagi to'g'ri chiziq tenglamasini hosil qilamiz

$$y_K = A + BX_K \quad (11.11)$$

1- jadval.

K	$C(i)$ (мкФ)	$U(i)$ (V)
1		
2		
3		
...		

Tajribadan olingen va 1-jadvalga kiritilgan kattaliklarni (11.11) formulaga qo'yib, K-ta tenglamalar sistemasi uchun eng kichik kvadratlar usulini qo'llab, tenglamadagi A va B koeffisientlarini topamiz.

1) Topilgan A va B koeffisientlardan ularga kirgan parametrlarni, ya'ni  $L$ ,  $R_0 = R + X_L$ ,  $v_{rez}$  va boshqalarni topiladi.

2) 1-jadvaldan olingen kattaliklarga binoan  $X_K$  bilan  $\omega$  orasidagi bog'lanish grafigi chiziladi.

3) A va B qiymatlar topilgan holda, bu qiymatlarni  $Y_K = A + BX_K$  ga qo'yib, yana 1-jadvalga asosan  $X_K = X_k^1 = \frac{1}{2\pi\omega C_k}$  qiymatlarni qo'yib,  $Y_K$  bog'lanish grafigi chiziladi. (2) va (3) bandlarga asoslanib chizilgan grafiklar taqqoslanadi

4) 11.2 - rasmida berilgan sxemadagi L va C lardan  $v_{rez}$  ni hisoblab eng kichik kvadratlar usuliga binoan topilgan  $v_{rez}$  bilan taqqoslanadi.

## II -- USUL

(11.10) formulani quyidagicha yozamiz:

$$\left(\frac{U_K}{i}\right)^2 = R^2 + (\omega L)^2 + (-2\omega L) \cdot \left(\frac{1}{\omega C_K}\right) + \left(\frac{1}{\omega C_K}\right)^2$$

(11.13)

va belgilashlar kiritib

$$X_K = \frac{1}{2\pi\omega C_K}, Y_K = \left(\frac{U_K}{i}\right)^2$$

$$A = [R^2 + (2\pi\omega L)^2], \quad B = (-4\pi\omega L), \quad D = 1$$

quyidagi tenglamani olamiz.

$$Y_K = A + B \cdot X_K + D \cdot X_K^2 \quad (11.14)$$

1-jadvaldagagi tajriba natijalarini (11.14) formulaga qo'yib, K-ta tenglamalar sistemasi uchun eng kichik kvadratlar usulini ishlatib, (11.14) tenglamadagi koeffisientlar A, B, D lar topiladi.

1) bu koeffisientlarga kirgan L,  $v_{rez}$ ,  $R = R_0 + X_L$  va bularning hatoliklarini topish kerak.

2) 1-javvaqga kirmungan natijalariga asosan (11.14) formulaga  $X_K$  - kattaliklarni topib,  $Y_K$  bilan  $X_K$  orasidagi tajribadagi bog'lanish grafigi chiziladi.

3) Topilgan A, B, D kattaliklarning qiymatlarini (11.14) formulaga qo'yib turli  $X_K$  - lar uchun nazariy grafik chiziladi va tajribadan, nazariyadan olingan grafiklar taqqoslanadi.

4) Tajriba natijalaridan va nazariyadan hisoblangan  $v_{rez}$  larni taqqoslanadi.

### III - USUL

11.2 - rasm yordamida,  $L=\text{const}$ ,  $R=\text{const}$ ,  $C=\text{const}$  va  $i$  -ni doimiy saqlab, tovush generatoridan chastota  $v$  ni o'zgartirib, unga to'g'ri kelagan  $U_i$ -lar 2-jadvalga kiritiladi.

2-jadval

K	$v(I)$ , (Gs)	$U(i)$ , B
1	$v_1$	$U_1$
2	$v_2$	$U_2$
3	$v_3$	$U_3$
.	.	.
.	.	.
.	.	.

2-jadvaldagagi natijalarga asosan (11.7<sup>2</sup>) formulani quyidagicha yozamiz:

$$\left(\frac{U_K}{i}\right)^2 = R^2 - \frac{2L}{C} + L^2 \cdot \omega^2 + \left(\frac{1}{C}\right)^2 \cdot \frac{1}{\omega_R^2} \quad (11.16)$$

$$\omega_K = 2\pi v_K$$

$$\left(\frac{U_K}{i}\right)^2 = \left(R^2 - \frac{2L}{C}\right) + L^2(2\pi v_K)^2 + \left(\frac{1}{C}\right)^2 \cdot \frac{1}{(2\pi v_K)^2} \quad (11.16^1)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritib.

$$X_K = (2\pi v_K)^2 ; \quad Y_K = \left(\frac{U_K}{i}\right)^2 ; \quad A = \left(R^2 - \frac{2L}{C}\right) ; \quad B = L^2 ; \quad D = \left(\frac{1}{C}\right)^2$$

ushbu tenglamani hosil qilamiz:

$$Y_K = A + B \cdot X_K + \dots \quad (11.17)$$

Bu formulaga 2-jadvaldag'i natijalarni qo'yib, K-ta tenglamalar sistemasini olamiz. Bularga eng kichik kvadratlar usulidan foydalanim tenglama koeffisientlari A, B, D lar topiladi.

1). Ushbu A, B, D larga kirgan fizik kattaliklar: L, C, R<sub>0</sub>lar va ularning xatoliklari topiladi.

2). 2 jadvalga asosan  $X_K$  bilan  $Y_K$  larning bog'lanish grafigi chiziladi (tajribada olingan grafik).

3) A, B, D larning qiymatlari (11.17) formulaga qo'yilib, turli  $X_K$  lar uchun nazariy grafik chiziladi va bu grafik tajriba grafigi bilan solishtiriladi.

4)  $v_{rez} = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}}$  rezonans chastotasi, eng kichik kvadratlar usuli bilan topilgan rezonans chastotasi bilan solishtiriladi.

## IV-USUL

(11.8) formulada keltirilgan zanjirning to'liq qarshiligi o'zgaruvchan tok chastotasiga bog'liq. Bu yerda R=const, L=const, C=const (11.8) formuladan ko'rindiki:

1)  $\omega = 0$  da  $Z(\omega)$  cheksizlikka intiladi;

2)  $\omega > 0$  qiymatlarda  $Z(\omega)$  kamaya boradi.

3)  $\omega L = \frac{1}{\omega C}$  bo'lganda  $\omega, \frac{1}{\sqrt{LC}}$  bo'ladi va  $Z(\omega_r) = R$  bo'lib, eng kichik qiymatga ega bo'ladi.

4)  $\omega > \omega_p$  bo'lganda  $Z(\omega)$  lar qiymati yana orta boradi.

5) tajribada berilgan R, L, C va 2-jadvaldag'i  $v_k$ lar qiymatlariga asosan (11.8) – formula uchun  $Z(\omega)$  lar hisoblanadi va  $Z(\omega)$  bilan  $\omega$  orasidagi bog'lanish grafigi chiziladi. Bu chizilgan grafikada  $\omega_z$  topiladi va bu grafik 1,2,3,4 bandlarda aytilganlar bilan taqqoslanadi.

## **Nazorat savollari**

1. O'zgaruvchan toklar uchun Om qonunini ta'riflang va isbotini keltiring.
2. O'zgaruvchan tok zanjirida aktiv qarshilik, kondensator va induktiv g'altak bo'lgan hollar uchun tok va kuchlanishlar tebranishlari orasidagi munosabatlari.
3. Kuchlanishlar rezonansi.
4. Toklar rezonansi.
5. O'zgaruvchan tok zanjirida bajarilgan ish. Aktiv va reaktiv qarshiliklar bo'lgan hol.
6. Quvvat koeffisienti va uni oshirish usullari.
7. O'zgaruvchan tokning samarador qiymatlari.
8. O'zgaruvchan tok generatorlari.
9. Ikki va uch fazali o'zgaruvchan toklar.
10. Skin effekti.
11. O'zgaruvchan toklarni rostlash. Drossellar.
12. Sinxron va assinxron dvigatellar.
13. Nima uchun reaktiv qarshiliklarda issiqlik ajralmaydi?
14. Nima uchun kondensatorda kuchlanish tebranishlari tok tebranishlarida  $\pi/2$  faza kechikadi?
15. Nima uchun induktiv g'altakda tok tebranishlari kuchlanish tebranishlaridan  $\pi/2$  faza kechikadi?
16. Nima uchun aktiv qarshilikda tok va kuchlanish tebranishlari orasida faza siljishlar kuzatilmaydi?
17. O'zgaruvchan toklarning doimiy toklardan afzalliklariva kamchiliklari.

## **Foydalanimagan adabiyotlar**

[1]-21 bob, 217-220-paragraflar; [2]-10 bob, 129, 130-paragraflar; [3]-15 bob, 92-96-paragraflar; [5]-13 bob, 178-183-paragraflar.


## 12 - LABORATORIYA ISHI

### ERKIN ELEKTROMAGNIT TEBRANISHLAR

**Ishga kerakli asbob va uskunalar:** Yuqori induktivli chulg'am, kondensator, asos taglik (bir juft), bridging plugs, DC ta'minlash manbai  $0... \pm 15$  V, multimeter LD analogli, qo'l sekundomeri, ularash simlari.

**Ishning maqsadi:** Elektr tebranishlar konturi bilan tanishish, tebranish konturiminh xususiy chastotasini aniqlash, tebranish zanjirida tok va kuchlanish o'zgarishini tahlil qilish.

**Qisqacha nazariya:** Bugungi kunda kommunikatsiya va hisoblash texnikalarini elektr tebranish konturlarisiz ta'savur qilib bo'lmaydi. Ideal LC elektr tebranish konturida energiya yo'qotilishi, so'nish bo'lmaydi. Ammo bu hol faqat nazariy jihatdan mumkin. Amalda esa tebranish konturlarida elektr tebranish konturidagi L va C zanjiriga ketma – ket ravishda aktiv qarshilik ham mavjud bo'ladi.



12.1 – rasm. Kalitli tebranish konturi  
Kirxgofning ikkinchi qonuni bo'yicha,

$$\sum_i U_i = 0 \quad (12.1)$$

Bu tenglama zanjirdagi barcha kuchlanishlar yig'indisi nolga teng ekenligini bildiradi. Bu qonun ichki qarshilikka ega bo'lgan tebranish konturida ham o'rinnlidir (12.1 – rasmga qarang). Kirxgofning ikkinchi qonuniga asosan tebranish konturida:

$$- \quad (12.2)$$

Ma'lumki, kondensator sig'imi —, aktiv qarshilik kuchlanishi (Om qonuni) va g'altakdag'i reaktiv kuchlanishi kabi aniqlanadi. I tok kuchining diferensial tenglamasini (12.2) tenglama hadlarini  $L$  ga bo'lib, —  $I$ , deb hisoblab quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

(12.3)


bu yerda  $\sqrt{LC}$  — xususiy chastota, — konturning asilligi. Bu matematik differensial tenglamani yechish uchta xususiy holga olib keladi.

(12.3) tenglama  $I(t) = I_0 \cdot e^{-i\omega t}$  kabi yechimga olib keladi, bu erda  $I_0$  tebranish amplitudasi,  $\omega = \sqrt{\omega_0^2 - \gamma^2}$  — tebranish chastotasi.

Birinchi hol  $\omega_0^2 - \gamma^2 < 0$ , bu holda sistema muvozanat holatiga eksponensial qonuniyat asosida tebranishlar hosil qilmasdan qaytadi.

Ikkinchi hol  $\omega_0^2 - \gamma^2 = 0$ , bu hol kritik (keskin) so'nish holati deyiladi. Sistema tebranishlarsiz tezda muvozanat holatiga qaytadi.

Uchinchi hol  $\omega_0^2 - \gamma^2 > 0$ , bunda sistemada tebranishlar kuzatiladi va amplitude eksponensial qonun bo'yicha kamayib boradi, so'nish kuzatiladi (12.2 – rasmga qarang).



12.2 – rasm. Kuchlanish va tok kuchi tebranishlari.

Bu tajribada faqat oxirgi holatni kuzatish mumkin. Kondensatordai boshlang'ich kuchlanish  $U_0$  bo'lsa, induktiv g'altakda o'tuvchi tok kuchi quyidagicha aniqlanadi:

(12.4)


bu yerda boshlang'ich tok kuchi —, — yuqorida keltirilgani kabi. Kondensatordagi kuchlanish undagi zaryad miqdoriga mutonosib, shuning uchun zaryad miqdori tok kuchining integraliga proporsional bo'ladi. (12.4) tenglamadagi kosinus tok kuchi va kuchlanish qiymatlari orasida  $90^\circ$  fazalig'i siljishi borligini bildiradi;

(12.5)

### Tajriba qurilmasi

Qurilma 12.3 – rasmida keltirilgan.

1. Dastlab, kondensatorni razryadlash uchun qisqa tutashtiring.
2. Induktiv g'altak va kondensatorni asos taglikka o'mating.
3. Induktiv g'altak va kondensatorni bir chiziqda joylashtiring va ularni ikkita shtepsellar bilan ulang.
4. Kondensatorga o'zgarmas tok manbaini ulang, o'rtadagi Yerga ulash chiqishiga ulamang.
5. Kuchlanish muruvatini 0 V ga qo'ying.
6. Multimeterni induktiv g'altakka parallel ulang va DC kuchlanishni 3 V ga qo'ying.
7. Ta'minlash manbaini stendga ulang.
8. Qo'l sekundomerini ishga tayyorlang.



12.3 – rasm. Tajriba qurilmasi.

## Ishni bajarish tartibi

1. Kondensator ostidagi kalitni chap tomonga ulang, 12.3 – rasm asosida (kalit 12.1 - rasmida «S» bilan belgilangan).
2. Ta'minlash manbaini ulang.
3. Ta'minlash kuchlanishini 3 V qilib tanlang.
4. Kuchlanish ortishdan to'xtarmaguncha va kondensator to'la zaryadlanmaguncha kuting.
5. Endi kalitni manbadan induktiv g'altakga ulang va tebranish konturiga kuchlanish bering.
6. Kuchlanishning ikki maksimumi orasidagi vaqtini aniqlash uchun qo'l sekundomeridan foydalaning.
7. Kondensatorni zaryadlash uchun oxirgi uch amalni takrorlang va boshqa kuchlanish maksimumlari orasidagi vaqtini 4 marta o'lchang.
8. Ta'minlash manbaini tarmoqdan uzing va kondensatorni ta'minlash manbidan ajrating.
9. Razryadlash uchun kondensator qutblarini qisqa tutashtiring.

## O'lchash namunasi

**Baholash – solishtirish:** Dastlab, ikki maksimum orasidagi  $\Delta t$  vaqtning o'rtacha qiymatini hisoblang. Bunda  $\Delta t$  ni topish uchun T davrni topishning Tomson formulasidan foydalaning:

$$T = 2\pi \cdot \sqrt{LC} \quad (12.6)$$

Bundan, L va C ko'paytmasini toppish mumkin:

$$L \cdot C = \frac{\Delta t^2}{4 \cdot \pi^2} \quad (12.7)$$

Nazariya va tajribani solishtirish uchun LC ning aniq qiymatlarini  $H F$  ni bilgan holda (qurilmaga qarang) aniqlash mumkin:

	Nazariya bo'yicha	Tajribada

## Natijalar

LC qiymatlarning nazariya va tajribada olinganlari orasida farq mavjud. Elektr qarshilik nazariya qiymatidan taqriban 0.4% ga kamroq. Shuning uchun farqning sababini boshqa joydan qidirish lozim. Bu yerdagi asosiy sabab induktivlikning tok kuchiga

bog'liqligidir. G'altak o'zagi magnit singdiruvchanligi magnit maydoni kuchlanganligiga bog'liq va u o'z navbatida tok kuchiga chiziqli bog'liq bo'ladi.

### **Texnika xavfsizligi yo'riqnomasi**

Tajriba qurilmasida tajribalar hayot uchun xavfsiz past kuchlanishlarda olib borilishi zarur:

- DC – o'zgarmas tok kuchlanishi maximum - 60 V,
- AC – o'zgaruvchan tok kuchlanishi maximum – 25 V.

### **Nazorat savollari**

1. Kvazistatsionar tok nima?
2. Tebranish konturi tenglamasini yozing va tushuntiring
3. Erkin so'nmas elektr tebranishlarni hosil qilish shartlari nimalardan iborat?
4. Erkin so'nuvchi elektr tebranishlarni tushuntiring
5. Kontur aslligi nima?
6. Kondensatorning aperiodik razryadlanishi deganda nimani tushuniladi?
7. Konturning kritik qarshiligi nima?

### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

[1]-21 bob, 217-220-paragraflar; [2]-10 bob, 129, 130-paragraflar; [3]-15 bob, 92-96-paragraflar; [5]-13 bob, 178-183-paragraflar.

## 13 (84) – LABORATORIYA ISHI

### MAGNIT O'ZAKKA EGA BO'L MAGAN INDUKTIV G'ALTAKNING MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH

**Kerakli asbob va uskunalar:** O'ramlar konsentratsiyasi variable, o'zgaruvchan g'altak, yuqori tokli manba, teslameter, aksial B – probe, ko'p o'zakli sim, g'altak va trubka uchun tutgich, egarsimon asos.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Magnit o'zakka ega bo'l magan induktiv g'altakning magnit maydonini undan o'tayotgan  $I$  tok kuchining funksiyasi sifatida o'lhash, magnit o'zakka ega bo'l magan induktiv g'altakning magnit maydonini uning uzunligi  $L$  va o'ramlar soni  $N$  ning funksiyasi sifatida o'lhash.

**Qisqacha nazariya:** Elektr toki o'tkazayotgan o'tkazgichlar orasida pondemotor (mexanik) o'zaro ta'sir kuchlari paydo bo'ladi. Bu kuchlarning kattaligi o'tayotgan tokning miqdori va o'tkazgichlarning o'zaro joylashishiga bog'liq bo'ladi.

Istalgan tokli o'tkazgichning atrofidagi fazoning hamma nuqtalarida toklar hosil qilgan kuch maydoni mavjud bo'ladi. Bu maydon tokning magnit maydoni deb ataladi. "Magnit maydoni" iborasi ingliz fizigi M.Faradey tomonidan kiritilgan. Faradey fikricha, ham elektr ham magnit o'zaro ta'sirlar qandaydir yagona moddiy maydon ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Tokli o'tkazgichlar hosil qilgan makroskopik magnit maydon zaryadlangan zarrachalarning (elektronlar, protonlar, ionlar) harakati natijasida hosil bo'ladi.

Magnit maydonining asosiy xarakteristikasi sifatida magnit maydon induksiysi vektori  $\vec{B}$  hisoblanadi. U turli mikroskopik maydonlar yig'indisining o'rtacha qiymatini ifodalarydi.


Harakatlanayotgan zaryad hosil qilgan magnit induksiysi  $B$  ning qiymati va yo'nalishi zaryad kattaligiga, uning tezligiga va o'lchanayotgan nuqtadan qancha masofada joylashganiga bog'liq bo'lishi tushunarli. Agar zaryad o'rniga tok elementi -  $Idl$  olinsa, o'tkazgich joylashgan fazoning istalgan nuqtasida magnit maydon vektorini hisoblab chiqish mumkin.

Bio-Savar-Laplas qonumi tok elementi hosil qilgan magnit maydoni induksiysisini topishga imkon beradi:

$$\vec{B} = \frac{\mu_0 (d \times \vec{r})}{l} \quad (13.1)$$

Bu yerda  $d$  – tok elementi,  $I$  – o'tkazgichdagı tok kuchi,  $l$  – vektor,  $\mu_0$  modul bo'yicha o'tkazgich  $dl$  uzunligiga teng va yo'nalishi tok yo'nalishi bilan bir hil,  $\mu$  – muhitning magnit singdiruvchanligi (vakuum uchun  $\mu = 1$ ),  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7}$  Hn/m – magnit doimiysi, o'tkazgich elementi  $dl$  o'rtasi bilan magnit induksiyasi o'lchanayotgan nuqta orasidagi radius – vektor.

$\vec{B}$  – vektor yo'nalishi ikki vektoring vektor ko'paytmasi qoidasiga ko'ra aniqlanadi va markazi  $d\vec{l}$  – vektor bo'ylab yo'nalan o'q atrofida kontsentrik aylanalardan iborat bo'ladi. Bu aylanalar magnit maydon kuch chiziqlari deb ataladi.  $d\vec{l}$ ,  $d\vec{B}$  va  $d\vec{B}$  vektorlar o'ng parma qoidasiga bo'ysunadi (13.1 – rasm).




13.1 – rasm.

Magnit maydoni induksiyasi  $\vec{B}$  ning kattaligi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$|dB| = \dots \quad (13.2)$$

Bu yerda  $\alpha$  –  $dl$  va  $\vec{r}$  vektorlar orasidagi burchak.

Aylanma tokli o'tkazgichni ko'rib chiqaylik. Shu aylananing markazidan o'tgan va aylana tekisligiga perpendikulyar o'qda joylashgan biron nuqtadagi magnit maydon induksiya vektori  $\vec{B}$  ning kattaligi va yo'nalishini aniqlaylik (13.2 – rasm).



13.2 – rasm.

$R$  radiusli aylanma tokda biror  $d\vec{l}$  element ajratib olaylik. Undan simmetriya o'qida joylashgan A nuqtagacha radius – vektor o'tkazamiz. A nuqtada  $d\vec{B}$  vektorning yo'naliishi (13.1) vektor ko'paytma orqali aniqlanadi.

Magnit maydonlari superpozitsiyasi printsipiga ko'ra A nuqtadagi magnit maydonining natijaviy induksiyasi aylanma tok hamma elementlarining hosil qilgan maydonlari yig'indisiga teng bo'ladi.

Natijaviy maydonning yo'naliishi simmetriya o'qi bo'ylab yo'nalган bo'ladi va uning kattaligi quyidagi integral orqali topiladi:

$$B = \int_L s\beta = Ico \quad (13.3)$$

bu yerda  $\alpha = \vec{r}$  va  $d\vec{l}$  vektorlari orasidagi burchak, ( $\alpha$ ) ; va aylanma o'tkazgich radiusi  $R$  orasidagi burchak; – aylanma o'tkazgich uzunligi.

Integrallash amalini bajarib quyidagi ifodani topamiz:

$$\int_{-\pi}^{\pi} \int_{-\pi}^{\pi} \int_{-\pi}^{\pi} \frac{3}{2} \quad (13.4)$$

bu yerda  $a$  – aylana markazidan A nuqtagacha bo'lgan masofa; I – konturdagи (yassi chulg'AMDAGI) tok kuchi.

Agar aylanma o'tkazgich havoda joylashgan bo'lsa (13.4) ifodadagi muhitning magnit singdiruvchanligi  $\mu$  ni taxminan 1 ga teng deb olish mumkin.

### Solenoidning magnit maydoni

Solenoid deb izolyatsiyalangan simdan yasalgan o'ramlari ko'p bo'lgan silindrik ko'rinishdagi cho'lg'amga aytildi. Solenoiddagи

vint qadami kichik bo'lsa cho'lg'amning har bir qismini aylana deb qabul qilish mumkin. Simmetriya nuqtai nazaridan qaraganda, solenoid ichida hosil bo'lgan magnit maydon induksiyasi uning o'qi bo'ylab yo'nalgan va tok yo'nalishi bilan o'ng vint sistemaini tashkil etadi (13.3 – rasm).

Solenoid o'qidagi magnit maydonni quyidagicha hisoblash mumkin. Solenoidda kichik  $dl$  bo'lakcha olaylik. Bu uzunlikka ndl dona o'ramlar ( $n=N/L$  – uzunlik birligiga to'g'ri keladigan o'ramlar soni,  $N$  – o'ramlarning umumiy soni,  $L$  – solenoid uzunligi) to'g'ri keladi. Har bir o'ramdagi tok kuchini  $I$  deb olsak, unda solenoidning  $dl$  bo'lagini  $Indl$  aylanma tok deb qabul qilsak bo'ladi. Solenoid o'qida shu bo'lak hosil qilgan magnit maydon induksiyasi, (13.4) ga ko'ra, quyidagiga teng:

$$dB_x = \frac{\mu_0 R^2 Indl}{2 \cdot (R^2 + x^2)^{3/2}} \quad (13.5)$$

bu yerda  $x$  - gorizontal o'q bo'ylab dl bilan A nuqta orasidagi masofa,  $R$  - o'ram radiusi (13.4 – rasm).

Solenoid o'qining musbat yo'nalishi (solenoid o'qining musbat yo'nalishi solenoiddagi tok bilan o'ng parma qoidasiga asosan bog'langan) bilan nuqtamizdan  $dl$  bo'lakka o'tkazilgan radius – vektor orasida  $\beta$  burchak kiritaylik. Unda

$$l = x = R \operatorname{tg} \beta, \quad r^2 = R^2 + x^2 = R^2 / \sin^2 \beta$$

bu yerdan  $dl = -\frac{R \cdot d\beta}{\sin^2 \beta}$ . Unda  $dB_x$  quyidagicha bo'ladi:

$$dB_x = -\frac{\mu_0 I n \cdot \sin \beta d\beta}{2} \quad (13.6)$$


A nuqtada magnit maydon induksiyasining umumiy qiymatini aniqlash uchun hamma dl bo'laklar hosil qilgan hamma  $dB_x$  larning yig'indisini topish kerak, yoki (13.6) ifodani  $\beta$  burchak bo'yicha integrallash lozim:

$$B_x = -\frac{\mu_0 I n}{2} \int_{\beta_2}^{\beta_1} \sin \beta d\beta = \frac{\mu_0 I n}{2} (\cos \beta_1 - \cos \beta_2) = \frac{\mu_0 I n}{2} (\cos \beta_1 + \cos \beta_3) \quad (13.7)$$

bu yerda  $\cos \beta_1 = \frac{L-a}{\sqrt{R^2 + (L-a)^2}}$ ,  $\cos \beta_3 = \frac{a}{\sqrt{R^2 + a^2}}$ , ga teng.

Solenoidning chap tomonidagi nuqtada  $\beta_3 = \pi/2$  shuning uchun induksiya

formula bo'yicha hisoblanadi. Cheksiz uzun solenoid uchun  $\beta_1 = 0$  va va bundan solenoid ichidagi magnit maydon ga teng bo'ladi.



13.4 – rasm.

### Tajriba qurilmasi

Tajriba qurilmasi 13.5 – rasmida tasvirlangan. Uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi o'ramlar soni o'zgaruvchan bo'lgan induktiv g'altakni trubka va g'altak uchun moslangan shtativga o'mnating va uni yuqori tokli manbaga ulang.

Aksial B – namunani teslametrga ko'p o'zakli sim orqali ulang, uni namuna manbasidan chiquvchi shtativ tayoqchasiga mahkamlang va Xoll datchigi ( $a$ ) induktiv g'altakning ichki qismining markaziga joylashadigan qilib yo'naltiring.

### Tajribalarni bajarish tartibi

**a) Tok kuchi I ning funksiyasi sifatida o'lchashlar:** Teslametrda 20 mT o'lchash diapazonini tanlang va uni kompensatsiya ruchkasi yordamida 0 ni kalibrovka qiling.

(b,c) ulash klemmalarini birgalikda simmetrik ravishda shunday o'mnatingki g'altak uzunligi 15 cm bo'lgan (b klemma 12.5 cm da, c klemma 27.5 cm da joylashsin)


Tok kuchi I ni har safar 2 A dan orttirib borib unga mos keluvchi B magnit maydonini aniqlang. ( $I=20$  A gacha)

Tok kuchi I ni har safar 2 A dan kamaytirib borib unga mos

keluvchi B magnit maydonini aniqlang. ( $I=0$  A gacha) va teslametr nolini tekshirib ko'ring.

**b) G'altak uzunligi L ning funksiyasi sifatida o'chashlar:** G'altakdan o'tayotgan tok kuchini  $I=20$  A ga o'mating.

Galtakning uzunligi L ni o'zgartirish uchun b va c klemmalarni simmetrik ravishda ikki tarafga siljiting va har safar B magnit maydonini o'lchang.



13.5 – rasm.

Har bir yangi tajribada tok kuchini kamaytira borib uning qiymati 0 ga borguncha takrorlang va teslametr nolini tekshirib ko'ring.

### O'lchash misollari

**a). Tok kuchi  $I$  ning funksiyasi sifatida o'lchashlar (1 – jadval).**  $N = 30$  va  $L = 15$  cm uchun o'lchashlar.

1 – jadval

Nº	$I$ , A	$B$ , mT
1		
2		
...		

**b) G'altak uzunligi L ning funksiyasi sifatida o'chashlar (2 – jadval).**  $N=30$  va  $I=20$  A uchun o'lchashlar.

2 – jadval

Nº	$L$ , cm	$B$ , mT
1		
2		

## **Hisoblashlar va natijalar**

1. B magnit maydoni induktsiyasining tok kuchi I ga bog'liqligi grafigi chizilsin va tahlil qilinsin.
2. B magnit maydoni induktsiyasining g'altak birlik uzunlikka to'g'ri keluvchi o'ramlar soni  $n = N/L$  ga bog'liqligi grafigi chizilsin va tahlil qilinsin.

## **Nazorat savollari**

1. Magnit oqimi. Induktivlik va uning birliklari.
2. Magnit maydon energiyasi va zichligi.
3. Solenoid va toroid induktivliklarini hisoblash.
4. Induktiv g'altak magnit maydonini hasoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. Nima uchun uzun g'altak ichida magnit maydoni bir jinsli bo'ladi?
6. Nima uchun uzun g'altak tashqarisida magnit maydon deyarli kuzatilmaydi?
7. Magnit o'zakli induktiv g'altak ichida magnit maydoni qanday usullarda o'lchanadi?
8. Agar induktiv g'altak bifilyar bo'lsa o'zakli va o'zaksiz g'altak ichida magnit maydon qanday bo'ladi?
9. Magnit o'zakka ega bo'lмаган induktiv g'altakning magnit maydonini o'lhash xatoliklari nimalarga bog'liq?
10. Magnit shamollari o'lhash natijalariga qanday ta'sir etadi?
11. O'zak ichida harakatlanuvchi magnit datchik qanday tuzilishga ega va uning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]-21 bob, 217-220-paragraflar; [2]-10 bob, 129, 130-paragraflar; [3]-15 bob, 92-96-paragraflar; [5]-13 bob, 178-183-paragraflar.

## VAKUUMLI DIODNING VOLT - AMPER XARAKTERISTIKASINI O'RGANISH

**Kerakli asbob va uskunalar:** Planar diod, universal taglik, o'zgarmas tok manbai, ampermestr, voltmetr, taqsimlash qutisi, xavfsiz ulash simlari.

**Laboratoriya ishining maqsadi:** Vakuumli diodning volt – amper xarakteristikasini katodni qizdirish kuchlanishining uch qiymatida o'lchash, hajmiy manfiy zaryadning anod maydoniga qarshi ta'sir sohasini va VAX ining to'yinish sohasini aniqlash, Boguslavskiy - Lengmyur qonunini tekshirish.

**Qisqacha nazariya:** Metallarda issiqlik harakatida ishtirok etuvchi o'tkazuvchanlik elektronlari mavjud bo'lishi ma'lum. Elektronlar metall ichida saqlangani uchun sirt yaqinida elektronlarga ta'sir qiluvchi va metallning ichiga qarab yo'nalgan kuchlar mavjud bo'ladi.

Bu kuchlar elektronlar va panjaraning musbat ionlari orasidagi tortishish tufayli paydo bo'ladi.


Bunday o'zaro ta'sir natijasida metallarning sirtqi qatlamida elektr maydon hosil bo'ladi, potensial esa tashqi fazodan metall ichiga o'tishda qandaydir  $\varphi$  kattalikka ortadi. Bunga mos ravishda elektronning potensial energiyasi  $e \cdot \varphi$  qadar kamayadi.

Chekli metall uchun elektronning potensial energiyasi taqsimoti 14.1 – rasmdagi energetik diagrammada ko'rsatilgan.

Bu yerda  $W_0$  – metall tashqarisida tinch turgan elektronning sathi,  $E_c$  – o'tkazuvchanlik elektronlarining eng kichik energiyasi (o'tkazuvchanlik zonasining tubi).

Potensial energiya taqsimoti potensial o'ra ko'rinishda bo'ladi. Uning chuqurligi  $\chi = e \cdot \varphi = W_0 - E_c$  ga teng.

Bu kattalik elektron yaqinlik deb ataladi va moddaning muhim xarakteristikasidir.



14.1 – rasm. Elektronning potensial energiyasi  $U$  ning chekli metallda taqsimlanishi:  $\chi$  elektron yaqinlik,  $\varphi = W_0 - F$  – termoelektron chiqishishi.

Agar metall ichida elektron  $W_0$  dan kichik bo'lgan  $W_1$  to'la energiyaga ega bo'lsa (14.1 – rasm), u holda elektron metallni tashlab keta olmaydi. Elektronning metalldan uchib chiqish sharti  $W$  bo'ladi.


Xona temperaturalarida metallar va yarimo'tkazgichlardagi deyarli barcha elektronlar uchun bu shart bajarilmaydi va elektronlar o'tkazgich chegarasida bog'langandir. Biroq elektronlarga turli usullar bilan qo'shimcha energiya berish mumkin. Bunday holda metall elektronlarning bir qismi metallni tashlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi va biz elektronlar chiqarish, ya'ni elektron emissiya hodisasini kuzatamiz.

Elektronlarga energiya qanday usulda berilishiga bog'liq holda biz elektron emissiyaning turli xillari to'g'risida gapirishimiz mumkin. Agar elektronlar jismlar temperaturasining ko'tarilishi natijasida jism issiqqlik energiyasi hisobiga energiya olayotgan bo'lsa bunday emissiya termoelektron emissiya; elektronlarga yorug'lik yordamida energiya berilayotgan bo'lsa, bunday emissiya fotoemissiya yoki fotoelektr effekti; agar energiya elektronlarga biror tashqi boshqa zarralar (elektronlar, ionlar) bilan bombardimon qilishda berilgan bo'lsa, bunday emissiya ikkilamchi elektron emissiya deb ataladi.

Termoelektron emissiyani kuzatish uchun havosi so'rib olingan ikki elektrodli lampadan foydalanish mumkin. Uning bir elektrodi

qiyin eriydigan material (volfram, molibden va h.k) dan yasalgan, tok bilan maxsus chug'lantiriladigan sim (katod), ikkinchisi esa termoelektronlarni qabul qilivchi sovuq elektrod (anod). Bunday lampalar radiotexnikada o'zgaruvchan toklarni to'g'irlashda keng qo'llanilgan. Diodning anodi ko'pincha silindr shaklida yasalib uning ichiga chug'lanaqidigan katod joylashtiriladi. Agar vakuumli diod, kuchlanish manbai va milliampermetrdan iborat elektr zanjir tuzilsa (14.2 – rasm), u holda katod sovuq bo'lganda zanjirda tok paydo bo'lmaydi, chunki diod ichidagi kuchli siyraklangan gazda (vakuumda) zaryadlangan zarralar yo'q va shuning uchun diodning elektr o'tkazuvchanligi amalda nolga teng bo'ladi. Agar diod katodini qo'shimcha tok manbai yordamida yuqori temperaturagacha chug'lantirilsa, milliampermetr tok paydo bo'lganini qayd qiladi.


Diod zanjirida tok faqat batareyaning musbat qutbi anod bilan, manfiy qutbi esa katod bilan ulangandagina paydo bo'ladi. Agar diodga berilgan potensiallar farqining ishorasi o'zgartirilsa, u holda katodni qanchalik kuchli chug'lantsak ham zanjirda tok paydo bo'lmaydi. Bu hol katodning manfiy zarralar, ya'ni elektronlar chiqarishini va musbat ionlar metallni sezilarli miqdorda tark etmasligini bildiradi.



14.2 – rasm. Termoelektron emissiyani kuzatish sxemasi.

Diodddagi termoelektron tok kuchi anodning katodga nisbatan qanday kattalikda potensialga ega ekaniga bog'liqdir (biz katodning o'zida kuchlanish tushishi juda kichik deb hisoblaymiz va shuning uchun anod potensiali katodning qaysi nuqtasiga nisbatan o'lchanishini aniqlab o'tirmaymiz). Diodddagi tok kuchining anod kuchlanishiga bog'liqligini tasvirlovchi egri chiziq (volt – amper

xarakteristikasi) 14.3 - rasmida tasvirlangan. (014 egri chiziq). Anc potensiali 0 ga teng bo'lganda, diod orqali o'tgan tok kuchi juc kichik bo'ladi. Anodning musbat potensiali ortganda tok kuchi (egri chiziqqa muvofiq ortadi. Anod kuchlanishining yanada ortishic tok kuchi biror maksimal  $i_s$  qiymatga erishadi, bu qiymat diodni to'yinish toki deb ataladi va bu qiymat endi anod kuchlanishi deyarli bog'liq bo'lmay qoladi (xarakteristikaning 14 qismi).




14.3 – rasm. Katodning turli temperaturalarida diodning volt – ampe xarakteristikalari.

Katod temperaturasi ortgan sari to'yinish toki qiymati ort boradi va volt-amper xarakteristika xarakteristika 0125, 01236 va h. egri chiziqlar bilan tasvirlanadi. Tokning  $i_s$  to'yinish tokidan kichi qiymatlarida tok kuchining kuchlanishga bog'lanishi barch temperaturalarda aynan bir 0123 egri chiziq bilan tasvirlanadi. Tur temperaturalarda to'yinish toki  $i_s$  ning qiymati turlicha bo'ladi, kate temperaturasi ortganda bu qiymatlar tez kattalashadi. Bunda to'yinis toki qaror topadigan anod kuchlanishi ham ortadi. Ko'rib turibmizk vakuumli diodning volt amper xarakteristikasi to'g'ri chiziq bo'lmas ekan, binobarin, vakuumli diod Om qonunig bo'ysunmaydigan o'tkazgichga misol bo'lar ekan.

Diod tokining kuchlanishga bog'liq bo'lishining sababi oddi. Termoelektron emissiya bo'lganida katod va anod orasidagi fazoc vaqtning ixtiyoriy paytida katoddan anodga qarab harakatlanuvcl elektronlar bo'ladi, bu elektronlar manfiy zaryad bulutini hosil qilad (fazoviy zaryad). Bu fazoviy zaryad diodda potensial taqsimotii o'zgartiradi. Agar katod va anod bir – biriga parallel bo'lgan yas plastinkalar bo'lsa (14.4 – rasm), u holda fazoviy zaryad

bo'limganida (sovuv katodda) yassi kondensatorni tashkil qiluvchi katod va anod orasida potensial taqsimoti 1 tog'ri chiziq bilan tasvirlanadi. Termoelektron tok bo'lganida (katod chug'langanida) katod va anod orasida fazoviy zaryad hosil bo'ladi va potensial taqsimoti o'zgaradi; bu taqsimot endi 2 egri chiziq bilan ifodalanadi. Bunda har qanday x tekislikda potensialning qiymati fazoviy zaryad bo'limgandagidan kichik bo'ladi, binobarin, elektronlar harakati tezligi ham fazoviy zaryad bo'lganda kamayadi. Anod kuchlanishi ortganda elektronlarning fazofiy zaryad bulutidagi konsentratsiyasi kamayadi. Shuning uchun fazoviy zaryadning tormozlash ta'siri ham kamayadi va anod toki ortadi.



14.4 – rasm. Dioddagi fazoviy zaryad va uning potensialni qayta taqsimlanishiga ta'siri: 1 – potensialning fazoviy zaryad bo'limgandagi taqsimlanishi, 2 – potensialning fazoviy zaryad bo'lgandagi taqsimlanishi.

Diod toki  $i$  ning anod potensiali  $U$  ga bog'lanishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$i = C \cdot U^{\frac{3}{2}} \quad (14.1)$$

Bunda  $C$  – elektrodlarning shakli va o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.

Yassi diod uchun


$$C = \frac{4}{9} \cdot \epsilon_0 \cdot \frac{S}{d^2} \cdot \sqrt{\frac{2e}{m}} \quad (14.2)$$

bu yerda  $\frac{e}{m}$  – elektronning solishtirma zaryadi,  $d$  – katod va anod orasidagi masofa,  $S$  – katodning sirti (anod sirtiga teng),  $\epsilon_0$  – elektr doimiysi.

14.1 – formula 14.3 – rasmdagi 0123 egri chiziqni ifodalaydi. Bu formula Boguslavskiy – Lengmyur qonuni yoki “ $3/2$  qonuni” deb ataladi.

Anod potensiali vaqt birligi ichida katod chiqarayotgan barcha elektronlar anodga borib tushadigan darajada katta bo’lganida tok o’zining maksimal qiymatiga erishadi va anod kuchlanishiga bog’liq bo’lmay qoladi. To’yinish tokining  $j_s$ , ya’ni katod sirtining har bir birligiga to’g’ri keluvchi to’yinish toki kuchi katodning emissiyon qobiliyatini xarakterlaydi, bu kattalik katodning tabiatiga va uning temperaturasiga bog’liq bo’ladi.

Demak, umuman olganda, vakuumli diod yarim o’tkazgichli diodga o’xshash xossalarga ega. Yarimo’tkazgichli diodlar rivojlanish bilan vakuumli diodlar tobora muhimligini yo’qotib bormoqda. Bugungi kunda integral zanjirlarda kam joy egallaganliklari uchun asosan yarimo’tkazgichli qurilmalardan foydalaniylmoqda. Bu tajribada vakuumli diodning volt – amper xarakteristikasi (VAX) o’rganiladi. VAX anod toki  $I_A$  ning anod kuchlanishi  $U_A$  dan bog’liqligini ifodalaydi. 14.5 – rasmda diodni VAX ning grafik shakli ko’rsatilgan.



14.5 – rasm. Vakuumli diod tokining kuchlanishga bog’liqligi (VAX).

Vakuumli diod volt – amper xarakteristikasida uch sohani bir - biridan farqlash mumkin.

**Teskari kuchlanish sohasi (A):** Bu soha anod potensiali katod potensialiga nisbatan manfiy bo’lgan soha hisoblanadi. Bu sohada elektronlar elektr maydoniga qarshi yo’nalishda harakatlana olmaydi.

Elektronlar katoddan  $E_{kin} > 0$  kinetik energiya bilan ajralib chiqqanlari uchun anod kuchlanishi eng tez elektronlarni to'xtatib qolgunuga qadar anod toki mavjud bo'ladi.

**Hajmiy zaryadlar chegaralanish sohasi (B):** Kichik maydon kuchlanganligida katoddan ajralib chiqayoygan elektronlarning barchasi ham anoda yetib bora olmaydi. Ular katodni atrofida xuddi bulutga o'xshab manfiy fazoviy zaryadni hosil qiladi. Shuning uchun past kuchlanishlarda anodda boshlanadigan elektr maydon kuch chiziqlari katodgacha yetib bormasdan shu elektronlarning fazoviy manfiy zaryadida tugaydi. Anoddan boshlanib chiqayotgan elektr maydon shunday qilib to'siqqa uchraydi. Qachonki kuchlanishning ortishi maydon kuch chiziqlarini katod atrofi sferasiga chuqurroq va chuqurroq kirita olganda anod toki orta boradi.

### Tajriba qurilmasi

Tajriba qurilmasi 14.6 – rasmda tasvirlangan. Qurilmani ulash quyidagi ketma – ketlikda bajarilishi mumkin:

P diodni universal shtativga kiritish uchun shisha shtiftlarni yaxshilab joyiga yo'naltiring va keyin barcha shtift kontaktlari ularning rozetkalariga o'rnatguncha ehtiyyotlik bilan bising.

Tok manbaini taqsimlash shiti orqali tarmoqqa ulang.

Qizdirish kuchlanishi chiqishining (a) manfiy qutbini va tok manbaidagi 500 V chiqish (b) ni xavfsiz ulash simlari bilan ulang va bundan tashqari ularni taqsimlas shitining "Yer" razetkasiga ulang.

Qizdirish kuchlanishi chiqishning manfiy qutbini universal shtativning F4 razetkasiga va musbat qutbini F3 rozetkasiga ulash uchun xavfsiz ulash simlaridan foydalaning.

$I_A$  anod tokini o'lchash uchun anod ulash kabelini ampermetrning minus klemmasiga ulang va ampermetrning plus klemmasini 500 V chiqishning musbat qutbiga ulang.


$U_A$  anod kuchlanishini o'lchash uchun voltmetrni 500 V chiqishga ulang.

Mos keluvchi o'lchash diapazonini tanlang (masalan, ampermetrda mA va voltmetrda 500 V).

Tok manbaini va ampermetrni kuting. Diodning qizdirish simi

birdaniga qizil bolib yonish kerk.

Agar zarurat tug'ilsa diodni tekshirib ko'rish uchun oling va universal shtativ P diod o'rtaсидаги kontaktlar yaxshi ulanganligini tekshirib ko'ring.



14.6 – rasm.

### Tajribalarni o'tkazish

Aylanma potensiometr yordamida 5.0 V qizdirish kuchlanishini o'rnating.

UA anod kuchlanishini aylanma potensiometr (b) yordamida 0 V dan boshlab orttira borib bir qancha kuchlanishlar uchun anod toki IA ni yozib oling (o'lchash misollariga qarang).


Kuchlanishning 5.5 V va 6.0 V qiymatlari uchun ham tajribalarni takrorlang.

**Eslatma:** Vakuumli diodga qizdirish kuchlanishi ulanganda yoki kuchlanishning qiymati o'zgarganda qizdirgich yangi temperaturaga bir necha sekund ichida erishadi. Shuning uchun qizdirgich ulangandan tajribalarni boshlash mumkin.

### Hisoblashlar va natijalar


14.7 – rasmda qizdirish kuchlanishining uch har xil qiymati U<sub>1</sub>, U<sub>2</sub> va U<sub>3</sub> lar uchun anod toki I<sub>A</sub> ning anod kuchlanishi U<sub>A</sub> dan bog'liqligi keltirilgan. Hajmiy zaryadlarning chegaralash sohasi va to'yinish sohasi C aniq ajralib turibdi. Qizdirish kuchlanishining kattaroq bo'lishi to'yinish tokining kattaroq bo'lishiga olib keladi. Bu esa to'yinish tokining katoddan ajralib chiqayotgan elektronlar soniga tog'ri proportional bo'lish faktini tasdiqlaydi. Olingan natijalar asosida 14.7 – rasmda ko'rsatilgandek

parametrlarning bog'lanish grafigi chizilsin va tahlil qilinsin.



14.7 – rasm.

Boguslavskiy – Lengmyur tenglamasini tekshirib ko'rish uchun anod  $I$  tokining anod kuchlanishi  $U_A$  dan bog'liqligi 14.8 – rasmida chizilgan. (14.1) tenglamaga asosan chiziqli bo'lishi kutilayotgan bog'lanish grafikdan aniq ko'rindi va bu qonunning to'g'riligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar asosida chiziqli bo'lishi kutilayotgan bog'lanish aniqlansin va tahlil qilinsin.



14.8 – rasm.

### Nazorat savollari

- Termoelektron emissiya xodisasi. Elektronning chiqishi.
- Vakuumli diodning tuzulishi, ishlash prinsipi va vazifikasi.
- Vakuumli diod uchun volt-amper harakteristikasi.
- Nima uchun anod kuchlanishi berilmasa ham, vakuumli doidda anod toki mayjud bo'ladi? Sababi nimada?
- Nima uchun tajribada to'yinish tokiga keskin o'tilmaydi?
- Elektron bulut anod tokiga qanday ta'sir etadi?
- Qonunini tushuntiring va isbotlang.

8. To'yinish toki zichligini haroratga bog'liqligi. Deshman formulasi.

9. Fermi sathi nima?

10. Termoelektron chiqish ishini aniqlashning Richardson usuli.

11. Termoelektron chiqish ishini aniqlashning to'la tok usuli.

12. Yarimo'tkazgichli diodning tuzilishi, ishlash prinsipi va vazifasi.

13. Vakuumli diod yordamida o'zgaruvchan toklarni to'g'irlash.

14. Termoelektron emissiya hodisasini fan va texnikada qo'llanishi.

### **Foydalanolgan adabiyotlar**

[1]-15 bob, 156-157-paragraflar; [2]-10 bob, 129, 130-paragraflar; [3]-15 bob, 92-96-paragraflar; [5]-13 bob, 178-183-paragraflar.

## ELEKTR O'LCHOV ASBOBLARI

Elektr ( $q, I, U, \dots$ ) va magnit ( $B, \Phi, L, \dots$ ) kattaliklarni miqdoriy o'lhash uchun turli xil elektr o'lhash asboblari (galvanometrlar G, ampermetrlar A, voltmetrlar V va boshqalar) va ularning turli xil sxemalardagi kombinatsiyalari qo'llaniladi.

Elektrik kattaliklarni ularning namoyon bo'lishi va ta'sirlariga qarab o'lchanadi: a) mexanik ta'sir; masalan ikki plastina orasidagi potentsiallar farqini o'zaro tortishish kuchi orqali o'lhash mumkin; b) kimyoviy ta'sir; masalan, oqib o'tgan elektr miqdorini elektrodlarda yig'ilgan modda miqdoriga qarab aniqlash mumkin; v) issiqlik ta'siri; o'tkazgichning qizishiga qarab va h.k. Bir turdag'i kattalikni o'lhash orniga u bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdag'i kattalikni o'lhash mumkin. Masalan, zanjirning bir qismidagi qarshilikni bilgan holda va voltmetr orqali kuchlanish tushishini o'lhab Om qonuni bo'yicha tok kuchini topish mumkin. O'lhashlar to'g'ridan -- to'g'ri (elektrometr bilan q ni o'lhash) yoki qiyosiy (ko'priklar sxemasi yordamida R ni o'lhash) bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda, o'lhashlar oxir -- oqibat yoki strekaning siljishiga yoki shkaladagi nur o'lhashga keltiriladi.

O'lchov asboblari ikki turga bo'linadi: 1) to'g'ridan -- to'g'ri o'lhash asboblari (qarshiliklar, elektr yurituvchi kuchlar, sig'implar etalonlari) va 2) kattalikning o'lchov birliklari bilan solishtiruvchi asboblari. O'lchov mexanizminig' o'zi, ko'pincha, mexanik ta'sirlardan himoyalangan korpus ichida joylashgan bo'ladi. Qo'shimcha detallar korpus tashqarisida joylashgan bo'lishi mumkin. Asboblar quyidagi turlarga bo'linadi: a) o'lhash xarakteriga qarab: to'g'ridan -- to'g'ri o'lchaydigan va o'zi yozib oladigan; b) ishlatalish sharoitlariga qarab: statsionar, mobil va transportda joylashtirilgan; v) o'lhash aniqligi bo'yicha: sinflarga - 0.2; 0.5; 1; 1,5; 2; sinfga tegishli sonlar o'lhash chegarasidagi xatolikning foizini bildiradi va asbobimiz shkalasiga belgilab yoziladi; g) ishslash printsipiga qarab: magnitoelektrik, elektromagnitik, issiqlik, elektrodinamik va boshqacha bo'lishi mumkin. Asbobning ishslash printsipini ko'rsatuvchi belgi ham uning shkalasiga yoziladi (ushbu belgililar quyidagi 1 – jadvalda keltirilgan).

Bundan tashqari, shkalaga asbobning boshqa xarakteristikalarini ham yoziladi: tok turi – o'zgarmas (—) yoki o'zgaruvchan (~); asbobning joylanishi - vertikal (↑), gorizontal (→) yoki burchak ostida ( $\angle 60^\circ$ ); himoya qobig'ini buzuvchi kuchlanish ( $\vee 2$  kV) va b.

Sistema	Shartli belgi	Sistema	Shartli belgi
Magnitoelektrik		Elektrodinamik	
Eletromagnit		Issiqlik	

### Magnitoelektrik asboblar

Laboratoriyalarda, ko'pgina hollarda, tokli g'altakka ta'sir etuvchi magnit maydoni printsipiga asoslangan magnitoelektrik asboblar ishlataladi. Asosiy magnitoelektrik asbob – galvanometr hisoblanadi. U sezgirligi yuqori asbob bo'lib, kuchsiz toklar va boshqa elektr kattaliklarni o'lchaydi. 1- rasmda strelkali galvanometrning sxemasi keltirilgan. Ingichka simdan yasalgan g'altak (ramka) doimiy magnit qutblari orasida aylanishi mumkin. Magnit maydonini kuchaytirish uchun ichkarida temir o'zak o'rnatilgan. G'altakdan tok o'tkazilganda strelka maydon bo'ylab joylashishga harakat qiladi. G'altakka ta'sir etuvchi moment  $M_{ay}$  tok kuchimiz  $I$  ga proporsional, ya'ni  $M_{ay} = k_1 I$ , bu yerda koefitsiyent magnit hosil qilgan maydon kuchlanganligiga, g'altakdagi o'ramlar soniga, asbobimiz o'lchamlari va undagi elementlarning o'zaro joylashuviga bog'liq. G'altak va unga bog'langan strelkani biror  $\varphi$  burchakka burGANIMIZDA  $\Pi$  prujinamiz cho'ziladi va qarshi moment  $M_{el}$  ni paydo qiladi. Bu moment aylanish burchagimiz  $\varphi$  ga to'g'ri proporsional, ya'ni  $M_{el} = k_2 \varphi$ , bu yerda koefitsiyent prujinaning o'lchamlari va materialiga bog'liq.

Muvozanat paytida

$$M_{ay} = M_{el} \quad \text{ya'ni} \quad k_1 I = k_2 \varphi \quad \text{va} \quad I \sim \varphi \sim n \quad (1)$$


bu yerda  $n$  strelka shkalasida ko'rsatgan bo'limlar soni. (1) ifodadan magnitoelektrik galvanometrning shkalasi bir tekis ekanligi ko'rinish turibdi. Demak,

$$I = C \cdot n \quad \text{yoki} \quad n = S \cdot I$$

Proporsionallik koefitsiyenti  $C$  qurilma parametrlariga bog'liq bo'lib, qurilma doimiysi deb ataladi. Unga teskari kattalik  $S = \frac{1}{C}$


asbobning sezgirligi deb ataladi. Ko'pincha, galvanometrning doimiysi miqdorda uchraydi.

Galvanometr sezgirligini oshirish uchun uning harakatchan qismini yengillashtiriladi va spiral prujinani elastik o'raluvchi ipga almashtiriladi. Ipga ramka deb ataluvchi kichkina g'altak osiladi. Shunga o'xshash ko'zguli galvanometrning sxemasi 2 – rasmida tasvirlangan.



1 – rasm.

Burchak  $\varphi$  ni ipga o'ralishni belgilash uchun unga kichkinagini ko'zgu 3 ulanadi. Yorug'lik nuri mambadan chiqadi, ko'zguda aks etadi va asbobdan ma'lum masofadagi joylashgan shaffof shkalaga tushadi. Ko'zgu burilganda yorug'lik nuri mos ravishda shkaladagi tegishli bo'limda aks etadi. Shkala bilan ko'zgu orasidagi masofa 1 m bo'lsa mm da o'lchanadi.



2 – rasm.


Yuqori sezgirligi bois galvanometrning doimiysi — ga teng bo'ladi. Bunday kichik tokni elektrokimyoviy yo'l bilan o'lchaydigan bo'lsak elektrodlarda 1 mg kumush ajralishi uchun 3000 yil ketar ekan.

Ramkachaga qo'shimcha yukchalarni osib (3 – rasm) uning inersiya momentini  $I$  ni oshiramiz, buning natijasida ko'zguli galvanometr ballistik galvanometrga aylanadi va uning yordamida qisqa tok impulslarini o'lchash mumkin bo'ladi. Agar ramka orqali kichik  $\Delta t$  vaqt ichida  $I$  tok o'tsa, unda o'tgan zaryad ramkaga ta'sir qilayotgan impuls momentiga proportional, ya'nı  $q$  bo'ladi. Mexanika qonunlariga ko'ra, bu impuls momenti ramkaning harakat impuls momenti ortirmasiga teng ),

Bu yerda  $\omega$  – ramkaning harakat oxiridagi aylanishning burchak tezligi. Turkı natijasida ramka  $I\omega^2/2$  kinetik energiyaga erishadi va ipni tortib aylantirishni boshlaydi. Bunda taranglik kuchlariga qarshi ish bajariladi va taxminan 5 – 10 sekund vaqt o'tgandan keyin ramka biror  $\varphi$  burchakka burilib aylanishdan to'xtaydi. Shu paytda ramka olgan kinetik energiya ipning elastik deformatsiya potentsial energiyasiga aylanadi, ya'nı

bu yerda —— ipning taranglik koeffitsiyenti. Bu yerdan —— va quyidagi ifodadan —— o'tgan zaryad  $q$  uchun

(2)  
bo'ladi.  $C_b$  – kattalik galvanometring ballistik doimiysi deb ataladi va uning qiymati taxminan  $10^{-9}$  —— atrofida bo'ladi.




3 – rasm.

Harakat to'xtagach ip qayta yechila boshlaydi va ramka so'nuvchi (ishqalanish tufayli) tebranma harakat qila boshlaydi. Tebranishlarni to'xtatish uchun ramkani qisqa tutashtiriladi va paydo bo'lgan induksion toklar harakatni tormozlaydi.

Galvanometr ramkasi ingichka simdan o'ralgani sababli undan katta toklarni o'tkazish mumkin emas. Shuning uchun, ramkani kuydirmaslik maqsadida galvanometr oddiy zanjirga ulanmaydi.

I tokni o'lchash uchun zanjirga ampermetr ulanadi. Ampermetr bu – galvanometr va unga, 4 – rasmda ko'satilgandek, parallel ulangan kichik qarshilikdan (shundan) iborat.



4 – rasm.

Tok tugunlarda tarmoqlanganda uning katta qismi shunt orqali o'tsa kichik qismi  $I_g$  galvanometr orqali o'tadi.  $r$  bo'lgani uchun Kirxgof qoidalariga ko'ra

Bunda

— (3)

Galvanometrdagi  $I_g$  tok zanjirjagi  $I$  tokdan ancha kichik lekin unga to'g'ri proporsional. Shu proporsionallikdan foydalanib galvanometr shkalasini zanjirdagi tok qiymatiga moslab graduirovka qilish mumkin. O'lhashlarda ampermetrn zanjirga ketma – ket ularash kerak. G'altaknini kuydirmaslik uchun uni tok manbasiga qisqa tutushtirib bo'lmaydi. Zanjirdagi quvvat isrofini kamaytirish uchun ampermetr qarshiligi  $r_a = r_g r_{sh} / (r_g + r_{sh})$  zanjirdagi qarshiliklardan kam bo'lishi lozim.


Ko'p shkalalari ampermetrlarda shuntlar yig'masi bo'lib, ular tok qiymatiga qarab o'zgarib turishi mumkin.

Galvanometrga qo'shimcha katta qarshilikni  $r_q \gg r_g$  ulab, o'tayotgan tokni kamaytirib, asbobimizni voltmetr sifatida ishlatalish mumkin. Voltmetr zanjirdagi U kuchlanish tushishini o'lchash uchun, 5 – rasmda ko'rsatilgandek, qarshilikka parallel ulanadi. Om qonuniga ko'ra, voltmetrdan (galvanometrdan) o'tayotgan tok kuchi  $I_V$  zanjir

$$I_V = \frac{U}{R_V} = \frac{U}{r_g + r_q} \quad (4)$$

dagi kuchlanish tushishiga to'g'ri proporsional.

Bu proporsionallikdan foydalanim galvanometr shkalasini  $U$  kuchlanishga moslab graduirovka qilish mumkin.



5 – rasm.

Voltmetrnning zanjirga ulanishi natijasida zanjirdagi kuchlanish qiymati uncha o'zgarmasligi uchun uning qarshiliqi zanjirdagi qarshilikdan juda katta bo'lishi kerak  $r_V \gg r_z$ . Unda qarshiliklarni parallel ulanish qoidasi

$$r_{yig'} = \frac{r_V r_z}{r_V + r_z}$$

voltmetr ulanganda deyarli o'zgarmaydi.

Ko'p shkalali voltmetrlerda qarshiliklar yig'masi bo'lib, ular kuchlanish qiymatiga qarab o'zgarib turishi mumkin.


### **Elektr o'lchov asboblarining o'zgacha sistemalari**

Magnitoelektrik asboblar sistemasi yuqori sezgirlikka ega, ammo faqat o'zgarmas toklarni o'lchash uchun yaroqli. Shuning uchun, o'lchash texnikasida boshqa qator asbob sistemalari ishlatalidi. Ulardan foydalanim nafaqat o'zgarmas balki o'zgaruvchan toklarni ham o'lchash mumkin. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz. 6 – rasmda elektromagnit sistemadagi asbob sxemasi tasvirlangan.

K g'altakdan  $I$  tok o'tganida unda magnit maydoni paydo bo'ladi va prujinaga osilgan C temir o'zakni g'altak ichiga tortadi.


Tokning qiymati qanchalik katta bo'lsa prujina tortilishi va unga bog'langan strelkaning burlishi shuncha katta bo'ladi. Konstruktiv jihatdan bunday asboblar quyidagicha yasaladi: o'zak qandaydir shaklda yasalib, strelka bilan aylanish o'qi atrofida birga aylanadi. Prujina esa magnitoelektrik galvanometrdagidek spiral shaklida bo'ladi.

7 – rasmida issiqlik o'tkazish hodisasiiga asoslangan o'lchov asbobining elektr sxemasi keltirilgan. O'tkazgich orqali o'tayotgan  $I$  tok uni qizdiradi va buning natijasida sim o'tkazgich cho'ziladi. Richaklar sistemasi orqali bu yuzaga keladigan siljish P rolikka o'ralgan H ipning bir uchiga uzatiladi.



6 – rasm.

Bunda ipning ikkinchi uchi plastinkasimon prujina yordamida cho'ziladi va g'altak burlilib asbob strelkasini o'zi bilan birgalikda aylanma harakatga keltiradi. Joul – Lens qonuniga ko'ra ajralib chiqqan issiqlik miqdori va ipning qizishi tok kuchining kvadratiga proporsional bo'lganligi tufayli issiqlik ampermetri shkalasi bir tekis emas. Bu sistemadagi elektr o'lchov asboblaridan taqrifiy o'lchashlar qanoatlantiradigan hollardagina foydalaniladi, chunki ular yetarlicha katta issiqlik inersiyasiga ega.



7 – rasm.


O'lchov asboblarining elektrodinamik sistemalarida ikkita tokli g'altakning o'zaro ta'siridan foydalilanadi. 8 – rasmda elektrodinamik vattmetr W keltirilgan. Birinchi kichik qarshilikli katta g'altak zanjirda ketma – ket ulangan. Bu g'altak orqali zanjirdan oqib o'tayotgan  $I$  tok o'tadi va u g'altakda  $I$  tokka proporsional bo'lgan  $B$  induksiyali magnit maydonini hosil qiladi. Ushbu g'altak ichida uning o'qiga perpendikulyar ravishda xuddi voltmetr kabi ulanadigan katta qarshilikli ikkinchi g'altak o'rnatilgan.

Bu g'altakdagi  $I_1$  tok  $U$  kuchlanish tushishiga proporsional. Birinchi g'altakning magnit momenti ikkinchi g'altakka  $B$  induksiyali magnit maydoniga va ikkinchi g'altakdagi  $I_1$  tokka proporsional bo'lgan buriluvchi moment bilan ta'sir ko'rsatadi, ya'ni  $M_b = BI_1$ ; chunki  $B \sim I_1$ , va  $I_1 \sim U$ , shu sababli  $M_b \sim IU$ .

Ikkinci g'altak burilib turib, spiralsimon prujinani cho'zadi, va buruvchi moment elastik kuchlar momenti bilan tenglashadi. U holda g'altakning burilish burchagi va u bilan bog'langan strelka

(5)

$IU$  ko'paytmaga proporsional bo'lar ekan, ya'ni tok tufayli zanjirda ajraladigan quvvatga proporsional bo'ladi.




8 – rasm.

Ba'zi bir kattaliklarni o'lchash maxsus o'lchov sxemalarini o'z ichiga olgan, xususan tarkibida turli elektron lampalar bo'lgan ulchov asboblaridan foydalanishni talab qiladi.


### Reostat va potentsiometrlar

Zanjirdagi toklarni o'lchash uchun odatda reostat deb ataluvchi o'zgaruvchan qarshiliklar unda ketma – ket ulanadi. Reostat qattiq nometall karkasga o'ralsan ma'lum kesimiga ega bo'lgan ochiq metall simidan iborat sistema (9 – rasm).

Bu g'altakka parallel ravishda quyidagi rasmida ko'rsatilgandek metall sterjen o'natilgan bo'lib, unga  $\Delta$  surgich deb yuritiluvchi kontakt (surgich) o'natilgan. Surgichning vaziyatiga bog'liq ravishda asosiy simmnng bir qismidan tok oqib o'tadi, simning qarshiligi uning uzunligiga proportional.



9 – rasm.




10

rasm.


Reostatning ulanish sxemasi 10 – rasmida keltirilgan. Reostat korpusida uning to'la qarshiligi va undan o'tishi mumkin bo'lgan tokning maksimal qiymati keltiriladi.

Keng intervalda turli qarshiliklarni tanlab olish maqsadida ko'pchilik hollarda qarshiliklar magazini deb ataluvchi qurilmalardan foydalaniladi. 11 – rasmida maxsus tirqishlarga joylashtiriladigan yetarlicha kichik qarshilikli mis plastinkalardan tashkil topgan shtepselli qarshiliklar magazini keltirilgan. Tirqishlar orasida maxsus

aniq qarshilikka ega bo'lgan g'altak o'ramlari joylashtirilgan. Tirqishlarga maxsus shtepsellarni joylashtirib g'altaklarni qisqa tutashtirib ularni zanjirga ulash mumkin. Bunday qarshiliklar magazini qarshiligi qisqa tutashtirilmagan g'altakchalar qarshiliklari yig'indisidan iborat, ya'ni qaysi shtepsellar olib qo'yilganiga qarab aniqlanadi.




Richagli qarshiliklar magazinida g'altaklar bir xil qarshilikka ega bo'lgan guruhlarga ( $1 \Omega$ ,  $10 \Omega$ ,  $100 \Omega$  va boshqalar) ketma – ket ulanadi va xuddi 12 – rasmida ko'rsatilgandek har bir g'altakdan alohida – alohida simlar chiqariladi, elektr zanjiriga kerakli bo'lgan qarshilikni ulash mumkin.



Kuchlanishni bo'lish uchun reostatning uch qisqichi ham ishlatiladi va so'nggi qisqich bevosa 13 – rasmida ko'rsatilgan potensiometr sxemasi bo'yicha ulanadi. Potensiometrning to'la qarshiligiga kuchlanish manbai bilan ketma – ket ulanadi. Potensiometr qizib ketmasligi uchun undan kichik tok oqib o'tishi va

uning qarshiligi manbaning ichki qarshiligi dan yetarlicha katta bo'lishi kerak.



13 – rasm.

Agar istemolchi zanjirida manbaning to'la kuchlanishi  $\varepsilon$  ning bo'lishi shart bo'lmasa, u holda biror chetki nuqta va potentsiometr surgichi orasida ulanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Калашников С. Г. Электричество. Москва, Физматлит 2004 г.
2. Сивухин Д.В. Общий курс физики. том – III. Электричество. Москва, Физматлит 2015 г.
3. Савельев И.В. Курс общий физики. том. II – Электричество, Москва, КноРус 2012 г.
4. Зисман Г.А., Тодес О. М. Курс общей физики. II – том, Электричество и магнетизм. Москва, Лань 2019 г.
5. Телеснин П.В., Яковлев В.Ф. Курс физики, Электричество, Просвещение, Москва 1969 й.
6. Штрауф Е.А. Курс физики. II – том, Судпромиздат, Ленинград 1963 й.
7. Зелдович Я.Б. Мишкис А.Д. Элементы прикладной математики, II-бўлим, Математическая обработка результатов опыта. Физматлит, Москва 2008 г.
8. Зайдел А.Н. Элементарные оценки ошибок измерений. Наука, Москва 1968 й.
9. Алешкевич В.А. Электромагнетизм, Физматлит, Москва 2014
10. Киселев Д.Ф., Жукарев А.С., Иванов С.А., Киров С.А., Лукашева Е.В Электричество и магнетизм. Методика решения задач. Москва, Физический факультет МГУ им. М.В.Ломоносова 2010 г.
11. Русаков Е.В. Электричество и магнетизм. Разработка семинарских занятий (Университетский курс общей физики). М., Физический факультет МГУ, 2015.
12. Physics for Scientists and Engineers. Sixth edition. Paul A. Tipler. Gene Mosca 2008.
13. Лабораторные работы общего физического практикума. Казань, КГУ, 2006 г.

## MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	<b>3</b>
1. NAZARIY MATERİALLAR. 1. VAKUUMDA O'ZGARMAS ELEKTR MAYDONI. KULON QONUNI. GAUSSNING ELEKTROSATIK TEOREMASI	<b>5</b>
2. ELEKTROSTATIK MAYDONGA BAJARILGAN ISH. POTENSIAL	<b>9</b>
3. ELEKTR MAYDONIDA O'TKAZGICHALAR. ELEKTR SIG'IMI	<b>14</b>
4. ELEKTROSTATIK MAYDONDAGI DIELEKTRIKLAR	<b>18</b>
5. ELEKTR MAYDON ENERGIYASI. PONDEROMOTOR KUCHLAR	<b>23</b>
6. O'ZGARMAS ELEKTR TOKI	<b>28</b>
7. STACIONAR TOKNING VAKUUMDAGI MAGNIT MAYDONI	<b>35</b>
8. ELEKTROMAGNIT INDUKCIYA, O'ZINDUKCIYA VA O'ZARO INDUKCIYA KOEFFICIENTLARI	<b>41</b>
9. MAGNITOSTATIKADA ENERGIYA VA KUCHLAR	<b>45</b>
10. O'ZGARUVCHAN TOK ZANJIRLARI	<b>47</b>
1 (60)- LABORATORIYA ISHI. ELEKTROSTATIK MAYDONNI O'GANISH	<b>63</b>
2(70) - LABORATORIYA ISHI. KONDENSATORNING ZARYADLANISH VA RAZRYADLANISH JARAYONLARINI O'GANISH	<b>75</b>
3 (81)- LABORATORIYA ISHI . O'ZGARMAS TOK KO'PRIGI YORDAMIDA QARSHILIKLARNI O'LCHASH	<b>83</b>
4 (57)- LABORATORIYA ISHI. OZGARMAS TOK KO'PRIGI USULIDA GALVANOYETRNING ICHKI QARSHIUGINI O'LCHASH	<b>89</b>
5 (56) - LABORATORIYA ISHI. MISNING ELEKTROKIMYOVIY EKVIVALENTINI ANIQLASH	<b>92</b>
6 (82) - LABORATORIYA ISHI. TAQASIMON MAGNIT MAYDONIDA TOKLI O'TKAZGICHGA TA'SIR ETUVCHI KUCHNI O'LCHASH	<b>98</b>
7 (83) - LABORATORIYA ISHI. TOKLI PO'G'Rİ O'TKAZGICH VA AYLANMA HALQANING MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH	<b>104</b>
8 (54)- LABORATORIYA ISHI. YER MAGNIT MAYDON KUCHLANGANLIGINING GORONTALI TASHKIL ETUVCHISINI ANIQLASH	<b>109</b>
9 (86) – LABORATORIYA ISHI YER MAGNIT MAYDONINI AYLANUVCHI INDUKSION G'ALTAK YORDAMIDA O'LCHASH	<b>118</b>
10 (59) - LABORATORIYA ISHI. KO'PRIK USULI YORDAMIDA KONDENSATORLARNING SIG'IMINI O'LCHASH	<b>126</b>
11 (65) - LABORATORIYA ISHI. O'ZGARUVCHAN TOK UCHIUN OM QONUNINI TEKSHIRISH	<b>132</b>
12 - LABORATORIYA ISHI. ERKIN ELEKTROMAGNIT TEBRANISHLAR	<b>140</b>
13 (84) – LABORATORIYA ISHI. MAGNIT O'ZAKKA EGA BO'LMAGAN INDUKTIV G'ALTAK NING MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH	<b>145</b>
14 (88) – LABORATORIYA ISHI. VAKUÜMLI DİODNING VOLT - AMPER XARAKTERISTIKASINI O'GANISH	<b>152</b>
ELEKTR O'LCHOV ASBOBLARI	<b>162</b>
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	<b>173</b>

144000  
30226

N.A.NURMATOV, G.T.RAXMONOV, R.ALIMOV,  
O.Z.SULTONOV, I.X.XAMIDJONOV

# ELEKTR VA MAGNETIZM FANIDAN PRAKTIKUM

*Uslubiy qo'llanma*

*Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2021*

*Muharrir: Xolsaidov F. B.*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 14.12.2021. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 11. Nashr bosma tabog'i 11.  
Adadi 100 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-a uy.*



+99893 552-11-21

*Muallif va nashriyot rozilgisiz chop etish ta'qiqlanadi.*

ISBN 978-9943-7258-7-4



9 789943 725874